

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ

Temir yo‘l transporti muhandislari instituti

**S.M. Sultanova, M.M. Yuldasheva,
Z.N. Qurbanov**

SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH

fanidan 5230900 – “Buxgalteriya hisobi va audit (temir yo‘l transporti)”
ta’lim yo‘nalishi 3 va 4-bosqich bakalavriat talabalari
hamda professor-o‘qituvchilar uchun
o‘quv qo‘llanma

Toshkent – 2018

UDK 336.2

Soliqlar va soliqqa tortish. O‘quv qo‘llanma. **S.M. Sultanova, M.M. Yuldasheva, Z.N. Qurbanov.** - ToshTYMI, 2018 y. 124 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada soliqlarning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati, zarurligi, funksiyalari, soliq tizimi, soliq tizimining tarkibiy tuzilishi, yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish masalalari o‘z aksini topgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimi, yuridik shaxslarni soliqqa tortish mexanizmi, jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlariga e‘tibor berilgan.

O‘quv qo‘llanma Oliy ta’limning 230000 – “Iqtisod” ta’lim sohasidagi talabalar va iqtisodiy ta’lim yo‘nalishlari Oliy o‘quv yurtlarining bakalavrlari, magistrarlari, moliya va soliq mutaxasisslari, bank xodimlari, buxgalterlar, auditorlar, professor-o‘qituvchilar va ilmiy tadqiqotchilarga mo‘ljallangan.

Institut Ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar: K.M. Misirov – i.f.n, dot. (TMI);
G.T. Zakirova – i.f.n, dot. (TYMI).

Kirish

Mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash, bozor islohotlarining yanada chuqurlashtirilishi natijasida yildan yilga salmoqli natijalar qo‘lga kiritilib, barqaror iqtisodiy o‘sinh yo‘nalishi mustahkamlanib bormoqda. Bunda hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy siyosatning to‘la va izchil amalga oshirilishi, iqtisodiyotning muhim ustuvor tarmoqlarining belgilab berilishi hamda ularni rivojlantirish bo‘yicha barcha imkoniyatlarning safarbar etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Rivojlangan davlatlarning soliq tizimlari har xil turdagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sharoitlari ta’sirida vujudga kelgan. Shuning uchun ularning soliq tizimidagi soliqlar turlari, ularning tuzilmasi, undirish usullari, stavkalari, fiskal funksiyalari, soliq bazalari, harakat miqyosi, imtiyozlari bilan bir-biridan farqlanib turadi.

Ma’lumki, soliqlar bevosita davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liqdir, ya’ni davlat o‘zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Soliqlarning amal qilishi, bu obyektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi barcha subyektlar ham real sektorda, ya’ni ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko‘rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki faoliyati iqtisodiy samarasiz sohalar ham mavjudki, bular soliqlarning obyektiv amal qilishini talab etadi.

Soliq tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning paydo bo‘lishi va uni faoliyatining davomiyligi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu o‘rinda soliq kategoriyasi davlatni iqtisodiy siyosati orqali iqtisodiy voqelik sifatida yuzaga chiqishini tavsiflaydi. Soliq tushunchasi tor ma’noda davlat ixtiyoriga soliq to‘lovchilardan majburiy tartibda undiriladigan pul tushumlarini ifodalaydi.

Davlatning bajaradigan funksiyalari va vazifalari ko‘p bo‘lib, bozor iqtisodiyoti rivojlana borishi bilan ba’zi ijtimoiy himoyalangan bozor munosabatlariga mos kelmaydigan vazifalar yo‘qola borsa, yangi vazifalar paydo bo‘la boshlaydi. Bularga bizning respublikamizda kam ta’minlanganlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini tashkil qilish kabilar kiradi. Hozirgi iqtisod yo‘nalishi bitiruvchilari “Soliqlar va soliqqa tortish” fanidan soliqlarni va boshqa majburiy to‘lovlar bilan bog‘liq munosabatlarini nafaqat O‘zbekiston Respublikasida, xorij amaliyotidagi soliq tizimlari va soliqqa tortish xususiyatlarini, ularning afzalliklar va kamchiliklarini, xususiyatlarini bilishlari shart.

Ko‘pincha rivojlangan davlatlarda soliq tushumlarining eng katta ulushi bilvosita soliqlarga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, muhim o‘rinni bojxona bojlari ham o‘ynaydi.

Zamonaviy soliq tizimi soliqqa tortish shakllari va usullarining benihoya nozikligi va qo'llaniladigan soliqlarning o'ta xilma-xilligi bilan tavsiflanadi (ayrim mamlakatlar doirasida ularning 100 ga yaqin ko'rinishlari mavjud). Rivojlangan mamlakatlarning barchasi va rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi uchun ushbu tizimning tamoyillari va xususiyatlari umumiydir, lekin ularning bu tamoyillar va xususiyatlarni soliq siyosatlarida qo'llanishlarida jiddiy farqlar bor.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2016 yil 11 fevraldagi 66-sonli buyrug'i hamda 2016 yil 1 martdagi 89-sonli buyrug'i ijrolarini ta'minlash maqsadida, yuqori malakali va oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashda yangi pedagogik va axborot texnologiyalari yordamida, jahon ta'lim tizimida yetakchi davlatlar tajribasiga asoslanib fanlarni o'qitishning o'rnini juda dolzarb va muhim ahamiyatga ega.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni, "Soliq kodeksi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligiga oid me'yoriy hujjatlar asosida tayyorlandi.

O'quv qo'llanmaning mualliflari: dotsent Sultanova S.M. – 7, 8, 9, 10, 12, 13, 14, 17, 19-boblar; professor Z. N. Qurbanov – 1, 2, 4-boblar; katta o'qituchi Yuldasheva M.M. – 3, 5, 6, 11, 15, 16, 18-boblar.

1-BOB

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” FANINING PREDMETI VA O‘RGANISH USULLARI

Reja:

- 1.1.«Soliqlar va soliqqa tortish” fanining maqsadi, predmeti, vazifalari
- 1.2.Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimi
- 1.3.Soliqlarning funksiyalari

Tayanch so‘z va iboralar: to‘lovlar, soliqlar, soliqqa tortish, soliq tizimi, davlat byudjeti, soliq to‘lovchilar, soliq xizmati, amerikacha model (AKS), Yaponiya modeli, Yevropa modeli, nostandart modellar.

1.1. «Soliqlar va soliqqa tortish” fanining maqsadi, predmeti va vazifalari

“Soliqlar va soliqqa tortish” fani doimiy takrorlanib turadigan soliq harakatlarini, mexanizmini va soliq munosabatlarini har taraflama chuqur o‘rganish asosida soliq munosabatlarni tartibga solish yo‘llarini o‘rgatadi.

“Soliqlar va soliqqa tortish” fani “Buxgalteriya hisobi va audit”, ”Sug‘urta ishi”, “Moliya” fanlari bilan chambarchas bog‘liqdir va ularning maxsus, chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan bo‘limidir. Moliya ham soliqlar ham pul munosabatlarini ifodalaydi, ya’ni ularning ikkalasi uchun yagona asos – pul munosabatlarining mavjudligidir, ammo soliqlar o‘ziga xos bo‘lgan pul munosabatlarini, ya’ni soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasidagi majburiy pul munosabatlarini ifodalaydi.

Bozor iqtisodiyoti talab va taklif, raqobat, qiymat va boshqa iqtisodiy qonunlar orqali faoliyat yuritadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va pul munosabatlari mavjud, ya’ni bozor iqtisodiyoti, pirovard natijada pulli munosabatlar iqtisodiyotidir.

Bozor iqtisodiyoti qonunlarini o‘rganib chiqib, davlat ijtimoiy mahsulot, yalpi ichki mahsulot qiymatini soliq orqali taqsimlash vazifasini o‘z zimmasiga oladi. Shunday ekan davlat mamlakat iqtisodiyotini boshqarishda katta rol o‘ynaydi. Bu esa o‘z navbatida “Soliqlar va soliqqa tortish” fanining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat soliq munosabatlarini tashkil qilib, bozor iqtisodiyotini amalga oshirishda yetakchilik, boshqaruvchilik rolini bajaradi, shuningdek, davlat soliqlarning mohiyati va vazifalarini mukammal o‘rganib chiqib, uni amaliyotga tatbiq etishni ham o‘z zimmasiga oladi.

Bozor iqtisodiyoti, uning talab va taklif, raqobat va qiymat kabi iqtisodiy qonunlari “Soliqlar va soliqqa tortish” fanining asosiy negizidir.

Davlat mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlaydi

va soliqlardan taqsimlash kategoriyasi sifatida o'zining hamma ijtimoiy talablarini qondirishda foydalana oladi.

“Soliqlar va soliqqa tortish” fani pul munosabatlarini ifodalovchi soliqlarning bozor iqtisodiyoti sharoitida quyidagi masalalarni:

- soliqlarning mohiyati va mazmuni;
- soliqlarni tashkil qilish asoslari;
- soliqlarning zarurligi;
- soliqlarning umumbelgilangan va soddalashtirilgan tizimlaridagi turlari;
- soliqlarning byudjetga tushish nuqtayi nazaridan umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo‘linishi;
- soliq stavkalari va ularning turlari, ularni amaliyotga tatbiq etish usullari va uslubi;
- soliq tizimiga oid boshqa harakatlar hamda soliqlarning qisqacha rivojlanish tarixini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

“Soliqlar va soliqqa tortish” fanining boshqa fanlar singari o‘ziga xos predmet va vazifalari mavjud. “Soliqlar va soliqqa tortish” fanining predmeti soliq voqeliklari pul munosabatlarini o‘rganishdan iborat bo‘ladi. Bu pul munosabatlari soliq to‘lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o‘z mulkiga aylantiruvchi (soliq oluvchi) davlat o‘rtasidagi munosabatlardir. Fanning mohiyati ular o‘rtasidagi munosabatni chuqur o‘rganish, ularni to‘g‘ri tashkil qilishni ta‘minlashdir. To‘g‘ri tashkil etish deganda soliq munosabatida qatnashuvchi tomonlarning iqtisodiy manfaatini e‘tiborga olish, muvozanatni saqlash kabi munosabatlarni tashkil qilish tushuniladi. Bu muvozanatni saqlashda tomonlar adolatlik va insoflik tamoyiliga amal qilishi zarur. Fanning predmetini chuqur o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, munosabatlarda bir tomonlama zo‘ravonlik munosabati bo‘lgunday bo‘lsa, ikkinchi tomon unga javoban o‘z daromadlari, boshqa soliq obyektlarini har xil yo‘llar bilan yashiradi. Bunday hollarda har qanday huquqiy hujjatlarining ham kuchi yetmay qolishi mumkin. Daromadlarni, soliq obyektlarini yashirish holati ham munosabatlarni buzadi. Demak, soliqlar va soliqqa tortish fanini chuqur o‘rganish orqali amaliyotda soliq tushumlari rejalarini muvaffaqiyatli bajarish vazifasiga ham erishish mumkin.

Fanning funksiyalari soliq to‘lovchilarni nazariy jihatdan qurollantirish hamda amaliyotda adashmaslik uchun yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatishdan iboratdir. Shuningdek, chet el soliq amaliyotini o‘rganish va taqqoslash asosida tegishli xulosalar ishlab chiqish, ularning ish tajribalarini o‘zimizning amaliyotga moslab zarur joylarini tadbiq etishdan iboratdir.

1.2. Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimi

Zamonaviy soliq tizimi soliqqa tortish shakllari va usullarining benihoya

nozikligi va qo‘llaniladigan soliqlarning o‘ta xilma-xilligi bilan tavsiflanadi (ayrim mamlakatlar doirasida ularning 100 ga yaqin ko‘rinishlari mavjud). Rivojlangan mamlakatlarning barchasi va rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligi uchun ushbu tizimning tamoyillari va xususiyatlari umumiydir, lekin ularning bu tamoyillar va xususiyatlarni soliq siyosatlarida qo‘llanishlarida jiddiy farqlar bor.

Rivojlangan mamlakatlarda soliq undirishning to‘rtta usuli: kadastr, o‘zi hisoblab yozish (deklaratsiya), ma‘muriy va bo‘nak (yoki soliqni "manba-niing o‘zidan" ushlab qolish) usullari qo‘llaniladi¹.

Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimini ko‘p o‘xshashlik jihatlari bor, lekin shunga qaramasdan ular farq qiladi, ularni quyidagi turlarga bo‘lishimiz mumkin²:

- Amerikacha model (AKS).
- Yaponiya modeli.
- Yevropa modeli.
- Nostandart modellar.

Quyidagilarni barcha modellarning umumiy belgilari sifatida ko‘rsatish mumkin:

- rivojlangan qonunchilik bazasi, vujudga keladigan munozara, vazifalar va vaziyatlarni hal etishning huquqiy va iqtisodiy vositalari, mexanizmlari va usullari;
- soliq idoralarining soliq to‘lovchilari oldida ishonchga va yuksak obro‘ga ega ekanligi, yuqori ish haqi, axborot bazasining yuqoriligi, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorligi;
- vazirliklar va idoralar vazifalarining aniq chegaralab qo‘yilganligi va ular ishida bir-birini takrorlashning yo‘qligi;
- hukumat vakili bo‘lgan va uning nomidan ish olib boradigan soliq agentining (inspektorning) katta ahamiyatga va obro‘ga egaligi;
- kadrlarni tahlil etish, o‘rganish, oldindan belgilash, o‘qitish, soliq to‘lovchilar bilan aloqalar bo‘yicha institutlarning mavjudligi; ayniqsa axborot bilan almashinishi sohasida moliya organlari soliq idoralarning va bank tizimi bilan chambarchas bog‘langanligi. Shu bilan birga bu modellar-ning har birida ularning tafovutlarini belgilab beradigan o‘ziga xos belgilari mavjud.

¹ J. Cordes, R. Ebel, J. Gravelle. «The encyclopedia of taxation & tax policy». – Washington, D.C. The Urban Institute Press, 2012. - 14 b.

² J. Cordes, R. Ebel, J. Gravelle. «The encyclopedia of taxation & tax policy». – Washington, D.C. The Urban Institute Press, 2012. – 110 b.

1.3. Soliqlarning funksiyalari

Soliqlarning funksiyalari ularning mohiyatini amaliyotda harakat qilayotganini ko'rsatadi. Soliqlarning quyidagi asosiy funksiyalari mavjud: fiskal, tartibga solish, rag'batlantirish, nazorat, soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyalari.

Soliqlarning asosiy funksiyasi – fiskal funksiya hisoblanib (lotincha “fiscus” so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni anglatadi), soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlarning ikkinchi muhim funksiyasi tartibga soluvchilik roli hisoblanadi, ya'ni davlat soliqlar orqali ishlab chiqarish va sotishning iqtisodiy shart-sharoitini tartibga soladi va muayyan «soliq muhiti»ni yaratadi. Ushbu funksiya orqali davlat muayyan tarmoqda ishlab chiqarish sur'atlarini rag'batlantiradi yoki jilovlab turadi, shuningdek, aholining to'lovga qobil talabini kengaytiradi yoki kamaytiradi.

Rag'batlantirish funksiyasi soliq tizimining eng muhim funksiyalaridan biri bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom-ashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ya'ni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga va investitsiya faoliyatini jonlantirishga rag'batlantiradi.

Soliqlarning nazorat funksiyasi soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan, soliqqa tortish obyekti, soliqqa tortiladigan baza, imtiyozlar singari va hokazo tegishli soliq ko'rsatkichlarining hisob-kitoblarini tekshirishdek ancha murakkab jarayondan iborat. Soliq hisobi soliq idoralariga belgilangan soliq hisobi shakllari orqali soliq to'lovchilar o'zlarining soliq majburiyatlarini qanday bajarayotganliklarini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

Soliqlarni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi ham muhim ahamiyat kasb etib, bu funksiya orqali xarajatlar hajmi va konkret solikli tushumlar davlatning qanday ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini bajarishga sarflanganligi to'g'risida axborot berib turilishi juda zarurdir. Shunday qilinsa, soliqlarning byudjetga tushishi to'liq, o'z vaqtida va oson kechadi.

Nazorat savollari

1. Soliqlar nima uchun va qachon paydo bo'lgan?
2. Soliqlarning ahamiyati nimada namoyon bo'ladi?
3. Soliqlarning qanday funksiyalari mavjud?
4. Soliqlarning funksiyalari va vazifalarini farqlab bering?

5. Soliqlarning axborot bilan ta'minlash funksiyasini tushuntirib bering?

Mavzuqa doir topshiriqlar

1.1-topshiriq. Soliq islohotning yo'nalishiga (1 ustun) to'g'ri keladigan A.Smitning soliqqa tortish tamoyilini (2 ustundan) tanlab bering.

Soliq islohotining yo'nalishi		A.Smitning soliqqa tortish tamoyilini	
t/r	Mazmuni	t/r.	nomlanishi
1.	1.1. Moliyaviy yil mobaynida soliq qoidalarining o'zgarishligi 1.2. Byudjet qabul qilish uchun o'zgarishlar.	A	Adolatli
2.	2.1. Davlat va mahalliy soliqlar turlarining o'rnatilishi 2.2. Har bir soliq turi bo'yicha aniq unsurlari	B	Aniqliq
3.	3.1. Soliq imtiyozlarini bartaraf etilishi 3.2. Qonun buzmaydigan soliq to'lovchilarga soliq yukini kamaytirish	C	qulaylik
4.	4.1. Soliq manba va soliq to'lovchilarni bir-biriga mos keladigan soliq turlarini birlashtirish 4.2. Soliq turlarini va soliq yukini qisqartirish	D.	Tejamkorlik
5.	5.1. Soliqqa tortish tamoyillarini ishlab chiqish. 5.2. Samarasi kam yo'ki ma'muriy jihatdan qimmat soliqlarni beqor qilish.		
6.	Maqsadli soliqlarni bekor qilish.		
7.	Yalpi tushumdan undiriladigan soliqlarni bekor qilish.		
8.	Soliq qonunchiligini buzganlik uchun munosabatda bo'lgan qatnashuvchilar huquq va majburiyatlarni haqiqiy ta'minlashi		
9.	Soliq qonunchiligini buzganlik uchun jazolarni yengillashtirish		
10.	Soliq hisobini yuritish tartib va qonun-qoidalarini me'yoriy chegaralash		

1.2-topshiriq. «Soliqlar bozor iqtisodiyoti sharoitida zarur!» Bu jumalani talabalar quyidagi tartibda yoritib berishlari kerak (*FSMU texnologiyasi*).

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.

M – ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi, isbotlovchi misol keltiring.

U – fikringizni umumlashtiring.

1.3-topshiriq. Guruh 5 ta kichik jamoalarga bo'linadi. Har bir jamoa soliqlarning har bir funksiyasiga to'liq tuchuncha berishi zarur:

1. Soliqlarning fiskal funksiyasi
2. Soliqlarning ijtimoiy funksiyasi
3. Soliqlarning tartibga solish funksiyasi
4. Soliqlarning nazorat funksiyasi
5. Soliqlarning jamlovchi funksiyasi

Testlar

1. Soliqning asosiy belgilarini ko'rsating.

- a) ixtiyoriy to'lov va u jamg'arma fondlarga tushadi.

- b) majburiy ixtiyoriy to'lov bo'lib, mahalliy byudjet shakllantiriladi.
- c) majburiy to'lov bo'lib, davlat byudjetining daromad qismi shakllantiriladi.
- d) barcha soliq to'lovchilardan qat'iy stavkalarda majburiy undirilib, byudjetga yo'naltiriladi.

2. Soliqlarni undirish qaysi organlar vakolatiga kiradi?

- a) Sud va prokuratura organlari.
- b) Moliya vazirligi, soliq qo'mitasi, bojxona qo'mitasi.
- c) Soliq xizmati organlari, bojxona xizmati organlari.
- d) Oliy Majlis.

3. Soliqlarning qanday funksiyalari mavjud?

- a) Fiskal, tartibga solish, nazorat, byudjetga tushish;
- b) Fiskal, tartibga solish, rag'batlantiruvchi, nazorat, axborot bilan ta'minlash;
- c) Foiz olish, tartibga solish, rag'batlantiruvchi, axborot bilan ta'minlash;
- d) Rag'batlantiruvchi, nazorat, axborot bilan ta'minlash, byudjetga tushish.

4. Qaysi vakolatli organ soliq turlarini joriy etish huquqiga ega?

- a) O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi;
- b) O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi;
- c) O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi;
- d) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

5. Soliq stavkalarini kim tasdiqlaydi?

- a) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- b) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi
- c) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
- d) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi

2-BOB.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AMALDAGI SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO‘LOVLAR

Reja:

- 2.1.O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi va uning tarkibi
- 2.2.Soliq elementlari
- 2.3.Soliq mexanizmi va soliq imtiyozlari
- 2.4.Yuridik shaxslarning soliqli va soliqsiz to‘lovlari tavsifi.
- 2.5.Jismoniy shaxslarning soliqli va soliqsiz to‘lovlariga tavsif.

Tayanch so‘z va iboralar: soliqlar va soliqqa tortish, soliq tizimi, soliqli va soliqsiz to‘lovlar, davlat byudjeti, byudjet daromadlari, yuridik shaxs, jismoniy shaxslar, to‘g‘ri soliqlar, egri soliqlar, inflyatsiya

2.1. O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi va uning tarkibi

Soliq tizimi – mamlakatda undirilishi ko‘zda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek, soliqlarni belgilash, o‘zgartish, bekor qilish, undirish, to‘lash va nazorat qilish tamoyillari, shakllari va usullari yig‘indisidir.

Soliqlar majburiy to‘lovni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildirib, bu munosabatlar soliq to‘lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o‘z mulkiga aylantiruvchi davlat o‘rtasida bo‘ladi. Soliqlarning o‘ziga xos belgilari mavjud bo‘lib, ularga: majburiylik, xazinaga tushishlik, qat‘iylik va doimiylik, aniq soliq to‘lovchi uchun ekvivalentsizlik belgilari mavjud-dir.

Soliqlar iqtisodiy kategoriya bo‘lganligidan to‘lovchilar va byudjet o‘rtasida daromadlar taqsimlanayotganda tomonlarning iqtisodiy manfaatini, albatta, e‘tiborga olish zarur. Soliq to‘lovchilar daromadini davlat istaganicha olmaydi, soliqlarni byudjetga olishning ma‘lum chegarasi mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi mazmuniga mos keladi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 2-3-moddalariga binoan soliqlar tizimi quyidagi tarkibga ega bo‘lib, unga keyingi o‘zgartirishlar ham kiritilgan.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida soliqlar va majburiy to‘lovlar tizimi tarkibi

Soliqlar	Boshqa majburiy to‘lovlar
1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;	1. Ijtimoiy jamg‘armalarga majburiy to‘lovlar:
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;	1.1.Yagona ijtimoiy to‘lov;
3. Qo‘shilgan qiymat solig‘i;	1.2.Fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari;
4. Aksiz solig‘i;	1.3.Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar;

5. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar; 6. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq; 7. Mol-mulk solig'i; 8. Yer solig'i; 9. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i; 10. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.	2. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar: 2.1. Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar; 2.2. Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar; 3. Byudjetdan tashqari umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, Akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar; 4. Davlat boji; 5. Bojxona to'lovlari; 6. Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.
Soddalashtirilgan soliq tizimi	

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida 10 ta soliq turlari va 6 ta boshqa majburiy to'lovlar keltirilgan. Soliq va majburiy to'lovlar bir-biri bilan bog'liq bo'lib, oqibat natijasida ular yuridik va jismoniy shaxslarning pul daromadlaridan olinadi. Demak, soliq va majburiy to'lovlarning jami yig'indisi summasi soliq og'irligi tushunchasini keltirib chiqaradi.

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar
2. Daromaddan olinadigan soliqlar
3. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar
4. Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Oborotdan olinadigan soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona va yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar, majburiy to'lovlar kiradi. Lekin oborot (aylanma) tushunchasi bizning qonunchiligimiz bo'yicha ilgariidek mahsulot realizatsiyasi oborotidan emas, balki mahsulotlarni yuklab yuborgan qiymat bilan o'lchanadi (QQSda). Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq ham oborotdan olinadigan soliqlarga kiradi.

Daromaddan olinadigan soliqlarga yuridik shaxslarning foydasiga, jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq, savdo tashkilotlarining yalpi daromadidan soliqlari kiradi. Bu guruh soliqlarga "Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish" solig'i ham kiradi.

Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlarga yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i kiradi.

Yer maydonlaridan olinadigan soliqlarga qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarning yagona yer solig'i va yuridik (noqishloq xo'jalik) va jismoniy shaxslarning yer soliqlari kiradi.

Iqtisodiy mohiyatiga qarab soliqlar egri (bilvosita) va to'g'ri (bevosita) soliqlarga bo'linadi. To'g'ri soliqlarni to'g'ridan-to'g'ri soliq to'lovchi-

larning o'zi to'laydi, ya'ni soliqni huquqiy to'lovchisi ham, haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs bo'ladi. To'g'ri soliq yukini boshqalarga ortish holati bu yerda bo'lmaydi. Bu soliqlarga hamma daromaddan to'lanadigan va barcha mulk soliqlari kiradi.

Egri soliqlarni huquqiy to'lovchilari mahsulot (ish, xizmatni) yuklab yuboruvchilardir (xizmat ko'rsatuvchilardir). Lekin soliq og'irligini haqiqatdan ham byudjetga to'lovchilari tovar (ish, xizmat)ni iste'mol qiluvchilardir, ya'ni haqiqiy soliq to'lovchilar bu yerda yashiringan. Bu soliqlar tovar (ish, xizmat) qiymati ustiga ustama ravishda qo'yiladi va ularning ijobiy tomoni O'zbekiston Respublikada ishlab chiqarilgan tovarlarni chetga chiqib ketishini chegaralaydi, mamlakat ichida tovarlarni ishlab chiqarish hajmini oshishiga yo'rdam beradi. Egri soliqlar tarkibiga QQS, aksiz solig'i, bojxona boji, yer qa'ridan foydalaniluvchilar soliqlari kiradi.

Jahon soliq amaliyotida to'g'ri va egri soliqlar nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi yoki iqtisodiy qiyinchiliklarni borligini tahlil qilib berish mumkin. Masalan. AQShda to'g'ri soliqlar salmog'ining byudjet daromadida 90 foizga yaqin bo'lishi bu yerda rivojlangan bozor iqtisodiyoti mavjudligidan darak beradi.

Soliqlarning umumdavlat (respublika) va mahalliy soliqlarga bo'linishi hukumat idoralarining respublika hukumati va mahalliy hukumatlarga bo'linishi asosida kelib chiqadi. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksiz solig'i, yuridik shaxslarning foydasidan, jismoniy shaxslar daromadidan olingan soliqlar respublika byudjetiga tushadi. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika byudjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy byudjetlarni boshqarib borish uchun ajratma sifatida tushishi mumkin. Bordi-yu, ajratma yetmasa subventsia yoki subsidiya beriladi. Agar kelgusi yil mahalliy byudjetlarning o'z manbalari (soliqlari) ko'payib qolsa, respublika soliqlardan ajratma berishning hojati qolmaydi. Respublika va mahalliy soliqlar yagona mohiyatiga ega bo'lib, byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlardir.

Mahalliy soliqlar hukumatlar bajaradigan vazifalariga qarab belgilanib, ularga doimiy va to'liq biriktirib beriladi. Mahalliy byudjetlarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kam bo'lganligidan bu byudjetlarning daromadlar va xarajatlarini barqarorlashtirish (balanslashtirish) ancha murakkabdir.

Mahalliy davlat organlari o'z xohishlaricha soliq va majburiy to'lovlarni kiritish huquqiga ega emas. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksida ko'rsatilgan soliqlarning o'z hududlarida qo'llash yoki qo'llanmaslik huquqi bor. Undan tashqari mahalliy soliqlar (mol-mulk va yer solig'idan tashqari) va boshqa majburiy to'lovlardan byudjetga tushgan summa atrofida soliq

to'lovchilarga imtiyozlar berish huquqiga ega. Mahalliy soliqlar va yig'imlarning byudjetga to'liq tushishini tashkil qilish ularning zimmasidagi asosiy vazifa hisoblanadi.

2.2. Soliq elementlari

Soliqlar deganda, Soliq kodeksida belgilab berilgan byudjetga aniq miqdorlarda, doimiy ravishda undirib olinadigan, qaytarib va to'lab berilmaydigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

Soliqlardan tashqari Soliq kodeksi tomonidan belgilab berilgan to'lanishi majburiy bo'lgan boshqa majburiy to'lovlar, ya'ni davlatning byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalariga ajratmalar, bojxona to'lovlari, davlat bojlari va yig'imlar ham mavjud.

Soliq turlari orasida katta farqlar borligiga qaramasdan, ular asosida ularga xos bo'lgan bir xil tuzuvchilar, ya'ni elementlar yotadi.

Asosiy soliq elementlari qatoriga quyidagilar kiritilgan:

- soliq subyektlari;
- soliqqa tortish obyekti va soliqqa tortish bazasi;
- soliq stavkasi va soliq imtiyozlari;
- soliq davri va hisobot davri;
- soliq majburiyati va soliq yuki.

Soliq subyektlari – zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Soliqqa tortish obyekti – soliq to'lovchida soliq majburiyati paydo qiladigan mulki va harakatlaridir.

Soliqqa tortish bazasi – qiymatdagi, fizik yoki boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan soliqqa tortish obyekti miqdorini bildiradi.

Soliq stavkasi – soliqqa tortish bazasining bir birligiga to'g'ri keladigan soliq miqdorini bildiradi. Soliq stavkasi soliqqa tortish bazasining bir birligiga nisbatan foizlarda, eng kam ish haqiga nisbatan yoki mutlaq summalarda belgilanadi.

Soliq imtiyozlari – soliq to'lovchilarni soliqlarni to'lashdan to'la yoki qisman ozod etishdir. Soliq imtiyozlari qatoriga chiqarish, chegirma va soliq krediti kiradi:

1. Chiqarish – soliqqa tortishning ayrim obyektlarini soliqqa tortishdan chiqarib tashlashga qaratilgan imtiyozdir.
2. Chegirmalar – soliqqa tortish bazasini qisqartirishga qaratilgan imtiyozdir.
3. Soliq krediti – soliqlarning to'lov muddatlarini kechiktirishga qaratilgan imtiyozdir.

Soliq davri – ayrim soliq turlari va majburiy to'lovlar uchun belgilangan

davr bo‘lib, bu vaqt tugagach soliqqa tortish bazasi aniqlanadi va byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hisoblab chiqiladi.

Hisobot davri – ayrim soliq turlari va majburiy to‘lovlar uchun belgilangan soliq inspeksiyasiga hisobot topshirish davridir.

Soliq majburiyati – soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to‘lovchining davlat oldidagi majburiyati bo‘lib, unga muvofiq soliq to‘lovchi soliq inspeksiyasida hisobga turishi, soliqqa tortish obyektni va soliqqa tortish bilan bog‘liq obyektlarni aniqlashi, byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarishi, hisobotlar tuzishi va belgilangan muddatlarda soliq inspeksiyasiga topshirishi lozim.

Soliq yuki – barcha soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘indisining yalpi milliy daromadga nisbatidir, bitta soliq to‘lovchi miqyosida esa, to‘langan barcha soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar yig‘indisining yalpi daromadga nisbatidir.

2.3. Soliq mexanizmi va soliq imtiyozlari

Soliq mexanizmi tushunchasi soliq turlarini, elementlari va tashkil etish usullarini, soliq qonunchiligini, soliqlarning hisoblanishi va byudjetga to‘lanishi ustidan davlat nazorati olib borilishini o‘z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, soliq mexanizmi soliq tizimini, soliqlarning tashkiliy tizimini, soliq organlarining xizmat tizimini va soliq sohasidagi barcha hujjatlarni o‘z ichiga oladi.

Soliq mexanizmi byudjet mexanizmi tarkibiga kiradi. Mexanizm atamasi iqtisodiyotga texnikadan kirib kelgan bo‘lib, iqtisodiyotda u soliqlarning barcha elementlaridan, ya’ni soliqlarning obyektlaridan, subyektlaridan, stavkalari va manbalaridan, to‘lash muddatlaridan, soliq huquqidan va soliq hujjatlaridan foydalanishni, boshqacha qilib aytganda, soliq mexanizmi soliq tizimini amaliyotga tatbiq qilishni bildiradi.

Soliq mexanizmi soliqlarning barcha elementlaridan samarali foydalanish maqsadida tanlab olingan tushunchadir. Masalan, soliq mexanizmi tarkibiga kiruvchi soliq stavkalari tez-tez o‘zgarib turishi mumkin bo‘lsa, soliq turlari ko‘p yillar davomida o‘zgarmay keladi.

Soliq mexanizmini shunday takomillashtirish kerakki, u bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan soliqlarning byudjetga to‘liq va o‘z vaqtida tushishiga, ishlab chiqarishni kengaytirishga, eksport qilinadigan mahsulotning va daromadning ko‘payishiga xizmat qilsin.

Soliq mexanizmining yo‘nalishlari soliq siyosati bilan belgilanadi va shuning uchun soliq siyosati o‘zgarsa soliqlarning keraksiz elementlari yo‘qotilib, yangi elementlari kiritiladi. Masalan, mablag‘ aylanmasidan

solliqlar yo‘qotilib, o‘rniga qo‘shilgan qiymat solig‘i kiritilgan edi.

Shunday qilib, soliq mexanizmi uzluksiz o‘zgarib, doimo takomillashib boradi.

Solliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan imtiyozlar – alohida soliq to‘lovchilarga yoki ularning alohida guruhlariga ulardan tashqarida qolgan soliq to‘lovchilarga nisbatan Soliq kodeksi yoki boshqa qonunchilik hujjatlarida ko‘zda tutilgan yengilliklar (soliqdan ozod etish yoki ularni kamroq miqdorda to‘lash) imkoniyatidir.

Mahalliy solliqlar (mol-mulk, yer, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solliqlari) bo‘yicha imtiyozlar belgilangan tartibda mahalliy davlat organlari tomonidan berilishi mumkin.

Soliq to‘lovchi imtiyozdan foydalanish huquqi paydo bo‘lgan paytdan boshlab, bu huquq amal qilish davrining oxirigacha foydalanishi mumkin.

Soliq qonunchiligiga muvofiq solliqlar va boshqa majburiy to‘lovlardan imtiyozlar shu imtiyoz natijasida bo‘shatiladigan mablag‘lar aniq maqsadlarda foydalanish sharti bilan ajratilishi mumkin. Agar shu shart bajarilmasa, ko‘rsatilgan maqsadda foydalanilmagan mablag‘lar belgilangan tartibda jarima (penya)si bilan birga byudjetga qaytariladi.

O‘zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlarining quyidagi turlari qo‘llaniladi:

- soliqqa tortish bazasini qisqartirish;
- soliq to‘lovchilarni soliqdan ozod etish: qisman; to‘liq; vaqtinchalik.

O‘zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlari qatoriga soliqqa tortilmaydigan daromadlar (pensiylar, stipendiyalar, alimentlar, donorlar daromatlari va hokazolar) ham kiradi.

2.4. Yuridik shaxslarning solikli va soliqsiz to‘lovlari tavsifi

O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjetiga to‘lanadigan soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni hal qiluvchi qismini yuridik shaxs to‘laydigan solliqlari va boshqa to‘lovlari tashkil etadi. Yuridik shaxslar Respublika (umumdavlat) byudjetiga quyidagi solliqlar va yig‘imlarni to‘laydilar:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- 3) qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- 4) aksiz solig‘i;
- 5) yer qa‘ridan foydalanuvchilar uchun solliqlar va maxsus to‘lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

Yuridik shaxslar mahalliy byudjetlarga quyidagi solliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘laydilar:

- 1) yagona soliq to‘lovi;

- 2) mol-mulk solig'i;
- 3) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 4) ayrim tovarlar turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im;
- 5) tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarni ro'yxatdan o'tkazish yig'imi;
- 6) transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- 7) yer solig'i.

Yuridik shaxslar soliq to'lovchi bo'lishi uchun yuridik shaxs maqomini olganidan tashqari, albatta biror ruxsat etilgan faoliyatdan daromad olgan bo'lishlari zarur yoki tovarlar (ish, xizmatlar) sotishdan oborotga ega bo'lishlari hamda statistika idoralarida, hokimiyatlardan ro'yxatdan o'tgan (kodga ega) bo'lishlari shart har bir yuridik shaxsga identifikatsiya raqami beriladi.

Yuridik shaxslar soliqlari pul muomalasini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega. To'g'ri soliqlar yuridik shaxslarning xarajatlarga mo'ljallangan mablag'larini qisqartirib muomalaga oz pullarni chiqarishga olib keladi.

2.5. Jismoniy shaxslarning soliqli va soliqsiz to'lovlariga tavsif

O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga binoan soliqqa tortish maqsadida soliq to'lovchilar yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarga bo'lingan. Jismoniy shaxslar yuridik shaxs maqomini olmagan shaxslardir. Bunday shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqorolari, fuqoroligi bo'lmaganlar va chet el mamlakatlar fuqorolari kiradi. Davlat byudjeti daromadlarining 75 foizidan ortig'ini yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar tashkil etadi. Demak, jismoniy shaxslar to'laydigan soliq va majburiy to'lovlar esa qarayib byudjet daromadining 25 foizini tashkil etadi.

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarning xususiyati shundan iboratki, soliq jismoniy shaxsning to'g'ridan-to'g'ri o'z daromadidan olinadi. Soliqlar va majburiy to'lovlar asosan byudjetga naqd pul to'lash yo'li bilan o'tkaziladi, ayniqsa tadbirkorlik faoliyatidan qat'iy stavkali soliq oldindan to'lab qo'yiladi. Shunday ekan, bu yerda soliq to'lovchi jismoniy shaxs bilan soliq undiruvchi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri pul munosabatlari mavjud. Jismoniy shaxslarning soliqlari tarkibi ortib bormoqda. Ularning soliqli to'lovlari ichida jismoniy shaxslarning daromadiga soliq salmog'i jihatidan birinchi o'rinni, tadbirkorlarning daromadiga soliq ikkinchi, tovar kiritilganligi uchun yagona bojxona to'lovi uchunchi o'rinni egallagan. Suv resurslaridan, tabiiy boyliklardan foydalanganlik uchun soliq, import tovarlarga Aksiz solig'ini jismoniy shaxslar – tadbirkorlar ham to'laydi.

Jismoniy shaxslar soliqlarini hisoblab chiqarish asosan ikki yo'l bilan

olib boriladi. Jismoniy shaxslarga daromadlar to'lovchi yuridik shaxslar o'zlarida mavjud bo'lgan hujjatlar asosida ularning soliqlarini hisoblaydilar. Yuridik va jismoniy shaxslar taqdim qilingan ma'lumotnoma va xabarnomalar asosida soliq xizmati idoralari tomonidan hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarga xo'jalik mehnat shartnomasi, fuqarolik-huquqiy shartnomalari bo'yicha ish haqi mukofot va boshqa qator daromadlar to'lovchi korxona, tashkilot, muassasa soliqlarini to'liq to'g'ri hisoblash va o'z vaqtida byudjetga o'tkazib berish javobgarligini o'z zimmlariga oladilar. Fuqarolarning olgan daromatlari to'g'risida soliq idoralariga hamda fuqaroga bildirish va ma'lumotnoma yozib berish vazifasini ham yuridik shaxslarga yuklatilgan.

Jismoniy shaxslar asosiy ish joyidan tashqarida qo'shimcha daromad olganda, chetdan O'zbekiston hududiga tovarlar olib kirganda, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanganda olingan daromadlar va xarajatlar qilinganda soliq deklaratsiyalarini soliq hisoblash uchun soliq idoralariga taqdim etadilar. Yuqoridagi hujjatlar va o'zlaridagi yig'ilgan ma'lumotlar, tekshiruv dalolatnomalari asosida soliq idoralari jismoniy shaxslar uchun soliq hisobini tuzib, ularga soliq summasi va to'lov muddatlari ko'rsatilgan xabarnomalarni yuboradilar. Bulardan tashqari, yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlikning ayrim turlari bilan shug'ullanuvchilar qat'iy stavkasida daromad solig'ini to'laydilar.

Yer solig'i, mol-mulk soliqlarini ham soliq idoralari qayta har yili hisoblab chiqib, jismoniy shaxslarga xabarnoma orqali yetkazadilar. Xabarnoma olgan jismoniy shaxslar ko'rsatilgan muddatda barcha soliq va majburiy to'lovlar summasini o'z vaqtida to'lashga majburlar. Shu yerda fuqarolardan olinishi lozim bo'lgan biror bir soliq to'lanmay qolsa soliq idoralari javob beradi.

Shunday holatda yer solig'i, mol-mulk solig'i uch yil to'lanmagan bo'lsa, penya hisoblanmasdan undiriladi.

Soliqlar va yig'imlar o'z vaqtida to'lanmaganda «boqimanda» deb ataladi. Uning mazmuni muddatida to'lanmagan to'lovlardir. Ana shu boqimanda summasiga har bir to'lanmagan kun uchun 0,033 foiz penya soliq summasiga qo'shimcha hisoblanib undirib olinadi. Avvalo soliq summasi, so'ng penya, so'ng jarimalar undiriladi. Boqimanda uzoq muddatga to'lanmasa fuqoroning mulki ro'yxat qilinib xalq sudiga beriladi. Chet elda esa, soliqlar to'lab borishini og'zaki va yozma ogohlantirishlari, qarzlarni komissiyada ko'rib chiqish tajribalari mavjud.

Nazorat savollari

1. Soliq tizimi tushunchasi nimani ifoda etadi?
2. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini tavsiflang.

3. Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga qarab qanday guruhlanadi?
4. Soliqlarning umumdavlat va mahalliy soliqlarga ajratishning sababi nimada va ular qanday farqlanadi?
5. Soliq elementlari.
6. Soliq mexanizmi.
7. Soliq imtiyozlari va ularning asoslanganlik darajasi.
8. Soliqni hisoblash tartibi va byudjetga to'lash tartibi.
9. Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarning farqi nimadan iborat?

Mavzuga oid topshiriqlar.

2.1-topshiriq. Quyida keltirilgan tushunchalarga ta'rif bering
(«Tushunchalar tahlili» usuli)

Tushunchalar	Ularning izohi	Qo'shimcha fikrlar
Soliq siyosati		
Soliq mexanizmi		
Soliq tizimi		
Soliq subyekti		
Soliq obyekti		
Soliq manbai		
Soliq stavkasi		
Soliq yuki		

2.2-topshiriq. Asosiy tushunchalarga izoh bering

Tushunchalar	Tushunchalar izohi	Qo'shimcha izoh
Soliq		
Majburiy to'lov		
Boj		
Soliq imtiyozi		
Soliq krediti		
Soliq huquqi		
Soliq majburiyati		
Soliq nazorati		
Soliq o'lovchining identifikatsiya raqami		
Taftish		
Penya		

Testlar

- 1. Soliq kodeksi qachon qabul qilingan va joriy etilgan?**
 - a) 1996 yil 15 fevral – 1996 yil 1 mart
 - b) 2007 yil 25 dekabr – 2008 yil 1 yanvar
 - c) 2008 yil 29 dekabr – 2009 yil 1 yanvar
 - d) 1998 yil 24 aprel – 1999 yil 1 yanvar
- 2. Yuridik shaxslar soliqlarni qanday shaklda to'laydilar?**
 - a) Naqd pul shaklida
 - b) Naqd pulsiz shaklida

- c) Ayrim hollarda har ikkalasidan ham foydalanish mumkin
- d) Natura shaklida

3. Quyidagilarning qaysi biri soliq obyekt bo'la oladi?

- a) Korxona va tashkilotlarning smeta rejasi
- b) Korxona va tashkilotlarning foydasi
- c) Kreditorlik qarzlari
- d) Korxona va tashkilotlarning xarajatlari

4. Soliq obyekt deganda:

- a) Soliq undiruvchilar tushuniladi
- b) Soliq to'lovchilar tushuniladi
- c) Foyda, mol-mulk qiymati, yer maydoni
- d) Soliq bazasiga nisbatan belgilangan me'yor

5. Soliq stavkasi, imtiyoz va to'lash tartibiga o'zgartirish kiritish qaysi boshqaruv organi vakolatiga kiradi?

- a) Soliq Qo'mitasiga va lozim bo'lgan hollarda Moliya Vazirligiga
- b) Moliya vazirligiga
- c) Vazirlar Mahkamasiga (yil oxirida)
- d) Oliy majlis

3-BOB

YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG'I VA OBODANLISHTIRISH IJTIMOIIY INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH SOLIG'I

Reja:

- 3.1. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati, ahamiyati va byudjet daromadlarida tutgan o'rni.
- 3.2 Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i elementlari.
- 3.3 Soliqni hisoblash va to'lash muddatlari.
- 3.4 Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i elementlari, hisoblash va byudjetga to'lash tartibi.

Tayanch so'z va iboralar: yuridik shaxslarning foyda solig'i, soliq stavkasi, soliq obyekti, soliq subyekti, rezident va norezidentlar, soliq imtiyozlari, soliqni to'lash muddatlari

3.1. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati, ahamiyati va byudjet daromadlarida tutgan o'rni

Yuridik shaxslarning foydasiga soliq byudjet daromadlari tarkibida katta o'rin egallaydi. Bu soliq to'g'ri soliq turi bo'lganligi uchun xo'jalik subyektlarining to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy ahvoli bilan bog'liq, unga bevosita ta'sir etadi. Shuning uchun bu soliq salmog'ini davlat yildan-yilga kamaytirish siyosatini olib bormoqda³.

Soliq kodeksiga binoan foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslargina foyda solig'i to'lovchilari bo'ladi. Ammo, jami daromad, ulardan chegirib tashlanadigan xarajatlar soliq kodeksiga kiritilgan bo'lsa ham, ularni aniqlashni Vazirlar Mahkamasiga yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'zining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli Qarori bilan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish hisoboti» to'g'risidagi Nizomni qabul qilgan. Jami daromad va soliqqa tortiladigan daromad ham shu nizom bilan belgilanadi.

Foydaga soliq to'lovchilari bo'lib, moliya yilida soliqqa tortiladigan foyda ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Moliya yili O'zbekiston Respublikasida kalendar yiliga mos tushadi. Ammo hamma yuridik shaxslar ham bu soliqni to'layvermaydi. Kichik korxonalar, savdo tashkilotlari yagona soliq to'lovchi, chakana savdo korxonalari (kichik va mikrofirmalar),

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ -2699-son Qarori. - Toshkent, 2017 yil 14 yanvar. (ilova 8).

yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jalik tovari ishlab chiqaruvchilar bu soliqni to'lamaydilar. Ular o'zlari uchun soddalashtirilgan (ixchamlashtirilgan) soliqni to'laydilar. Bulardan tashqari, tadbirkorlik faoliyatining faqat alohida turlariga qat'iy stavkada soliq to'lovchilar ham bu soliqni to'lamaydilar.

Soliqqa tortish maqsadida foydaga soliq to'lovchilarni rezidentlar va norezidentlarga ajratiladi. Yuridik shaxslar foydasiga soliq to'lovchilari bo'lishi uchun quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

- biror ruxsat etilgan faoliyatdan foyda olishi;
- o'zining mulkiga ega bo'lishi;
- mustaqil tugallangan buxgalteriya balansiga ega bo'lishi;
- bankda hisob raqamiga ega bo'lishi;
- identifikatsion raqamiga ega bo'lishi.
- hokimiyatdan ro'yxatdan o'tgan bo'lishi shart.

Umumiy tartib bo'yicha yuridik shaxslar shu shartlarga javob bersagina foydaga soliq to'lovchilar hisoblanadi.

3.2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i elementlari

Yuridik shaxslarning foydaga solig'ini to'liq, to'g'ri aniqlash (hisoblash) uchun ularning jami daromadlarini aniqlash zarur.

Yuridik shaxslarning jami daromadi tarkibiga quyidagilar kiradi (soliq kodeksi 20-bob 129-modda):

- tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar. Ularga ortilgan mahsulot qiymatini to'lash uchun hisoblash hujjatlarida ko'rsatilgan summa; buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan, bajarilgan ishlar dalolatnomalarida ko'rsatilgan summalar; ko'rsatilgan xizmatning bajarilganini tasdiqlovchi summalar kiradi.

Vositachilik faoliyatidan daromad oluvchi tashkilotlar uchun tushum hamma bitimlar bo'yicha komission taqdirlash (protsentlar) summolari hisoblanadi:

- asosiy vositalar va boshqa mol-mulki, nomoddiy aktivlar, qimmatli qog'ozlar, intellektual mulk obyektlari, materiallar va boshqa aktivlar sotishdan daromadlar kiradi. Soliqqa tortish maqsadida asosiy fondlar va boshqa mulklarni sotishdan daromadni aniqlashda shu fondlar mulklarni sotish bahosi va qoldiq summasi o'rtasidagi farq (oshishi) hisobga olinadi;
- foizlar va dividendlar turida olingan daromadlar;
- bepul olingan mulklar. Lekin bepul olish bir tizim ichiga kiruvchi korxonalar tomonidan bo'lsa daromad bo'lmaydi. Tizim deyilganda vazirliklar, kontsernlar, trestlar va bular ichidagi harakatlar tushuniladi;

- mulklarni ijaraga berishdan daromadlar. Ammo amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalar lizing shartnomasi bo'yicha ijaraga berilsa, soliqqa tortish maqsadida mulkni sotib olgan hisoblanadi;
- royalti-intelektual mulklarning huquqidan daromadlar, mualliflik haqlari, patentlari, chizmalar tovar belgilari, yangi modellardan daromadlar;
- bepul moliyaviy yordam (byudjet mablag'laridan tashqari);
- kreditorlik va deponentlik qarzlarini hisobdan chiqarishdan daromadlar, agar so'rov muddati tugagan bo'lsa. Umumiy so'rov muddati yuridik shaxslar uchun 3 yil qilib belgilangan;
- ilgari chegirma qilingan qarzlar, zararlar va umidsiz qarzlarni tushishidan olingan summalar;
- valyuta schyoti bo'yicha ijobiy kurs farqlari;
- favqulodda daromadlar;
- har xil daromadlar.

Tovar moddiy boyliklarni qayta baholashdan qo'shimcha summalar soliq tortiladigan daromadga shu tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotishi bilan qo'shib beriladi.

Korxonalar (tashkilotlar) mahsulotlarini haqiqiy tannarx bahosidan past sotgandagi zararlar soliqqa tortiladigan daromadni kamaytirmaydi.

Ichki bozordan past bahoda o'z mahsulot (ish, xizmat)larini erkin almashtiriladigan valyutada sotuvchi korxonalar uchun soliqqa tortiladigan baza eksport mahsulotini sotishning haqiqiy bahosidan kelib chiqib hisobga olinadi.

Umumiy vazifalarni hal qilish uchun ustav fondiga badallar, paylar va boshqa maqsadli qo'yilmalar yuridik shaxsning daromadiga kirmaydi va soliqqa tortilmaydi.

Korxonalarning chet el valyutasida olgan daromatlari ham umumiy daromatlarga qo'shib soliqqa tortiladi. Bunda, chet el valyutasida olingan daromad o'sha kundagi Markaziy bank belgilagan kurs bilan daromadga olinadi.

Yuqorida aytilgan daromadlar tarkibi "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom bilan aniqlanadi va quyidagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi:

- mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda (YaF).

$$YaF = SST - IT,$$

ya'ni YaF – yalpi foyda, SST – sotishdan olingan sof tushum, IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

- asosiy faoliyatdan olingan foyda (AFF).

$$AFF=YaF-DX+BD-BZ,$$

bunda AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda, DX – davr xarajatlari, BD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, B3 – asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar.

- umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar (UF).

$$UF=AFF+MD-MX,$$

Bunda: UF – umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda; MD – moliyaviy faoliyatdan daromadlar; MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari;

- soliq to‘languncha olingan foyda (STF).

$$STF=UF+FP-F3,$$

bunda STF –soliq to‘laguncha olingan foyda; FP – favqulodda vaziyatdan olingan foyda; F3 – favqulodda vaziyatdan ko‘rilgan zarar.

Yilning sof foydasi, u korxona foydasiga soliq to‘langandan so‘nggi qoladi. U o‘zida sof daromaddan ijtimoiy infratuzilma solig‘ini to‘lagandan so‘ng korxonanig o‘zida qoladi.

Jami daromaddan chegirmalarga quyidagilar kiradi va soliqqa tortiladigan daromaddan chegiriladi:

- qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bojxona bojlari summolari;
- banklarning va boshqa moliya-kredit tashkilotlarining qisqa muddatli kreditlari bo‘yicha foiz to‘lovlari summolari, to‘lov muddati o‘tgan va to‘lov muddati uzaytirilgan ssudalar bo‘yicha foizlar bundan mustasno;
- xodimlarga ish haqi to‘lash bo‘yicha xarajatlar (banklar, sug‘urta tashkilotlari, videosalonlar va boshqa omaviy tomosha tashkilotlari bundan mustasno).
- belgilangan tartibda kiritilgan renta to‘lovlari summasi;
- ijara haqi (lizing to‘lovi);
- asosiy vositalarni ta‘mirlash xarajatlari;
- chet el yuridik va jismoniy shaxslarning moddiy xarajatlari va ko‘rsatgan xizmatlari qiymati;
- majburiy sug‘urta to‘lovlari bo‘yicha o‘tkaziladigan qonun hujjatlariga muvofiq ish haqiga hisoblangan summalar;
- mahsulotlar (xizmatlar)ni sertifikatsiyalash ishlariga haq to‘lash summolari;
- me‘yorlar bo‘yicha xizmat safari, vakillik maqsadlari, reklama, kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash xarajatlari summolari;
- mahalliy hokimiyat tasdiqlagan me‘yor soliq to‘lovchi balansidagi sog‘liqni saqlash obyektlari, qariyalar va nogironlar uylari, maktabgacha

tarbiya bolalar muassasalari, bolalarning dam olish, madaniyat va sport obyektlari, xalq ta'limi muassasalari, uy-joy fondini saqlashga xarajatlar summalari, yuqoridagi maqsadlarga ulush qo'shib qilingan xarajatlar kamaytiriladi;

– qonun bo'yicha boshqa majburiy to'lovlar chegirib tashlanadi.

Yuridik shaxslarning soliqqa tortiladigan foydasini aniqlash uchun soliq kodeksining 147-moddasida keltirilgan chegirilmaydigan xarajatlar foyda summasiga qo'shib, soliq kodeksining 146-moddasida keltirilgan chegiriladigan xarajatlar foyda summasidan ayriladi.

Soliq to'lovchilar (banklar va sug'urta tashkilotlaridan tashqari) so'rov muddati tamom bo'lishi bilan umidsiz qarzlarni chegirish huquqiga ega, agar ular tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotish bilan bog'liq bo'lib, ilgari jami daromadga olingan bo'lsa.

Moliyaviy jazo choralari va hisoblangan penya summasi jami daromaddan chegirilmaydi.

Tadbirkorlik faoliyatida uch yildan ortiq foydalanilgan asosiy vositalar realizatsiya qilinganda vujudga kelgan zararlar jami daromaddan chegiriladi.

Qimmatli qog'ozlar realizatsiya qilinganda vujudga kelgan zararlar jami daromaddan chegirilmaydi.

Ish hayvonlari va ko'p yillik daraxtlardan foydalanganda vujudga kelgan zararlar faqat ana shu aktivlardan foydalanishdan olingan daromaddan chegirib tashlanadi.

Asosiy vositalarning soliq solinadigan davr mobaynida Soliq kodeksida belgilangan me'yorlar doirasida hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summalari jami daromaddan chegirib tashlanadi.

Nomoddiy aktivlarga qilingan xarajatlar jami daromaddan eskirish tarzida har oyda ularning boshlang'ich qiymati asosida hisoblangan me'yorlar bo'yicha chegiriladi.

Byudjet bilan foyda solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni yuridik shaxslar mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ayrim tarmoqlar yuridik shaxslarining birlashmalari byudjet bilan hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan markazlashtirilgan tartibda amalga oshirishlari mumkin, shu jumladan "O'zbekiston temir yo'llari" AJ.

Yuridik shaxslarning foydaga solig'i stavkalari har yili Oliy Majlis tomonidan Vazirlar Mahkamasining keyingi yilga byudjet parametrlarini ko'rib chiqqanda tasdiqlanadi.

Yuridik shaxslarga to'lanadigan dividendlar va foizlar to'lov manbaida 10 foizli stavka bilan soliqqa tortiladi.

Soliqqa tortish maqsadida dividend deb aksiyalardan va boshqa xo'jalik-

lar-subyektlarining ustav kapitalidagi qatnashish ulushidan olgan daromadlar tushuniladi.

Foizlarga esa depozit omonatlar, qarzdor majburiyatlar va boshqa qimmatli qog'ozlardan olgan daromadlar kiradi.

Manbaida soliqqa tortilgan va dividend, foiz olgan norezident jami daromadidan tegishli tartibda hujjatlar taqdim etsa chegirma olish huquqiga ega.

Davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatli qog'ozlari bo'yicha dividendlar va foizlar soliq solishdan ozod etilgan.

Yuridik shaxslarning daromadlari va ular bo'yicha tegishli chegirmalar soliqlarni hisoblab chiqarish uchun ular taalluqli bo'lgan hisobot davrida, to'lash vaqti va pulning kelib tushish sanasidan qat'i nazar, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aks ettiriladi.

Agar qilingan xarajat xarajatlarning bir necha toifasiga kiritilgan bo'lsa, u jami daromaddan faqat bir marotaba chegirilishi mumkin.

Uzoq muddatli shartnomalarga taalluqli daromad va chegirmalar moliya yili davomida ularni haqiqatda bosqichma-bosqich bajarish qismida hisobga olinadi.

Uzoq muddatli shartnomani haqiqatda bajarish moliya yili oxirigacha qilingan xarajatlarni mazkur shartnoma bo'yicha jami daromadlar bilan taqqoslash vositasida belgilanadi.

3.3. Soliqni hisoblash va to'lash muddatlari

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining hisob-kitobi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi.

Hisobot davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini joriy to'lovlarni kiritish orqali to'laydilar

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlarining summasini aniqlash uchun soliq to'lovchilar joriy hisobot davri birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliq xizmati organiga joriy hisobot davri uchun ma'lumotnoma taqdim etadi. Ma'lumotnomada taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha joriy to'lovlar har oyning 10-kunidan kechiktirmay, hisoblab chiqarilgan yil choragi bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasining uchdan bir qismi miqdorida to'lanadi.

Hisobot davrida taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foyda eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan soliq to'lovchilar joriy to'lovlarni to'lamaydi.

Taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi hisobot davri uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining haqiqiy summasidan kelib chiqib penya hisoblagan holda qayta hisoblashga haqli.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi norezidentining doimiy muassasasi yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini, shuningdek sof foydadan olinadigan soliqni joriy to'lovlarni to'lamasdan yiliga bir marta, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan keyin bir oy ichida to'laydi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisoblanganda 6400 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga olish» schyoti kreditlanadi, 9810 «Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar» schyoti debetlanadi. Soliq o'tkazilganda 6400 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga olish» schyoti debetlanadi, 5100 «Hisob-kitob schyotidagi pul mablag'larini hisobga olish» schyoti kreditlanadi. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar ortib boruvchi yakun bilan chiqarilgan foyda solig'i bo'yicha soliq hisobini, soliq ro'yxatdan o'tgan joydagi soliq inspeksiyalariga yil choraklariga oid va yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlarida topshiradilar.

Yuridik shaxs tugatilgan taqdirda soliq organi soliq to'lovchidan kamroq bo'lgan davr uchun hisobotlar, soliq hisobini taqdim etishni yozma xabarnoma topshirish yo'li bilan talab qilib olishi mumkin. Xabarnomada buning sababi va hisobotlar, soliq hisobi qachon va qaysi davr uchun taqdim etilishi lozimligi ko'rsatiladi.

Yuridik shaxsni tugatish haqida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan taqdirda tugatish komissiyasi (tugatuvchi) 5 kunlik muddatda bu haqda soliq organini yozma ravishda xabardor qiladi.

Yuridik shaxsni tugatish haqida qaror qabul qilingandan so'ng soliq to'lovchi 15 kun ichida soliq organiga hisobotlarni, soliq hisobini taqdim etishi shart.

Foyda solig'i bo'yicha hisobotlar, hisob-kitoblar qonun hujjatlarida belgilangan shakl va tartibda taqdim etiladi.

Yuridik shaxslar foyda solig'ini foyda solig'i bo'yicha hisoblarni

topshirish uchun belgilangan kundan boshlab 5 kun ichida to'laydilar.

3.4. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i elementlari, hisoblash va byudjetga to'lash tartibi

Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i to'lovchilari bo'lib tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar, shu jumladan chet el investitsiyasi bilan tuzilganlar hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar tarkibiga tadbirkorlik bilan shug'ullanmaydigan notijorat tashkilotlar, yagona soliq to'lovchilar, yagona yer solig'i to'lovchilari, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari hamda hukumat qarori bilan hamma soliqlardan ozod bo'lganlar kirmaydi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i chegirilganidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazadir. Bunda soliq solinadigan baza quyidagi summalarga kamaytiriladi:

- olinishi lozim bo'lgan (olingan) dividendlar summasiga;
- qo'shimcha foyda solig'i to'lovchilar uchun – sof qo'shimcha foyda summasiga;
- tekin olingan pul mablag'lari summasiga, agar ularni o'tkazib berish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yuz berayotgan bo'lsa;
- joriy soliq davrida foydalanilganda xarajatlar vujudga kelmaydigan byudjetdan ajratiladigan subsidiyalar summasiga;
- sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'voni (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar summasiga;
- byudjet va davlat maqsadli jamg'armalari oldidagi qarzning qonun hujjatlariga muvofiq hisobdan chiqarilgan summasiga.

Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i obyekti – hamma soliqlarni to'lab bo'lgandan so'ng korxonada qolgan sof foyda hisoblanadi.

Ushbu soliq soliqqa tortilgunga qadar foydadan chegirib tashlab aniqlanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilardir.

Quyidagilar obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi: notijorat tashkilotlar, ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan foydasi bundan mustasno.

Agar korxona moliyaviy hisobotning 170 satrida zarar ko'rgan bo'lsa, korxona bu soliqdan ozod bo'ladi.

Har oyda korxonalar joriy to'lov to'laydilar. Bu to'lov summasini aniqlash uchun avvalgi chorakdagi haqiqiy hisoblangan summadan kelib chiqib to'lanadi. Joriy to'lovlar har oyning 10 sanasidan kechiktirmay choraklik soliq summasining uchdan bir qismi miqdorida to'lab boriladi.

Soliq hisobi soliq idoralariga choraklik va yillik moliyaviy hisobotlar topshirilgan kundan kechiktirmay topshiriladi. Soliq hisobi haqiqiy axvoldan kelib chiqqan holda tuzilib, natija aniqlanadi. Bunda, agar soliq solishning alohida tartibi belgilangan yuridik shaxslar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda faoliyatning boshqa turlari bilan shug'ullansalar, ular ushbu faoliyat bo'yicha alohida hisob yuritishlari va byudjetga infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni to'lashlari lozim.

Yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yuridik shaxslar infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lovchi hisoblanadilar.

Barcha soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlar to'langanidan keyin korxonalar tasarrufida qoladigan foyda (daromad) – sof foyda (daromad) (2-son "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" shaklining 240-satri, 250-satri) infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblab chiqarish chog'ida soliq solish obyekti hisoblanadi. Byudjetga to'lanadigan soliq summasi yuqorida ko'rsatilgan hisobot shaklining 260-satrida aks ettiriladi.

Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'ining eng yuqori stavkasi soliq solish obyektlarining 8 foizi miqdorida belgilangan.

Chorak davomida barcha to'lovchilar infratuzilmani rivojlantirish solig'ining byudjetga joriy to'lovlarni amalga oshiradilar. Joriy to'lovlarni hisoblash va to'lash uchun soliq to'lovchilar avvalgi chorak uchun hisob-kitob bo'yicha haqiqatda hisoblab yozilgan infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasidan kelib chiqadilar.

Joriy to'lovlar har bir oyning 25-kunidan kechiktirmay, soliq choraklik summasining uchdan bir qismi hajmida amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

1. Yuridik shaxslarning foyda solig'i haqida tuchuncha bering.
2. Soliq to'lovchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari haqida ma'lumot bering.
3. Yuridik shaxslarning jami daromadlariga nimalar kiradi.
4. Yuridik shaxslarning foyda solig'ining xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
5. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'ining joriy etilishidan maqsad nima?
6. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i to'lovchilari

kimlar?

7. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkalari qanday belgilanadi va soliqqa tortiladigan obyekt qanday aniqlanadi?

Mavzuqa doir topshiriqlar

3.1-topshiriq. Toshkent Mintaqaviy temir yo'l uzeli (Toshkent MTU)qa qarashli yo'l masofa korxonasi hisobot davrida quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega bo'ldi:

- 1) korxona hisobot davrida 532 mln.so'mlik ta'mirlash ishlarini amalga oshirdi;
- 2) sotilgan asosiy vositalarning shartnoma bahosi 52 mln.so'm bo'lib, uning dastlabki qiymati 95 mln.so'm, eskirish qiymati 15 mln.so'm, qoldiq qiymati 17,500 ming so'm;
- 3) korxona 4 mln. so'm sug'urta tolovni oldi;
- 4) madaniy yodgorlikni ta'mirlash natijasida 10 mln.so'm daromad oldi;
- 5) bajarilgan ishlar yuzasidan buyurtmachi korxona qoniqmaganligi sababli shartnoma bekor qilindi va bajarilgan ishlar uchun olingan 14 mln.so'm qaytarib berildi;
- 6) soliqdan 12,5 mln.so'm qarzi bor edi va sud qarori bilan hisobdan chiqarildi;
- 7) korxonada 12 mln.so'mlik materiallar sarflandi;
- 8) elektr energiya xarajatlari 8 mln.so'm;
- 9) ishlatilgan suv uchun 2250 ming so'm to'landi;
- 10) asosiy ish haqi 55 mln.so'm va kasb mahorati uchun 4950 ming so'm ustama berildi;
- 11) korxona hisobida ofis binosi -12 mln.so'm, yuk avtomobili 30 mln.so'm va «Tiko» avtomobili 5 mln.so'm qoldiq qiymatga ega bo'lgan asosiy vositalar mavjud;
- 12) xayriya uchun 9 mln.so'm bolalar uyiga o'tkazib berildi.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagilarni aniqlang:

1. Korxonaning jami daromadi va jami xarajatlari.
2. Soliq solinadigan foydani kamaytiradigan holatlarini.
3. Soliqqa tortiladigan bazani.
4. Foyda solig'i summasini.
5. Qo'shilgan qiymat solig'ini.
6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini.

3.2-topshiriq. Ko'rpa tikib chiqaradigan korxona ko'rsatkichlari:

1. Ko'rpa tikish uchun 2115,0 ming so'mga gazlama, paxta va boshqa kerakli narsalar sotib olgan.
2. Ulardan 855 ta ko'rpa ishlab chiqargan.
3. Ko'rpaning tannarxi 15000 so'm, sotish narxi QQSsiz 19000 so'm.

4. Ishlab chiqarilgan ko'rpalar quyidagicha tarqatilgan: 500 tasi ichki bozorda sotilgan, 300 tasi tashqi bozorda sotilgan, 40 tasi o'z ishchilariga 14000 so'mdan berilgan, 10 tasi bolalar bog'chasiga tekinga berilgan, 5 tasi bir xodimning tug'ilgan kuniga sovg'a qilingan.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagilarni aniqlang:

1. Korxonaning jami daromadi va xarajatlari
2. Soliq solinadigan foydani kamaytiradigan holatlari
3. Soliqqa tortiladigan bazasi
4. Foyda solig'i summasi
5. Qo'shilgan qiymat solig'i summasi
6. Soliq bazasini aniqlashda tashqi bozorga sotilgan ko'rpalarning qiymati qachon hisobga olinadi va qachon hisobga olinmaydi?
7. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i

3.3-topshiriq. «Asia-sted» xususiy firmasi umumiy ovqatlanish sohasiga kiruvchi korxona hisoblanadi. Faoliyatini aholiga xizmat ko'rsatish, ya'ni restoran va bar shaklida amalga oshiradi. Qo'shimcha ravishda ulgurji savdo bilan ham shug'ullanadi.

Korxona hisobot davrida quyidagi daromad va xarajatlarga ega bo'lgan:

- 1) asosiy faoliyat uchun 15 mln.so'm xom ashyo;
- 2) ish haqi uchun 29 mln.so'm;
- 3) shtatda turmaydigan ishchilarga 5 mln.so'm ish haqi;
- 4) mahsulotni sotish uchun 8 mln.so'm;
- 5) korxona balansidagi avtomobillarning qoldiq qiymati 30 mln. so'm;
- 6) reklama xarajatlari 2 mln.so'm;
- 7) elektr energiyasi xarajatlari 10 mln.so'm;
- 8) aholiga xizmat ko'rsatishdan 50 mln.so'm daromad olindi;
- 9) «O'zbeknavo» AJ bilan tuzgan shartnomasiga asosan restoranda tomoshalar uyushtirishdan 25 mln.so'm daromad olindi;
- 10) «NEXIA» avtomobilini 25 mln.so'mga sotdi;
- 11) yosh oilali xodimiga 15 mln.so'mga uy-joy olish uchun tekinga pul berildi.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagilarni aniqlang:

1. Korxonaning jami daromadi va xarajatlari
2. Soliq solinadigan foydani kamaytiradigan holatlari
3. Soliqqa tortiladigan bazani
4. Foyda solig'i summasi
5. Qo'shilgan qiymat solig'i
6. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i

3.4-topshiriq. AJ «Asakabank» hisobot davrida quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarga ega bo'ldi.

- 1) asosiy faoliyatdan olingan daromad 45 mln.so‘m;
- 2) bank balansida bo‘lgan bino 32 mln.so‘mga sotildi;
- 3) balansda turgan 15 mln.so‘mlik avtobus maktabga bepul berib yuborildi;
- 4) binoni lizingga berish natijasida 2,5 mln.so‘m tushum tushdi;
- 5) sud qarori bilan 2 mln.so‘mlik soliq majburiyatlari hisobdan chiqarildi;
- 6) lizing beruvchi bilan lizing oluvchi o‘rtasida vositachilik xizmat ko‘rsatgichdan olgan daromadi 1.5 mln.so‘m;
- 7) ish haqi xarajatlari 1 mln.so‘m;
- 8) Ishlanmagan vaqt uchun 500 ming so‘m to‘landi;
- 9) 2 marta audit o‘tkazilib: 1-audit tekshiruvi uchun 750 ming so‘m, 2-audit tekshiruvi uchun 500 ming so‘m to‘landi;
- 10) onalar bolasini ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga 200 ming so‘m sarflandi.

Keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagilarni aniqlang:

- 1) Bankning jami daromadi va xarajatlari
- 2) Soliq solinadigan foydani kamaytiradigan holatlarni
- 3) Soliqqa tortiladigan bazani
- 4) Foyda solig‘i summasini hisoblashni
- 5) Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini.

3.5-topshiriq. Hisobot davrida korxonaning jami daromadlari 2 568, 95 mln so‘mni tashkil etdi. Shundan 20 650 000 so‘mi dividend ko‘rinishidagi daromadlardan iborat.

Hisobot davrida korxoananing jami xarajatlari 2 442,318 mln so‘m bo‘ldi.

Shu jumladan:

- yangi mahsulot turini o‘zlashtirish xarajatlari 6 234 000 so‘m;
 - amortizatsiya xarajatlari 24 653 000 so‘m (Soliq kodeksi 144-moddasi bo‘yicha 22 400 000 so‘m);
1. Soliq solinadigan jami daromadni hisoblang
 2. Chegiriladigan xarajatlarni hisoblang
 3. Soliq solinadigan bazani hisoblang
 4. Joriy yil soliq stavkasi bo‘icha foyda solig‘ini hisoblang
 5. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini hisoblang.

Testlar

- 1. O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarning oladigan dividend va foiz daromadlari qanday stavkada soliqqa tortiladi?**
 - a) 10 %
 - b) 13 %
 - c) 14 %

d) 15 %

2. O‘zbekiston Respublikasi soliqqa tortish tizimi qanday huquqiy hujjatga asoslanadi?

- a) O‘zbR Soliq kodeksi va boshqa soliq sohasiga oid qonunlarga asoslanadi.
- b) Byudjet tizimi to‘g‘risidagi qonunga asoslanadi.
- c) «O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati to‘grisida»gi qonunga asoslanadi.
- d) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanadi.

3. Soliqlar qaysi byudjet turlariga tushadi?

- a) Faqat mahalliy byudjetlarga
- b) Faqat viloyat, tuman byudjetlariga tushadi
- c) Faqat umumdavlat (respublika) byudjetiga tushadi
- d) Umumdavlat va mahalliy byudjetlarga tushadi

4. Quyidagilardan umumdavlat solig‘ini aniqlang?

- a) Kichik korxonalarining yagona solig‘i
- b) Qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining yagona yer solig‘i
- c) Yuridik shaxslarning yer solig‘i
- d) Yuridik shaxslarning foyda solig‘i

5. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i to‘lovchilari:

- a) Yuridik shaxslar
- b) Jismoniy shaxslar
- c) Yuridik va jismoniy shaxslar
- d) Faqat norezidentlar

6. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘ining soliqqa tortish obyekti nima?

- a) Mahsulot sotishdan tushgan tushum
- b) Foyda solig‘i to‘langandan keyin qolgan sof foyda
- c) Muomala xarajatlari
- d) Asosiy faoliyatning foydasi

4-BOB

SOLIQ SOLISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI

Reja:

- 4.1. Soddashtirilgan soliq tizimi haqida tushuncha va uning iqtisodiy ahamiyati.
- 4.2. Yagona soliq to'lovi elementlari.
- 4.3. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini soliqqa tortish.
- 4.4. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.

Tayanch so'z va iboralar: yagona soliq, soliq stavkasi, yalpi daromad va yalpi tushum, mikrofirma va kichik korxona, bo'nak, soliq subyekti, soliq to'lovchilar, soliq imtiyozlari

4.1. Soddashtirilgan soliq tizimi haqida tushuncha va uning iqtisodiy ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining XX bo'limiga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalari uchun soliq solishning soddashtirilgan tartibi o'rnatilgan. Soddashtirilgan soliq tizimi tarkibiga quyidagi soliqlar kiradi:

- yagona soliq to'lovi;
- yagona yer solig'i;
- qat'iy belgilangan soliq.

Qat'iy belgilangan soliq uchun quyidagi to'lovlarni to'lash tartibi saqlanib qolgan:

- 1) aksiz solig'i;
- 2) bojxona to'lovlari;
- 3) davlat boji;
- 4) maxsus tovarlarni sotish huquqini olish litsenziya yig'imi;
- 5) savdo-sotiq huquqini olish yig'imi;
- 6) yer qat'ridan foydalangani uchun soliq.

Kichik biznes korxonalari qatoriga o'tishning yagona mezonini o'rnatilgan. U ham bo'lsa ulardagi ortacha yillik ishlovchilar sonidir. 2002 yildan boshlab, filial va bo'linmalarda ishlovchilar ham ishlovchilar soniga qo'shiladigan bo'ldi.

Kichik biznes maqomini olishning quyidagi me'yorlari belgilangan:

- 1) mikrofirmalarda:
 - ishlab chiqarish sohalari uchun – 10 kishigacha;
 - harid qilish, ta'minlash sotish korxonalari, xizmat ko'rsatish va noishlab chiqarish sohalari uchun – 5 kishigacha;

2) kichik korxonalarda:

- sanoatda – 40 kishigacha;
- qurilish, qishloq xo‘jaligi va boshqa ishlab chiqarish sohalarida – 20 kishigacha;
- fan, ilmiy xizmat qilish, chakana savdo va boshqa noishlab chiqarish sohalarida – 10 kishigacha ishlovchisi bo‘lishi shart.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 30 avgustdagi Farmoniga asosan 2004 yilning 1 yanvaridan kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari toifasiga quyidagilar kirishi belgilandi:

- yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha yillik soni 20 kishidan, xizmat ko‘rsatish sohasi va boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo‘lmagan tarmoqlarda 10 kishidan, ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishidan oshmagan mikrofirmalar;

Quyidagi tarmoqlarning o‘rtacha yillik xodimlar soni:

- yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog‘ochni qayta ishlash, mebel sanoati va qurilish materiallari sanoati – 200 kishidan;
- mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalari – 50 kishidan;
- fan, ilmiy xizmat ko‘rsatish, transport, aloqa., xizmat ko‘rsatish sohasi (sug‘urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa ishlab chiqarishga aloqador bo‘lmagan sohalar – 25 kishidan.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi umumdavlat soliqlari yig‘indisi, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari joriy etadigan, quyida ko‘rsatilgan yig‘imlardan tashqari, mahalliy soliqlar va yig‘imlar o‘rniga yagona soliqning to‘lanishini nazarda tutadi:

- savdo-sotiq qilish huquqini bergani uchun yig‘im, shu jumladan tovarlarning alohida turlari bilan savdo-sotiq qilish huquqini bergani uchun litsenziya yig‘imlari;
- yuridik shaxslarni ro‘yxatdan o‘tkazgani uchun yig‘im;

Yagona soliqni to‘lovchi bo‘lgan korxonalar sotib olingan tovar qiymatida to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini ishlab chiqarish xarajatlari (muomala chiqimlari)ga hisobdan chiqaradi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qo‘llaydigan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun bojxona bojlari, qo‘shilgan qiymat solig‘i va import qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun aksiz solig‘i, davlat

bojlari, litsenziya yigʻimlari toʻlashning amaldagi tartibi saqlab qolinadi.

4.2. Yagona soliq toʻlovi elementlari

Mikrofimlar va kichik korxonalar xodimlari sonini belgilashda, shuningdek, pudrat shartnomasi va fuqarolik-huquqiy tushdagi boshqa shartnomalar boʻyicha ishlovchilar ham hisobga olinadi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qoʻllovchi va nogironlarning jamoat birlashmalari, “Nuroni” jamgʻarmasi va Oʻzbekiston Chernobilchilari uyushmasining mulki boʻlgan, ishlovchilar umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etgan mikrofimlar va kichik korxonalar yagona soliq toʻlashdan ozod etiladi.

Mazkur imtiyoz savdo, vositachilik, taʼminot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shugʻullanuvchi korxonalarga joriy etilmaydi. Bir necha faoliyat turlarini amalga oshiradigan yagona soliq toʻlovchilar faoliyatning har bir turi boʻyicha soliqqa tortish obyektining alohida hisobini yuritishi va muayyan faoliyat turining soliq solinadigan obyekti va unga muvofiq keladigan yagona soliq stavkasi asosida yagona soliqning hisob-kitobini amalga oshirishi kerak.

Aksiz toʻlanadigan mahsulot ishlab chiqarayotgan mikrofimlar va kichik korxonalar aksiz soligʻini Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan tartibda toʻlaganlari taqdirda soddalashtirilgan soliq solish tizimiga oʻtishlari mumkin. Quyidagilar yagona soliqqa tortish obyektlari (soliq solinadigan oborot) hisoblanadi:

- savdo (xarid qilish, vositachilik, ulgurji-sotish, taʼminot) korxonalari uchun - yalpi daromad;
- xarid qiluvchi, taʼminot-sotish korxonalari uchun yalpi tushum;

Bunda, qurilish, qurilish-montaj, tuzatish-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun oʻz kuchlari bilan bajarilgan ishlar hajmidan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan yalpi tushum soliq solish obyekti hisoblanadi.

Yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tovar (ish, xizmat)larni, mol-mulkni sotishdan olingan tushum summasi;
- sotilgan mol-mulk qiymati va boshqa aktivlar.

Oʻzi ishlab chiqargan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni erkin almashtiriladigan valyutaga eksport qilishdan olingan tushum summalari yalpi tushum tarkibiga kiritilmaydi.

Balansning valyuta moddalarini qayta baholash chogʻida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar oʻrtasidagi salʼdo soliq solish obyekti hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobiy kurs farqi summasidan ortiq boʻlgan taqdirda

oshib ketgan summa yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Yalpi daromad tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tovarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq;
- moliyaviy faoliyatdan daromadlar va O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq belgilanadigan boshqa daromadlar.

Yagona soliq bo'yicha hisob-kitoblar davlat soliq xizmati organlariga yil choragi va yillik hisobotlarni topshirish uchun belgilangan muddatlarda taqdim etiladi.

Kalendar yil – soliq davridir.

Yil choragi – hisobot davridir.

Yagona soliq to'lovi quyidagicha to'lanadi:

- ✓ mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan — hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay;
- ✓ mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan — har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Yagona soliq summasi mahalliy byudjetga o'tkaziladi. To'lovchilar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Yagona soliq to'lovchi korxonalar sotib olingan tovarlar va xom-ashyolar tarkibida to'langan QQS summasini shu tovarlar va xom-ashyo tarkibiga kiritadi (konsignatsion tovarlar bo'yicha davr xarajatiga olib boradi). Mahsulot yetkazuvchilarga ish va xizmat bilan birga to'langan QQS summasi shu ishlar, xizmatlar qiymatiga kiritiladi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan soliq stavkalarini va faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirganlari taqdirda, soliqning qat'iy belgilangan summasini oldindan to'lab boradilar.

Yagona soliq to'lashga o'tishni istagan korxonalar chorak boshlanishidan bir oy oldin ro'yxatdan o'tgan soliq idoralariga yozma ravishda ariza berishlari kerak.

Korxonalarni yagona soliqqa o'tkazish to'g'risida yoki asoslangan tarzda uni rad etish to'g'risidagi qaror soliq idoralari tomonidan ariza berilgan kundan e'tiboran 15 kun ichida amalga oshiriladi. Yangi tuzilgan korxonalar uchun ruxsat olish talab etilmaydi.

Mikrofirmalar va kichik korxonalarning yagona solig'i har chorakda choraklik moliyaviy hisobotlar topshirish uchun belgilangan muddatda to'lanadi. Bo'nak to'lovlar bo'lmaydi.

4.3. Yagona yer solig'i elementlari

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'i joriy etilishi bilan ular quyidagi soliq va majburiy to'lovlarni to'lashdan ozod etiladi:

1. Yuridik shaxslarning foyda solig'i
2. Qo'shilgan qiymat solig'i
3. Ayrim tovarlar uchun aksiz solig'i
4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq
5. Yer solig'i
6. Yer ostidan foydalanganlik uchun soliq
7. Mol-mulk solig'i
8. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i
9. Boshqa soliqlar va yig'imlar.

Quyidagilar yagona yer solig'ini to'lovchilar hisoblanadi (Soliq kodeksi 362- modda):

- qishloq xo'jaligi tovarlarini ishlab chiqaruvchilar;
- qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari.

Quyidagilar qishloq xo'jaligi tovarlarini ishlab chiqaruvchilar jumlasiga kiradi:

- yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud yer uchastkalaridan foydalangan holda asosiy faoliyat turi faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish bo'lgan yuridik shaxslar;
- qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar;
- qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va o'zi yetishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash ulushi realizatsiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo'jaligi mahsulotini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish va qayta ishlash umumiy hajmda, kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar.

Bunda, yuqoridagi nazarda tutilgan shartlarga javob beradigan yangidan tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan yagona yer solig'ini to'lovchilardir.

Yagona yer solig'i to'lovchilari bo'lmish qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilar uchun boj to'lov, davlat boji, litsenziya yig'imlari, byudjet-dan tashqari fondlarga ajratmalar, shuningdek alkogolli mahsulotlarga aksiz

solig'ini to'lashning amaldagi tartibi saqlab qolinadi.

Yagona yer solig'ini joriy qilishdan maqsad qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari mehnatining pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish, ularning soliq tizimini soddalashtirishdir.

Ushbu tadbirning ishga solinishi xo'jaliklarni yordamchi kasb-korlar va ishlab chiqishlarni rivojlantirishga undashi kerak, chunki bunday faoliyat natijasida olingan daromadlar soliqqa tortilmaydi.

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar o'z ixtiyoriga ko'ra byudjetga kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliqni yoki qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun belgilangan yagona yer solig'ini to'laydilar.

Qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilish, foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer maydoni yagona yer solig'iga tortish obyekti hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi yerlari maydonlari, ularning sifati va joylashgan joyi bo'yicha yer balansi, yer xaritalari, tekshiruv materiallari va boshqa yer-kadastr hujjatlari bo'yicha qabul qilinadi.

Aksiyadorlik xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari va shirkatlari uyushmalari, parandachilik xo'jaliklari, turli tizimdagi bo'rdoqichilik xo'jaliklari, ipakchilik va asalarichilik xo'jaliklari, shuningdek yuridik shaxs bo'lgan yordamchi qishloq xo'jaliklari kiradi.

Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan xo'jaliklar uchun soliqqa tortishning amaldagi tartibi saqlanib qoladi, ya'ni ular oldingidek barcha belgilangan soliqlarni, shu jumladan yer solig'ini to'lashadi.

Yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashdan tashqari boshqa faoliyat turi bilan shug'ullansalar, shu faoliyat turlari bo'yicha alohida hisobot yuritadilar va ular uchun qonunlarda belgilangan hamma soliqlarni to'laydilar.

Yagona yer solig'ini to'lash bo'yicha imtiyozlar. Quyidagilar yagona yer solig'ini to'lashdan ozod qilinadi:

- ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.
- yuridik shaxslar, yer uchastkasining qaysi qismida tomchilatib sug'orishdan foydalanilayotgan bo'lsa, o'sha qismida tomchilatib sug'orish

tizimi joriy qilingan oydan boshlab besh yil muddatga.

- qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar – yagona yer solig‘i to‘lovchilarga Soliq kodeksi 282-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan yer solig‘i bo‘yicha imtiyozlar ham tatbiq etiladi.

Yagona yer solig‘ini hisoblash soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yagona yer solig‘ini to‘lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 1 sentyabrigacha – yillik soliq summasining 30 foizi;
- hisobot yilining 1 dekabrigacha – soliqning qolgan summasi.

Yagona yer solig‘ining hisoblangan summasi korxonaning davr xarajatlari kiritiladi. Yagona yer solig‘ining hisoblangan summasi davr xarajatlari kiritiladi.

4.4. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar qat’iy belgilangan soliq to‘lovchilar hisoblanadilar.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi qat’iy belgilangan soliqni to‘lovchi jismoniy shaxslar soliq qonunchiligiga ko‘ra ijtimoiy sug‘urta badallarini, eksport-import operatsiyalarini bajarganda yagona bojxona to‘lovi, savdo qilish huquqi uchun yig‘imni, agarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda suv resurslaridan foydalanilsa, unda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni, bozorlarda faoliyatini amalga oshirishda savdo joyi uchun to‘lov (patta)ni, davlat bojlarini to‘laydilar.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qat’iy belgilangan soliq stavkalarining aniq miqdorlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari tadbirkorlik faoliyatining turi va faoliyat joyiga (viloyatlardagi shaharlar, tumanlar, shu jumladan qishloq joylarga) bog‘liq ravishda belgilaydi.

Bunda faoliyatning turlari uchun tabaqalashtirilgan yondashuvni ta’minlash maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari tomonidan mahalliy sharoitlar va boshqa mezonlarni hisobga olgan holda qat’iy belgilangan miqdorlarda daromad solig‘i stavkalari belgilanishi mumkin.

Qat’iy belgilangan soliqning bazaviy stavkalari va yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan qat’iy belgilangan soliq summasining hisob-kitobi uchun tuzatuvchi koeffitsiyentlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah-

kamasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Qat'iy belgilangan miqdorlardagi daromad solig'ini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar har oyda mustaqil ravishda faoliyat amalga oshiriladigan oyning 25-kunigacha to'laydilar.

Masalan, jismoniy shaxslar daromadidan qat'iy belgilangan soliq:

2017 yil yanvari uchun yilning 25 yanvariga qadar;

2017 yil fevrali uchun yilning 25 fevraliga qadar belgilab qo'yilgan.

Qat'iy belgilangan soliq yuridik shaxsni tashkil etmagan tadbirkor tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyda, agar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, to'lanadi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan endi shug'ullana boshlagan jismoniy shaxslar qat'iy belgilangan stavkalar bo'yicha daromad solig'ini belgilangan tartibda, ro'yxatga olish paytida mustaqil to'laydilar. Qat'iy belgilangan soliq faoliyat boshlangan kundan qat'i nazar bir oy uchun to'lanadi. Misol uchun, oyning boshida emas, balki ikkinchi yarmida boshlasa ham to'liq oy uchun to'lanadi.

Taqdim etilgan qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobida hisobga olinmagan fizik ko'rsatkichlar aniqlangan holatda bu hol soliqqa tortish obyektni yashirish sifatida qaraladi.

Tadbirkor o'z faoliyatini muayyan oyga (oylarga) turli sabablar (oilaviy ahvoli, kasallik, vaqtincha boshqa yerga ketish va hokazo) bilan to'xtatgan hollarda, u faoliyatini to'xtatishgacha davlat soliq xizmati organlariga faoliyatni vaqtincha to'xtatishi haqida ariza taqdim etishi va davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnomasini topshirishi kerak.

Hokimiyatlar tomonidan berilgan yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnomasi topshirilgandagina faoliyat vaqtincha to'xtatilgan deb hisoblanadi. Bunda, tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnomasini topshirgandan keyin qat'iy belgilangan soliqni o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan oyda to'lashdan ozod etiladi.

Davlat soliq xizmati organlariga kelib tushgan ariza va davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnoma majburiy tartibda kelib tushgan kunda kelgan xat-xabarlar daftarida ro'yxatga olinishi kerak.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan va daromadidan qat'iy belgilangan stavkalar bo'yicha soliq to'laydigan jismoniy shaxslarga jami daromadni belgilash va undan tegishli chegirmalar qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq tatbiq etilmaydi.

Jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uyushmalari, ittifoqlar va shu kabilarga birlashish, ishlarni o'z transportida bajarishga doir fuqarolik-huquqiy tuzdagi shartnomalar tuzish yo'li bilan amalga oshirilgan

taqdirda ushbu jismoniy shaxslar soliqni qat'iy belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

Jismoniy shaxs:

- faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullansa, soliqni faoliyatning har bir turi uchun alohida to'laydi;
- tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskuna va xonada, shu jumladan ishonchnoma bo'yicha transportda amalga oshirsa, ijaraga beruvchilar to'g'risida yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga axborot taqdim etishi kerak, unda ijaraga beruvchining familiyasi, ismi, otasi-ning ismi, pasport ma'lumotlari, shuningdek ijara to'lovining summasi va ijara muddati ko'rsatiladi. Mazkur axborot ijaraga olingan uskuna va xonada, shu jumladan ishonchnoma bo'yicha transportda faoliyatni amalga oshirishga qadar taqdim etiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlari, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga binoan jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqqa tortish tartibi asosida soliqqa tortiladi.

Avtotransport vositalarini shu jumladan birlashmalar, uyushmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga ijaraga topshiradigan jismoniy shaxslar qat'iy belgilangan soliqni jismoniy shaxslar uchun yo'lovchilar va yuklarni avtomobil transportida tashish bo'yicha xizmatlarni amalga oshirishdan kelib chiqib belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

Nazorat savollari

1. Soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tishning ahamiyatlari qanday?
2. Qanday korxonalar yagona soliq to'lovchilari bo'la oladi?
3. Yagona soliqni hisoblash uchun qanday ko'rsatkichlar kerak?
4. Yagona soliq qaysi muddatda byudjetga o'tkaziladi?
5. Qat'iy belgilangan soliqning to'lovchilari kimlar?
6. Qat'iy belgilangan soliqning stavkalari qaysi mezon asosida tabaqalashtiriladi?
7. Jismoniy shaxs bir nechta faoliyat turi bilan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirganda qanday tartibda soliq to'laydi?
8. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini yagona soliq to'lovini to'lovchilar tarkibiga o'tishning ahamiyati va zarurligi nimada?
9. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun yagona soliq to'lovidan tashqari yana qanday to'lovlar, yig'imlar saqlab qolingan?
10. Yagona soliq to'lovini to'lovchi savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining soliqqa tortish obyekti qanday aniqlanadi?

Mavzuqa doir topshiriqlar

4.1-topshiriq. Qurilish tashkiloti hisobot davrida bajargan va buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingan ishlarning qiymati 128,6 mln.so‘mni tashkil etdi. Bajargan ishlarning tannarxi 113,54 mln.so‘m. Bu summa o‘z ichiga buyurtmachi tomonidan ta‘minlangan (sotib olinmagan) 14,7 mln. so‘mlik materiallar qiymatini ham o‘z ichiga olgan. Hisobot davri uchun yagona soliq to‘lovi summasini hisoblang.

4.2-topshiriq. Savdo korxonasi (ulgurji, kichik korxona) ning hisobot davrida tovarlarni sotishdan tushgan tushumi 94,0 mln.so‘mni tashkil etdi. Sotilgan tovarlarning sotib olish qiymati (tashib keltirish xarajatlari bilan birga) 83,87 mln.so‘mni tashkil etdi. Hisobot davri uchun yagona soliq to‘lovi summasini hisoblang.

4.3-topshiriq. Korxonaning asosiy faoliyati mulkni operativ ijaraga berish bo‘lib, hisobot davrida ijaraga berilgan obyektlar bo‘yicha 14,321 mln.so‘m kelib tushdi. Shundan 2,75 mln.so‘mi kelgusi oylar ijara haqini tashkil etdi. Qolgan qismi shu hisobot davri uchun hisoblangan ijara haqi uchun kelib tushdi. Shartnomalar bo‘yicha hisobot davri uchun hisoblangan olinadigan ijara haqi 16,4 mln.so‘mni tashkil etdi. Hisobot davri uchun yagona soliq to‘lovi summasini hisoblang.

4.4-topshiriq. Vositachilik korxonasi ishlab chiqaruvchining mahsulotlarini sotib berish bilan shug‘ullanadi. Uning xizmat haqi sotishdan 5 foizni tashkil etadi. Hisobot davrida u ishlab chiqaruvchining 46,0 mln.so‘mlik mahsulotini sotdi. Sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqaruvchi korxonada shakllangan tannarxi 39,0 mln.so‘m. Hisobot davri uchun yagona soliq to‘lovi summasini hisoblang.

4.5-topshiriq. Joriy yil aprel oyida ochilgan xizmat ko‘rsatuvchi korxonaga hisobot davrida quyidagi tushumlar bo‘ldi:

- ko‘rsatilgan xizmatlar uchun qabul qilish topshirish dalolatnomalariga asosan hisoblandi – 23,0 mln.so‘m;
- ustav kapitaliga ulush sifatida tushgan pul mablag‘lari – 6,0 mln.so‘m;
- ustav kapitaliga ulush sifatida kiritilgan transport vositasi – 14,0 mln. so‘m;
- boshqa korxonadan olingan qaytarilmaydigan moliyaviy yordam – 5,0 mln.so‘m. Hisobot davri uchun yagona soliq to‘lovi summasini hisoblang.

Testlar

1. O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lgan yuridik shaxslar qanday manbalaridan soliq to‘laydilar?

- a) O‘zbekiston Respublikasi va undan tashqaridagi faoliyatlari manbalaridan;

- b) O'zbekiston Respublikasidagi manbalaridan;
- c) O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi faoliyatlari manbalaridan;
- d) Soliq to'lovchining xoxishiga ko'ra tanlab olinadi.

2. Kimlar yer solig'ini to'lovchilar hisoblanadi?

- a) O'z mulkida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar;
- b) Egaligida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar;
- c) Foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar;
- d) O'z mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar.

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida soliq tizimiga tegishli moddalarni ko'rsating

- a) 10, 51
- b) 51, 123
- c) 14, 111, 4
- d) 100, 120, 2

4. Korxonani soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tishi haqidagi qarori yoki dalillangan raddiya davlat soliq xizmati organi tomonidan necha kun davomida chiqariladi?

- a) Ariza bergan kundan boshlab 5 kun mobaynida;
- b) Ariza bergan kundan boshlab 10 kun mobaynida;
- c) Ariza bergan kundan boshlab 1 oy mobaynida;
- d) Ariza bergan kundan boshlab 2 oy mobaynida.

5. Soliq solinadigan obyektlar hisobini olib bormaslik yoki kassa operatsiyalarini yuritish tartibini buzish ma'muriy javobgarlik to'grisidagi kodeksining qaysi moddasida nazarda tutilgan?

- a) 175-modda;
- b) 119-modda;
- c) 164-modda;
- d) 168-modda.

5-BOB

QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I

Reja:

- 5.1. Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy ahamiyati.
- 5.2. Qo'shilgan qiymat solig'i elementlari.
- 5.3. Soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi.
- 5.4. Schyot-fakturani to'ldirish tartibi va soliqni buxgaleriya hisobida rasmiylashtirish.

Tayanch so'z va iboralar: qo'shilgan qiymat, soliq stavkasi, nolli stavka, soliq obyekti, soliq imtiyozlari, import mahsulotlari uchun qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona yuk deklaratsiyasi, schyot-faktura.

5.1. Qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy ahamiyati

Qo'shilgan qiymat solig'i tovarlar (ishlar, xizmatlar) ustiga qo'yilgani uchun egri soliqlar qatoriga kiradi. Soliq to'lovchilar – mahsulot ishlab chiqaruvchi, ish va xizmatlarni bajaruvchi korxona, tashkilot, birlashmalar huquqiy to'lovchilar hisoblanadi. Soliq idoralari soliqni o'z vaqtida va to'liq byudjetga o'tkazishni ulardan talab qiladilar. Aslida mazkur korxona, tashkilot va birlashmalar qo'shilgan qiymat solig'ini mahsulot, ish, xizmatni sotib oluvchi korxona, tashkilot va birlashmalar sotib olgan mahsulot, ish, xizmat ustiga qo'yib yuboradilar. Demak, soliqni haqiqiy to'lovchilari shu mahsulot, ish va xizmatni iste'mol qiluvchi korxonalaridir. Ularning oxirgi qiymati chakana savdo orqali aholiga yetib boradi va oxirgi iste'molchilar bo'ladi.

Amaliyotda O'zbekiston Respublikasining soliqlar haqidagi qonunlariga binoan, hisobot davri (oyi) uchun realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun hisoblab chiqarilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi bilan qiymati ishlab chiqarish va muomala xarajatlari (masalan, materiallar, xom ashyo, butlovchi buyumlar, yoqilg'ini yetkazib bergan ta'minotchilarga to'langan haq)ga qo'shiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rtasidagi farq sifatida hisoblab chiqariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bilvosita ko'p bosqichli soliq bo'lib, ishlab chiqarish va taqsimlash siklidan boshlanib, iste'molchiga sotilishgacha bo'lgan har bir bosqichidan undiriladi. Ushbu jarayonlarda qo'shilgan qiymat uning obyekti hisoblanadi, ya'ni, mahsulot ishlab chiqaruvchi, ishlarni bajaruvchi va xizmatlarni ko'rsatuvchi tomonidan yangidan mahsulot ishlab chiqarish uchun yoki ishlar va xizmatlarni amalga oshirish uchun sotib olingan xom-ashyo, materiallar yoki tovarlar va mahsulotlar ustiga

qo‘shilgan qiymatdir. Ushbu soliq tovarlar, ishlar va xizmatlar narxining barcha elementlarini cheklaydi hamda ishlab chiqaruvchining ishlab chiqarish tannarxini kamaytirishga undaydi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining asosiy ustunligi shundaki, ishlab chiqarishning har bir bo‘g‘inida to‘langan soliqning hajmini aniqlash mumkin. Bu esa, masalan, eksportga berilgan chegirmalarni aniq hisoblashga yordam beradi va eksport subsidiyalari berilgan vaqtdagi qonun buzilishlarning oldini oladi.

O‘zbekiston Respublikasida bilvosita soliqlar davlat byudjeti daromadlarining deyarli yarmini tashkil qiladi. Bundan tashqari, ushbu soliqlar narxining asosiy qismini tashkil qila turib, mamlakat ichidagi ishlab chiqarish va iste’molga hamda xalqaro savdoda yetarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda 1992 yildan beri qo‘llanilib kelinayotgan QQS (Aksiz soliqlari bilan birgalikda) oldin amal qilib kelgan bilvosita soliqlar – savdo va oborotdan olinadigan soliqlarning o‘rnini to‘liq almashtirdi. Ammo QQS o‘zining o‘rni bo‘yicha byudjetning daromad qismini shakllantirishda, respublika va korxonalar iqtisodiga ta’siri, narxlar proporsiyasini aniqlashda ulardan o‘tib ketdi.

Qo‘shimcha qiymat solig‘i qo‘llanilib boshlangan vaqtdan hozirgi kungacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston davlati byudjetining asosiy manbalaridan biri bo‘lib qoldi.

O‘tgan davrlar ichida QQS stavkasi 1992-yilda amal qilgan 30 foizdan 1997 yilga kelib 18 foizgacha tushirildi va 1998 yildan boshlab 20 foiz qilib belgilanib, ushbu stavka bugungi kungacha saqlanib qolindi.

5.2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i elementlari

Ishlab chiqarilgan va import qilinadigan tovarlarga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lovchilar, ushbu tovarlarni ishlab chiqargan va import qiladigan yuridik shaxslar, shuningdek boj to‘lamasdan o‘z ehtiyojlari uchun me’yoridan ortiqcha tovarlar olib kiradigan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini bevosita deklarant yoki istalgan manfaatdor shaxs, agar qonun hujjatlarida o‘zga hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, to‘lashi mumkin.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan obyekt, ishlab chiqarilgan (bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar) qiymati hamda O‘zbekiston Respublikasining bojxona qonunlariga binoan belgilangan bojxona rejimlariga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan tovarlar (shu jumladan, MDH mamlakatlaridan import qilinadigan tovarlar) hisoblanadi.

Tovar deganda, iste’molga mo‘ljallangan va qiymatga ega hamma narsa (ishlar, xizmatlardan tashqari) (uskunalar, mahsulotlar, xom ashyo, materi-

allar, elektr, issiqlik va energiyaning boshqa turlari, transport vositalari va tovar-moddiy boyliklar) tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun asos bo'lib bojxona qonunlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati hisoblanadi.

Tovarlar importi bo'yicha soliq solinadigan oborot hajmiga bojxona qiymati bilan bir qatorda bojxona boji summasi va aksiz solig'i summasi (Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha) kiritiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan quyidagi realizatsiya qilish oborotlari ozod etiladi:

- 1) yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlar berilganda davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan, davlat boji, patent boji, yig'im yoki boshqa to'lovlar undiriladigan xizmatlar;
- 2) maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;
- 3) bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;
- 4) dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ash-yolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o'tkazishga doir xizmatlari;
- 5) protez-ortopediya buyumlari, nogironlarga mo'ljallangan inventarlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilina-yotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek nogironlarga ko'rsatilayot-gan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlarga mo'ljallangan inventarlarni ta'mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo'yicha xizmatlar;
- 6) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonala-rining mazkur muassasalar tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsu-lotlari;
- 7) pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkrit-kalar, konvertlar;
- 8) aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to'lash bo'yicha xizmatlari;
- 9) byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovat-siya ishlari. Ushbu imtiyozni olish uchun tegishli moliya organining byudjetdan mablag'lar ajratish to'g'risidagi xulosasi asosdir;
- 10) shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari), shuningdek temir yo'l va umumiy foyda-lanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan yo'nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashish xizmatlari. Shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari jumlasiga yo'-

lovchilar tashish bo'yicha avtomobil va elektr transporti bilan shahar doirasida muayyan yo'nalishlar bo'yicha qatnov jadvaliga binoan ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi. Ushbu bandning qoidalari yuridik va jismaniy shaxslarning buyurtmalariga ko'ra shahar yo'lovchilar tashish transportida xodimlarni ishdan va (yoki) ishga tashish bo'yicha xizmatlarga, tadbirlar o'tkazish uchun tashish bo'yicha xizmatlarga, shu jumladan shahar tashqarisiga tashishga ham tatbiq etiladi;

- 11) oliy, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarida, shuningdek kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda ta'lim berishning haq evaziga o'qitishga doir qismi bo'yicha xizmatlar;
- 12) tibbiy (veterinariya) xizmatlari (kosmetologiya xizmatlari bundan mustasno), dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar, shu jumladan ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan shunday vositalar va buyumlar;
- 13) havo kemalariga xizmat ko'rsatish yuzasidan bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo bo'shlig'ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan aeronavigatsiya xizmati;
- 14) sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish, turistik-ekskursiya xizmatlari, shuningdek jismoniy tarbiya va sport muassasalarining xizmatlari.
- 15) gidrometeorologiya va aerologiya ishlari;
- 16) geologiya va topografiya ishlari;
- 17) bosma mahsulotlar, shuningdek bosma mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni realizatsiya qilish bilan bog'liq tahririy, matbaa va noshirlik ishlari (xizmatlari);
- 18) O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining, uning tarkibiga kiruvchi korxonalar va tashkilotlarning hamda O'zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatiga doir mahsulot va xizmatlar;
- 19) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) yuridik shaxslar oladigan, shuningdek grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar);
- 20) uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan ko'rsatiladigan xizmatlar jumlasiga lift xo'jaliklari, umumiy foydalanishdagi antennalarni o'rnatish hamda ularni tasarruf etish bo'yicha xo'jaliklar, yer resurslari va davlat kadastri, uy-joy fondidan foydalanish, uni saqlash va ta'mirlash boshqarmalari hamda bo'limlarining bevosita aholi tomonidan haq to'lanadigan xizmatlari, shu jumladan ushbu xizmatlarga

- xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari orqali haq to'lash kiradi;
- 21) vakolatli davlat organining ixtisoslashgan ekspertiza bo'linmalari o'tkazadigan ekologik ekspertiza xizmatlari;
 - 22) davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o'rgatish xizmatlari;
 - 23) o'zi yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsuloti;
 - 24) ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlov bo'linmalari xizmatlari;
 - 25) byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproq va geobotanika ishlari;
 - 26) davlat rezervining tovar-moddiy zaxiralari, ular yangilanayotganda;
 - 27) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnika vositalari, shuningdek mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;
 - 28) investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida topshirilayotgan mol-mulk;
 - 29) davlat mulkini ijaraga berish bo'yicha xizmatlar.
 - 30) ommaviy axborot vositalarini va kitob mahsulotlarini yetkazib berish xizmatlari;
 - 31) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra tijorat banklari tomonidan o'z mablag'lari hisobidan qurilayotgan ko'chmas mulk obyektlari.

Soliq stavkalari. Ishlab chiqarilgan va import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i 20 (yigirma) foiz va nollik stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash muddatlari. Qo'shilgan qiymat solig'i tanlangan bojxona rejimi shartlariga muvofiq, tasdiqlangan stavkalar bo'yicha hisoblab chiqariladi va to'lanadi. Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinishida qo'shilgan qiymat solig'i bojxona deklaratsiyasi qabul qilinishiga qadar yoki u bilan bir vaqtda to'lanadi. Agar bojxona deklaratsiyasi O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida belgilangan muddatda topshirilmasa, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash muddatlari bojxona deklaratsiyasini topshirish muddati tugagan kundan boshlab hisoblab chiqariladi. Qo'shilgan qiymat solig'i milliy valyutada to'lanadi.

Jismoniy shaxslar soliqni naqd pul bilan bojxona organi kassasiga belgilangan tartibda to'lashlari mumkin.

5.3. Soliqni hisoblash va byudjetga to'lash

Respublikamizda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va uni byudjetga o'tkazish mexanizmini amaliyotda qo'llanilishini ko'rib chiqishdan oldin, bozor munosabatlari rivojlangan xorijiy davlatlarda uni hisob-kitob qilish

tartibi va usullarini ko‘rib chiqishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash paytida soliqqa tortiladigan baza bo‘lib, yangidan yaratilgan qiymat, ya‘ni tovar mahsuloti bilan shu tovarni ishlab chiqarish uchun ishlatilgan xom ashyolar qiymati o‘rtasidagi farq hisoblanadi. Bunday soliqqa tortiladigan baza qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblashda har xil metodlardan foydalanishga imkon yaratadi (berilgan bir xil stavkada).

Xalqaro amaliyotga ko‘ra QQS byudjetga to‘lanadigan summasini aniqlash 3 ta har xil usul bilan aniqlanadi.

1. Hisobdan chiqarish usuli. Ushbu usulga ko‘ra korxona byudjetga to‘laydigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini sotib olingan tovarlar qiymatini sotgan tovarlar qiymatidan chiqarib tashlab, farqni aniqlaydi va bu farqqa soliq stavkasini ko‘paytirish yo‘li bilan QQS summasini aniqlaydi.
2. Hisobga olish usuli. Hisobga olish usuli yoki schyot-faktura usuli Yevropa birligiga kiruvchi barcha davlatlarda va qo‘shilgan qiymat solig‘i joriy etilgan boshqa ko‘pgina davlatlarda qo‘llanib kelinmoqda. Ushbu usulga ko‘ra korxona byudjetga to‘laydigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini sotib olingan tovarlar (xizmatlar) uchun to‘langan soliq summasini sotilgan tovarlarga (xizmatlarga) hisoblangan soliq summasidan chiqarib tashlash yo‘li bilan aniqlaydi.
3. Yig‘ish usuli. Ushbu usulga ko‘ra korxona byudjetga to‘laydigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini yangidan hosil qilingan qiymatlar komponentlari, ish haqi, ijara haqi, foizlar va sof foidalarni yig‘ib, hosil bo‘lgan summani soliq stavkasiga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlaydi.

Import qilinadigan tovarlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i quyidagi formula bo‘yicha hisoblab chiqariladi:

$$Sqqs = (Sb+Bb+As) \times S/100\%,$$

bu yerda: Sqqs – qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi;

Sb – import qilinadigan tovarning bojxona qiymati;

Bb – bojxona boji summasi;

As – aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha aksiz solig‘i summasi;

S – qo‘shilgan qiymat solig‘ining foizlardagi stavkasi.

Qo‘shimcha qiymat solig‘ini respublika byudjetiga o‘tkazish tartibi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘langan summalari hududiy bojxona organlarining depozit hisobvaraqlariga kirim qilinib, keyin ular respublika byudjetining daromadiga qayd etilishi kerak.

Bunda, shu jumladan qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha hisoblab yozilgan bo‘nak to‘lovlari summalari to‘lovchi tomonidan hududiy bojxona organlarining depozit hisobvaraqlariga kirim qilinishi kerak. Ko‘rsatilgan

summalar yuk kelishiga qarab tuzatiladi, so'ngra ular respublika byudjetining daromadiga qayd etiladi.

Bojxona organlari uch kun davomida undirilgan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini respublika byudjetining daromadiga o'tkazadilar.

Bojxona organlari qo'shilgan qiymat solig'ining to'g'ri hisoblab yozilishi va o'z hisobvaraqlaridan respublika byudjetining daromadiga o'z vaqtida o'tkazilishi uchun javobgardirlar.

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan QQS summalarini qaytarish tartibi.

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'ttiz kun ichida qaytarilishi yoki bo'lg'usi to'lovlar hisobiga qayd etilishi kerak.

To'lovchi ortiqcha to'langan yoki undirilgan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini qaytarishni talab qilib, ular to'langan yoki undirilgan paytdan boshlab bir yil davomida murojaat qilishi mumkin.

Ortiqcha to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini qaytarish bojxona organlariga quyidagi hujjatlar taqdim etilganda amalga oshiriladi:

- to'lovchining yozma arizasi, unda ortiqcha to'lash yoki undirishning sabablari ko'rsatiladi, shuningdek pul mablag'lari qaytarilishi kerak bo'lgan to'lovchining bank rekvizitlari beriladi;
- unga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i hisoblab chiqarilgan va undirilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;
- ijro etilishi to'g'risida vakolatli bank belgisi qo'yilgan, tegishli qo'shilgan qiymat solig'i summalarini to'lashga doir to'lov hujjati;
- tovarlarning chegaradan haqiqatda olib o'tilgani to'g'risida chegara bojxonasining belgisi qo'yilgan (zarur hollarda) tovarlarga ilova qilinuvchi hujjatlar.

Ortiqcha to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini qaytarish umumiy tushumlar hisobiga amalga oshiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan va tortilmaydigan ishlarni bajaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar, shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarga ega korxonalar ushbu ishlar va xizmatlarni oladigan shaxsga qonunchilikda ko'rsatilgan shaklga ko'ra bajarilgan hisobvaraqq-fakturani taqdim etishi shart. Shuningdek, yagona soliqni to'lashga o'tgan kichik korxonalar va yalpi daromad solig'ini to'laydigan ulgurji savdo korxonalari ham hisobvaraqq-fakturalarni yozib beradi.

“Hisobvaraqq-faktura” tovarlarning ortilishi, ishlarning bajarilishi va xizmatlarning ko'rsatilishi sanasidan kechiktirilmasdan ikki nusxada yoziladi hamda quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- yuklab jo'natiladigan tovarlar, bajarilgan ishlar hujjatlari raqami va sanasi; bajarilgan ishlarning nomi; bajarilgan ishlarning shartnoma bo'yi-

cha QQSsiz o'ldchov birligidagi narxi; qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi (20 yoki 0 foiz), agar bajarilgan ish, xizmatlar yuzasidan QQSdan ozod qilish mavjud bo'lsa, oddiy chiziq tortib qo'yiladi; ushbu ish va xizmatlar bo'yicha tegishli stavkalarga ko'ra hisoblangan QQS summasi, agar ish, xizmatlar yuzasidan QQSdan ozod qilish mavjud bo'lsa, oddiy chiziq tortib qo'yiladi;

- yagona soliqni to'lashga o'tgan kichik korxonalar va yalpi daromad solig'ini to'laydigan ulgurji savdo korxonalari qo'shilgan qiymat solig'ini ko'rsatishmaydi va «qo'shilgan qiymat solig'isiz» degan belgili muhr qo'yadi (yoki yozuvni yozib qo'yadi).

“Hisobvaraql-faktura” ishlarini bajaruvchi korxona (pudratchi, ijrochi) tomonidan buyurtmachi nomiga kamida ikki nusxada yoziladi, ularning bir nusxasi ishlarning bajarilishi va xizmatlar ko'rsatilishi sanasidan kechiktirilmagan ishlarni bajaruvchi tomonidan buyurtmachiga taqdim qilinadi va xaridorga qo'shilgan qiymat solig'i summasini qonunchilikda belgilangan tartibda hisobga olish (qoplash) uchun huquq beradi.

“Hisobvaraql-faktura” ning ikkinchi nusxasi ish bajaruvchida qoladi. Schyot-fakturalar hisobvaraqlarning kelib tushishi va taqdim etilishi ro'yxatdan o'tkaziladigan daftarda majburiy tartibda hisobga olinishi lozim.

Import qilinadigan ish va xizmatlar bo'yicha bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomalari va qo'shilgan qiymat solig'ining amalda to'langanligini tasdiqlovchi to'lov hujjatlari schyot-faktura hisoblanadi.

Bevosita aholiga pullik xizmat ko'rsatadigan korxonalar uchun ish va xizmatlarni sotishda kassa cheki yoki xizmatlar ko'rsatilishi, ishlar bajarilishini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar schyot-faktura hisoblanadi.

“Schyot-faktura” tijorat hisobvaraqlasi bo'lib, soliq to'lovchi sifatida ro'yxatga olingan shaxs tomonidan boshqa soliq to'lovchiga yetkazib berilgan mahsulotlar, ishlar, xizmatlar uchun to'ldiriladi.

Soliqqa tortishdagi asosiy qoida shundan iboratki, sotilgan tovarlar va xizmatlarning QQS summasi chiqarib tashlangan qismi soliq tortish obyekti hisoblanadi. Quyidagilar belgilab qo'yilgan bo'lishi shart:

- a) “Schyot-faktura”larda ko'rsatilgan iste'molchilarga berilgan chegirmalar schyot faktura summasidan chiqarib tashlanishi shart;
- b) agarda mahsulotlar pul evaziga amalga oshirilmagan bo'lsa, ya'ni bepul berilgan hollarda mahsulotlarning bozor bahosi soliqqa tortish uchun asos bo'ladi;
- c) soliqqa tortish obyekti aniqlashda mahsulotlarni ishlab chiqarish tan-narxi ham belgilanishi mumkin. Ushbu holat mahsulotlarni sotmasdan, shaxsiy iste'mol uchun ishlatilganda, yoki o'zi uchun bino va inshootlar, mashina va uskunalarni qurganda qo'llaniladi.

Nazorat savollari

1. Qo‘shilgan qiymat va qo‘shilgan qiymat solig‘ininng iqtisodiy mohiyati nimada?
2. QQSni qanday shaxslar to‘laydi va soliq obyekti nima?
3. Soliqqa tortiladigan oborot qanday aniqlanadi?
4. QQS stavkalari va ularni qo‘llash tartibi qanday?
5. Qanday yuridik shaxslar QQSdan ozod etiladi?
6. Qanday tovarlar va mahsulotlar (ishlar xizmatlar) QQSdan ozod bo‘ladi?
7. Schyot-fakturalar qanday to‘ldiriladi va unda QQS qaysi punktlarda ko‘rsatiladi?
8. Byujetga to‘lanadigan va hisobga olinadigan QQS summasini aniqlash tartibi qanday?
9. QQSni to‘lash va hisobotni taqdim etish tartibi qanday?
10. Import tovarlar, ishlar va xizmatlar bo‘yicha QQSni hisoblash va byudjetga to‘lash tartibi qanday?

Mavzuqa doir topshiriqlar

5.1-topshiriq. Korxona ishlab chiqargan mahsulotidan o‘z ishchilariga 1500 ming so‘mga sotdi, vaholangki, mahsulotning tannarxi 2000 so‘mni tashkil qiladi. QQSni hisoblang.

5.2-topshiriq. Asosiy vositalarning boshlang‘ish qiymati hisobotda QQS hisobga olinib aks ettirilishicha 12000 so‘mni, eskirish qiymati 500 ming so‘mni va sotish narxi 70 ming so‘mni tashkil etadi. QQS ni hisoblang.

5.3-topshiriq. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchi bo‘lmagan mahsulot yetkazib beruvchi «Afrodita» korxonasi tomonidan tovarlarni realizatsiya qilishda 110,0 mln.so‘mlik QQS hisobvaraq-fakturada aks ettirilgan. Bu holatda jarima qo‘llaniladimi? Jarima qo‘llanilsa: 1) jarimani mahsulot yetkazib beruvchi to‘laydimi yoki sotib oluvchi? 2) jarima summasi qancha bo‘ladi?

5.4-topshiriq. Buxorodagi «Issiqlik manbai» korxonasi tomonidan aholiga joriy yil 4-choragida jami 5,650 ming so‘mlik xizmat ko‘rsatilgan. Bu kommunal xizmatlar uchun «Issiqlik manbai» qo‘shilgan qiymat solig‘ining qaysi stavkasini qo‘llaydi va buning sababini tushuntirib bering.

5.5-topshiriq. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi «Kibo» korxonasi bolalar poyafzali ishlab chiqarish uchun 100 mln.so‘mlik xom-ashyoni chetdan olib kirdi. Import qilingan bu tovarga qancha qo‘shilgan o‘iymat solig‘i hisoblanadi?

Testlar

- 1. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri egri soliqlar guruhiga kiradi?**
 - a) Foyda solig'i
 - b) QQS
 - c) JShDS
 - d) Yer solig'i
- 2. Moliyaviy jazo choralari va hisoblangan penyalar summalari jami daromadidan chegiriladimi?**
 - a) Chegiriladi
 - b) Chegirilmaydi
 - c) Qisman chegiriladi
 - d) Faqat soliqni to'lash muddati bo'yicha hisoblangan penyalar
- 3. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliqqa tortish obyekti nima?**
 - a) Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari
 - b) Muomala xarajatlari
 - c) Ishlab chiqarish tannarxi
 - d) Soliq to'langunga qadar moliyaviy natija
- 4. Qo'shilgan qiymat solig'ining qanday stavkalari qo'llaniladi (UzR Soliq kodeksi)?**
 - a) 18 va 10
 - b) 20 va 10
 - c) 20 va 15
 - d) 20 va nollik
- 5. Tuman hokimiyatlari soliq buyicha imtiyozlar berishlari mumkinmi?**
 - a) Barcha soliq va to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berishlari mumkin.
 - b) Faqat ayrim soliq to'lovchilarga imtiyozlar berishlari mumkin.
 - c) Yuk bera olmaydilar.
 - d) 2% ga qisqartirishi mumkin
- 6. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri temir yo'l transporti korxonalari to'laydigan egri soliqlar guruhiga kiradi?**
 - a) Foyda solig'i
 - b) QQS
 - c) Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq
 - d) Yer solig'i

6-BOB

YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ

Reja:

6.1. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk solig‘ining iqtisodiy mohiyati

6.2. Mol-mulk solig‘i elementlari

Tayanch so‘z va iboralar: korxona mol-mulki, yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i, mol-mulklar qiymati, o‘rtacha qoldiq qiymat, muddatida o‘rnatilmagan uskunalar, soliq to‘lovchilar, soliq stavkasi, soliq bo‘yicha imtiyozlar.

6.1. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk solig‘ining iqtisodiy mohiyati

Korxonalarining mol-mulkiga solinadigan soliq, asosan, joylardagi mahalliy byudjetlar daromad qismini shakllantiradi. Undirilgan mol-mulk solig‘i summasi teng ulushlarda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladi. Mamlakatimizda mol-mulk soliqni joriy etishdan quyidagi maqsadlarda ko‘zda tutilgan:

- korxonalar o‘zlarining xo‘jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishni uyg‘otish;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag‘batlantirish.

Mol-mulk solig‘i moliyaviy nuqtai nazardan rag‘batlantiruvchilik va nazorat qilish, mahalliy byudjetlarni to‘ldirish nuqtai nazaridan esa, fiskal vazifalarini bajaradi.

Mol-mulk solig‘i yuqorida bayon qilinganlaridan tashqari, mavjud ishlab chiqarishni ekstensiv kengaytirishni jilovlash vazifalarini hal qilishga ham samarali ta’sir qiladi. Turli sabablarga ko‘ra, daromadlarning bir qismi har doim daromad solig‘iga tortilishdan «qochib qoladi». Ammo moddiy boylikka aylangach, mol-mulk solig‘iga tortilmasdan iloji yo‘q. Sarmoyalarni soliqqa tortish ulardan faol foydalanishni rag‘batlantiradi, ortiqcha zaxiralardan holi bo‘lishga rag‘bat bo‘lib xizmat qiladi va o‘z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorining tashkil topishini jadallashtiradi.

Hozirgi paytda mol-mulk soliqlaridan keladigan daromad yetakchi salmoqqa ega bo‘lmasa-da, bu soliqlar soliq tizimida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Shuningdek, mol-mulk solig‘i davlat byudjetiga daromadni ta’minlash bilan birga, daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi. Mulk soliqlarining asl maqsadi davlat byudjeti

manfaatlariga va korxonalar manfaatlariga xizmat qilishdan iborat.

6.2. Mol-mulk solig'i elementlari

Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortish mexanizmi bu yuridik shaxslar mol-mulkiga soliq solish bilan bog'liq bo'lgan, soliqni tashkil qilishda bevosita ishtirok etuvchi elementlar majmui hisoblanadi. Bu majmua: soliq subyekti, soliq obyekti, soliqqa tortish birligi, soliq stavkasi, soliqqa tortiladigan baza, soliq imtiyozlari, soliqni to'lash muddatlari va boshqa elementlardan iborat.

Soliq kodeksining 266 moddasiga binoan yuridik shaxslar uchun soliq solish obyekti bo'lib asosiy vositalarning (qonun hujjatlariga muvofiq mulk qilib olingan yerning qiymati bundan mustasno) o'rtacha yillik qoldiq qiymati, shuningdek belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektining qiymati hisoblanadi. Soliq solish obyekti bo'lib, shuningdek, me'yordagi muddatlarida o'rnatilmagan uskunalarining qiymati hisoblanadi.

Agar u quyidagi shartlardan biriga javob bersa, amortizatsiyalanadigan asosiy vositalarning ijarasi lizing hisoblanadi:

- a) ijara muddati asosiy vositalar xizmat muddatining sakson foizidan oshsa;
- b) ijarachi asosiy vositalarni qat'iy narxda yoki ijara tugashi bo'yicha belgilanadigan narxda sotib olish huquqiga ega bo'lsa;
- c) ijaraga olinadigan asosiy vositalarning qoldiq qiymati ijaraning tugashida ularning ijara boshlanishidagi qiymatining yigirma foizidan kamni tashkil etsa;
- d) to'lovlarning joriy summasi butun ijara davri uchun ijaraga olinadigan vositalar qiymatining to'qson foizidan oshsa.

Yuridik shaxslar mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymati hisobot yilining 1 yanvaridagi va hisobot yilidan keyingi yilning 1 yanvaridagi mol-mulk qoldiq qiymatining yarmini qo'shishdan olingan summani hamda hisobot davri qolgan barcha oylari har bir dastlabki kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati summasini 12 ga bo'lishdan olingan son sifatida aniqlanadi. Hisobot davriga soliqni hisoblab chiqarish uchun mol-mulkning o'rtacha qoldiq qiymati hisobot davri oyining birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati yarmini, hisobot davridan keyingi birinchi oyning birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymati yarmini va hisobot davri qolgan barcha oylari birinchi kunidagi mol-mulk qoldiq qiymatini qo'shishdan olingan summani 12 ga bo'lishdan olingan summa sifatida aniqlanadi.

Agar mol-mulk oyning birinchi yarmida amalga kiritilgan bo'lsa, mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatini hisoblab chiqarishda kiritish oyi to'liq oy deb qabul qilinadi, agar mol-mulk oyning ikkinchi yarmida amalga kiritilgan bo'lsa, o'rtacha yillik qoldiq qiymat amalga kiritish oyidan keyingi oyning birinchi kundan boshlab hisoblanadi.

Soliq solinadigan bazani aniqlash uchun, balans aktivida aks ettiriladigan eskirishni chegirgan holda, buxgalteriya hisobining quyidagi hisobvaraqlari bo'yicha summalar qabul qilinadi:

- asosiy vositalarni hisobga olish hisobvaraqlari;
- uzoq muddatga ijaraga olinadigan asosiy vositalarni hisobga olish hisobvaraqlari;
- tugallanmagan qurilishni (belgilangan muddatlarda qurilishi tugallanmagan obyekt qismida) hisobga olish hisobvaraqlari;
- o'rnatishga mo'ljallangan uskunani (me'yor muddatlarida o'rnatilmagan uskuna qismida) hisobga olish hisobvaraqlari.

Soliq to'lash tartibi. Yuridik shaxslar byudjetga joriy to'lovlar summagini hisobot yili mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan va soliq stavkasidan kelib chiqib mustaqil ravishda belgilaydilar.

Mol-mulkning qoldiq qiymati va imtiyoz taqdim etish muddatini ko'rsatgan holda korxona mol-mulki o'rtacha qoldiq qiymatining hisob-kitobi va soliq undirilmaydigan mol-mulk ro'yxati mol-mulk solig'ining hisob-kitobiga majburiy ilovalar hisoblanadi.

Ortiqcha to'langan soliq summolari, agar soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarz mavjud bo'lmasa, to'lovchining yozma arizasiga ko'ra bo'lg'usi to'lovlar hisobiga qayd etiladi yoki 30 kun ichida qaytariladi.

Byudjet bilan hisob-kitoblarning buxgalteriya hisobi byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga olish hisobvarag'i bo'yicha yuritiladi.

Hisoblab yozilgan soliq summasi quyidagicha aks ettiriladi:

9400 «Davriy xarajatlarini hisobga olish» hisobvarag'i debeti;

6400 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish» hisobvarag'i krediti.

Byudjetga o'tkazilgan soliq summolari quyidagicha aks ettiriladi:

6400 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish» hisobvarag'i debeti;

5100 «Pul mablag'larini hisobga olish» hisobvarag'i krediti.

Nazorat savollari

1. Kimlar yuridik shaxslarning mol-mulk solig'ini to'lovchilari hisoblanadi?
2. Mol-mulkning o'rtacha yillik (choraklik, 6 oylik, 9 oylik) qoldiq qiymati qanday tartibda hisoblanadi?
3. Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i stavkasini kim belgilaydi va bu soliqdan qanday imtiyozlar mavjud?
4. Mol-mulk solig'i hisobini taqdim etish tartibi va soliqni to'lash muddatlari qanday?

Mavzuqa doir topshiriqlar

6.1-topshiriq. Innovatsiyalar markazi (notijorat tashkilot) litsey xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha pullik o'quv kurslarini ochdi. Kurslarni o'tkazish uchun alohida xonalar ajratildi. Markaz binosining umumiy maydoni 2400 kv.m. shundan 400 kv.m. maydonda pullik o'quv kurslari uchun ajratilgan xonalar joylashgan. Markaz binosining umumiy o'rtacha yillik qoldiq qiymati 360 mln.so'm. Aniqlang:

1. Innovatsiyalar markazi uchun mulk solig'iga tortiladigan obyekt yuzaga keladimi?
2. Agar, soliqqa tortiladigan obyekt yuzaga kelsa, soliqqa tortiladigan bazani va yillik soliq summasini hisoblang.

6.2-topshiriq. Asosiy vositalarning mulk solig'i bo'yicha joriy to'lovlar hisoblab chiqarilgan o'rtacha yillik qoldiq qiymati 12 000 so'mni tashkil etgan. Mulk solig'ining yil uchun hisoblangan summasi 420 ming so'm. Yil davomida 385 ming so'm to'langan. Noyabr oyida 8 000 so'mlik uskuna lizing shartnomasi bo'yicha olindi va foydalanishga topshirildi.

Bundan tashqari noyabr oyining oxirida o'tgan yili olingan uskunaning o'rnatish muddati tugadi. Uskunaning qiymati 620 ming so'mni, uni olib kelish bilan bog'liq xarajatlar 170 ming so'mni tashkil etgan. Aniqlang:

1. Lizingga olingan va o'rnatish muddati o'tgan uskunalar bo'yicha mulk solig'ini hisoblang
2. Qolgan mulklar bo'yicha mulk solig'ini hisoblang.
3. Dekabr oyida to'lanishi kerak bo'lgan summani hisoblang.

6.3-topshiriq. Hisobot choragida mulk solig'ini hisoblash uchun mulklarning o'rtacha qoldiq qiymati – 6000 so'm. Normativ muddatda o'rnatilmagan uskunaning qiymati 1200 so'm.

Hisobot choragida o'zi ishlab chiqargan tovarni eksport qilishdan tushgan tushum – 16 000 so'm, shundan eksport bo'yicha tushum 4 000 so'm.

Aniqlang:

1. Hisobot choragi uchun mulk solig'ini hisoblang (normativ muddatda o'rnatilmagan uskunani hisobga olmang).
2. Normativ muddatda o'rnatilmagan uskuna bo'yicha mulk solig'ini hisoblang.

6.4-topshiriq. Asosiy vositalarning mulk solig'i bo'yicha joriy to'lovlar hisoblab chiqarilgan o'rtacha yillik qoldiq qiymati 12 000 so'mni tashkil etgan. Mulk solig'ining yil uchun hisoblangan summasi 420 ming so'm. Yil davomida 385 ming so'm to'langan. Dekabrda (11 sanada) yangi uskuna sotib olinib foydalanishga topshirildi. Qayta hisob-kitobdan keyin o'rtacha yillik qoldiq qiymat 12 625 so'mni tashkil etdi.

Aniqlang:

1. Qayta hisob-kitob qilingandan keyin yil uchun mulk solig'ini hisoblang
2. Qayta hisob-kitob qilingandan keyin byudjetga to'lanadigan mulk solig'ini hisoblang.

6.5-topshiriq. Korxonaning yil boshiga mol-mulki qoldiq qiymati 100 mln.so'mni tashkil qiladi. Korxona shu yilning 15 aprelida 50000 ming so'mlik asosiy vositalarni sotib oldi va 10 iyunda 12 mln. so'mlik nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqardi. Korxona 1 yarim yillik uchun qancha miqdorda mol-mulk solig'ini to'lashi kerak?

Testlar

1. **Temir yo'l transporti korxonalari markazlashgan holda qaysi soliqlarni to'laydilar?**
 - a) Mol-mulk va foyda solig'ini;
 - b) QQS va foyda solig'ini;
 - c) Yer va mol-mulk solig'ini;
 - d) QQS va mol-mulk solig'ini.
2. **Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri temir yo'l transporti korxonalari to'laydigan to'g'ri soliqlar guruhiga kiradi?**
 - a) Foyda solig'i
 - b) QQS
 - c) Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq
 - d) Yer solig'i
3. **Soliq obykti deganda:**
 - a) Soliq undiruvchilar tushuniladi.
 - b) Soliq to'lovchilar tushuniladi.
 - c) Foyda, mol-mulk qiymati, yer maydoni tushuniladi.
 - d) Soliq bazasiga nisbatan belgilangan me'yor tushuniladi.
4. **To'g'ri soliqlar bu ...**
 - a) Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliq.
 - b) Yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan soliq.
 - c) Deklaratsiya bo'yicha undiriladigan soliq.
 - d) Daromad, yer yoki mulkdan olinadigan soliqlar.
5. **Yuridik manzilgoxi o'zgarganda korxona necha kun ichida soliq idoralarini xabardor qilish kerak?**
 - a) 3 kun ichida
 - b) 1 oy ichida
 - c) 1 yil ichida
 - d) 10 kun ichida

7-BOB

JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ

Reja:

- 7.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati.
- 7.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i elementlari.
- 7.3. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'idan imtiyozlar.
- 7.4. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblash va to'lash muddatlari.

Tayanch so'z va iboralar: jismoniy shaxslar, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i, baholangan va baholanmagan uylar, soliq obyekt, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiyozlar.

7.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, bu bevosita mahaliy soliq turi bo'lib, u o'zining ushbu sifati bilan moddiy boyliklarni olish va jamg'arish jarayonida undiriladi. Bu real soliqdir, («real» atamasi (inglizcha real - mulk) ayni ushbu soliq birinchi galda fuqaro egalik qilindigan mol-mulk solinishi bilan bog'liq). Bu muntazam soliq hisoblanadi, ya'ni u yilda bir marta muntazam ravishda undiriladi. Nihoyat bu hududiy soliq bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan va unda ro'yxatga olingan ko'chmas mulk uchun to'lanadi. Mol-mulk solig'i mutanosib (proporsional) soliqdir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni huquqiy tartibga solishning asosiy manbalariga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (27-29-boblar).

7.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i elementlari

Soliq kodeksining 272-moddasiga muvofiq "Mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilaridir. Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs soliq to'lovchidir".

Soliq kodeksining 273-moddasiga muvofiq soliq solish obyekt O'zbe-

kiston Respublikasi hududida joylashgan uy joylar, kvartiralar, dalahovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar soliq solish obyektidir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir.

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish obyektini bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir obyekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, ularga mulk huquqi asosida tegishli ko'chmas mulk soliq solish obyektidir. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ O'zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan mulk qilib olingan (realizatsiya qilingan) ko'chmas mulk obyektini to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu obyektlar joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadigan soliq solish obyektlarining inventarizatsiya qiymati to'lovchilar uchun soliq solinadigan bazadir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining inventar bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir.

Yangi qurilgan yoki sotib olingan mulklar bo'yicha soliq kelgusi yil boshidan boshlab hisoblanadi.

Meros bo'yicha mol-mulkdan soliq merosxo'rlardan meros ochilgan paytdan boshlab undiriladi. Mol-mulk yo'q qilingan, butunlay vayron bo'lgan oydan e'tiboran to'xtatiladi.

Mol-mulkka mulk huquqi kalendar yil davomida bir mulkdordan boshqasiga o'tganda soliqni birinchi mulkdor o'sha yilning 1 yanvaridan bu mulkka mulk huquqini yo'qotgan oyning boshigacha to'laydi, ya'ni mulkdor esa mulk huquqini qo'lga kiritgan oydan e'tiboran to'laydi.

Kalendar yil davomida imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda mol-mulk solig'i ana shunday huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran qayta hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslar mulki qiymati qayta hisoblanmagan bo'lsa, Toshkent shahri va viloyatlar markazlarida shartli ravishda 20328 ming so'm; boshqa

shaharlar va qishloq joylarida 8833 ming so‘m qilib olinadi.

Masalan: fuqaroning uy joylari Toshkent shahrida joylashgan, joriy yil 1 yanvardan qayta hisoblangan qiymati 1200 ming so‘m. Bu fuqaro joriy yilda 18 ming so‘m mulk solig‘i to‘lashi kerak. Bordini, fuqaro mulkining qiymati qayta baholanmagan bo‘lsa, Toshkent shahrida 20328 ming so‘m qilib olinadi va byudjetga 304 ming so‘m mol-mulk solig‘i to‘laydi.

Quyidagi jismoniy shaxslarning mulkiga soliq to‘liq yoki qisman solinmaydi:

- «O‘zbekistan Qahramoni», Sobiq Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazavor bo‘lgan, uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlarning;
- urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan shaxslar, ichki ishlar va davlat xavfsizligi organlari tarkibida xizmat qilgan shaxslarning, harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda shtatdagi lavozimlarni egallagan shaxslar;
- Qahramon onalar, shuningdek o‘n nafar va undan ortiq farzandi bor ayollarning;
- Pensionerlarning (60 kv.m. gacha), shuningdek 1 va 2-guruh nogironlarining;
- Muddatli xizmat harbiy xizmatchilari va ularning oila a‘zolarining xizmatni o‘tash davrida;
- Harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishda yarador, kontuziya bo‘lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida yoki frontda orttirilgan kasallik oqibatida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va boshqa turmush qurmagan rafiqalarining (erlarining);
- O‘zbekistan Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, milliy xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilari jumlasidan bo‘lgan nogironlarning ichki ishlar organlarining xizmat vazifasini ado etayotganda yarador, kontuziya bo‘lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida nogiron bo‘lib qolgan boshliqlar va oddiy xizmatchilar jumlasidan bo‘lgan shaxslarning mulklari soliqdan ozod etiladi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan imtiyozlar mol-mulk egasining tanloviga binoan mol-mulkning faqat bir obyektiga taalluqli bo‘ladi. Masalan, ikkita uy bo‘lsa, bittasiga beriladi.

Yil mobaynida soliq to‘lovchilarda mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyoz olish huquqi paydo bo‘lgan taqdirda ularga soliq to‘lashdan imtiyoz huquqi paydo bo‘lgan oydan boshlab beriladi.

Yil mobaynida mol-mulk solig‘i bo‘yicha imtiyoz yo‘qotilgan holatda mulklarni soliqqa tortishdan imtiyoz huquqi yo‘qotilgandan keyingi oydan boshlab soliqqa tortiladi.

Imtiyozlar faqat mol-mulk imtiyoziga ega bo'lgan shaxsning mulki bo'lgandagina berilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq–soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi. Buning uchun kammunal xizmat ko'rsatish idoralarining inventarizatsiya qiymati asos qilib olinadi. Bu yerda imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha har yil 1-yanvar holatidagi qiymat olinadi. Kommunal idoralar inventarizatsiya qilmagan bo'lsa, mazkur obyektlarning qiymati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo'ygan summa atrofida soliqqa tortiladi (soliq hisoblanadi).

Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar zarur hujjatlarni soliq idoralariga taqdim etadilar.

Bir necha mulkdorning ulushbay asosidagi umumiy mulki bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i har bir mulkdorning mulkdagi ulushiga munosib ravishda to'lanadi. Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha soliq ular barpo etilgan yoki olingan yildan keyingi yilning boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulkdan soliq merosxo'rlardan meros ochilgan paytdan boshlab undiriladi.

Mol-mulk yo'q qilingan, butunlay vayron bo'lgan hollarda mol-mulk solig'i undirish ular yo'q qilgan yoki butunlay vayron bo'lgan oydan e'tiboran to'xtatiladi.

Mol-mulkka mulk huquqi kalendar yil davomida bir mulkdan boshqasiga o'tganda soliqni birinchi mulkdor o'sha yilning 1-yanvaridan bu mol - mulkka mulk huquqini yo'qotgan oyning boshigacha to'laydi yangi mulkdor esa–mulk huquqini qo'lga kiritgan oydan e'tiboran to'laydi. Kalendar yil davomida imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda soliq ana shu huquq vujudga kelgan oydan boshlab qayta hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash usuli – kadastrli usul hisoblanadi. Soliqni bunday usul bilan to'lashning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, mol-mulkka uning tashqi belgilari, mo'ljallanayotgan daromad asosida soliq solinishi bois, soliqni to'lash vaqti daromadni olish vaqti bilan hech qanday bog'liq emas va shu munosabat bilan mol-mulk solig'ini to'lash uchun qat'iy muddat belgilanadi. Jumladan, mol-mulk solig'i yilda bir marta – 15 oktabrdan kechiktirmay to'lanadi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 294-moddasi).

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solish predmeti joylashgan joydagi soliq organi tomonidan hisoblab chiqiladi. Bunda soliq organi tomonidan yozib beriladigan to'lov xabarnomasi to'lovchilarga har yili joriy yilning 1 mayidan kechiktirmay topshiriladi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 293-moddasi 4-qismi). Soliqlar bo'yicha to'lovlar

faqatgina soliq solish predmeti joylashgan joydagi mahalliy byudjetga o'tkaziladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq uning har yili 1 yanvar holatiga ko'ra ro'yxatga olish (inventarizatsiya) qiymatiga nisbatan foiz hisobida hisoblab chiqariladi. Agar imoratlar, binolar va inshootlarning ro'yxatga olish qiymati haqidagi ma'lumotlar bo'lmasa, u holda soliq ushbu mulkning davlat majburiy sug'urtasi bo'yicha summalarni hisoblash uchun belgilangan qiymatidan, shuningdek har yilning 1 yanvar holatiga ko'ra baholanishidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi.

Mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomalari to'lovchilarga soliq idoralari tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi. Soliq 15 oktyabrdan kechiktirmay to'lanadi. Soliq ortiqcha to'langan bo'lsa, kelgusi davr qarzlariga yetkaziladi yoki yozma arizasiga binoan boshqa soliq va yig'implardan qarzi bo'lmasa 30 kun ichida qaytariladi.

Nazorat savollari

1. Kimlar jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i to'lovchilari hisoblanadi?
2. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i stavkasini kim belgilaydi va bu soliqdan qanday imtiyozlar mavjud?
3. Mol-mulk solig'i hisobini taqdim etish tartibi va soliqni to'lash muddatlari qanday?

Mavzuqa doir topshiriqlar

7.1-topshiriq. Jismoniy shaxs 25000 so'mlik hamda 75000 so'mlik kvartiraga ega. Joriy yil uchun jismoniy shaxs to'lanishi lozim bo'lgan mol-mulk soliq summasini hisoblang va to'lash muddatlarini belgilang.

7.2-topshiriq. Toshkent shahrida yashaydigan Z. Sultanmuradovning Toshkent viloyatining Qibray tumanida ham uyi bor, yashab turgan va Toshkent viloyatining Qibray tumanidagi uyi uchun joriy yilda qancha miqdorda mol-mulk solig'ini to'laydi?

7.3-topshiriq. Fuqaro ega bo'lgan uyini agar avgust oyida sotsa, soliqni joriy yil uchun to'liq to'lashi kerakmi yoki faqat 8 oy uchunmi?

7.4-topshiriq. Soliq kodeksida pensionerlarning qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida imtiyoz belgilanganligi qayd etilgan. Bu to'g'risida to'liqroq ma'lumot bering?

7.5-topshiriq. Turar joyini noturar joy qilib o'zgartirganda va undan tadbirkorlik maqsadida foydalangan yoki foydalanmagan taqdirda qanday tartibda mol-mulk solig'i to'lanadi?

Testlar

1. Mahalliy soliqlarga qaysi soliq turi kiradi?

- a) Qo'shilgan qiymat solig'i
- b) Axolining daromad solig'i
- c) Foyda solig'i
- d) Mol-mulk solig'i

2. Jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan mol-mulklariga nimalar kiradi?

- a) Uy joyi, daraxtlari, uy hayvonlari, garaji, mashinasi, do'koni, chorbog' uyi
- b) Uy joyi, kvartirasi, mebeli, televizori, qoramoli, binosi va dachasi
- c) Uy joyi, kvartirasi, dala hovlisi, chorbog' uyi, garaji, bino va inshooti
- d) Uy joyi, mebeli, dachasi, uy hayvonlari, mashinasi, inshooti va televizori

3. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ini to'lash muddatlari.

- a) Teng ulushlarda 15 iyundan va 15 dekabrda kechiktirmagan holda
- b) 1 iyuldan kechiktirmagan holda
- c) 1 avgustda
- d) 15 oktyabriga qadar.

4. O'zbekiston Respublikasi rezidenti deganda:

- a) O'zbekiston Respublikasida vaqtincha yashovchi jismoniy shaxs;
- b) O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan jismoniy shaxs;
- c) O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida 183 kun (yoki undan ko'proq muddatda) bo'lgan jismoniy shaxs;
- d) O'zbekiston Respublikasi fuqarosi nazarda tutiladi.

8-BOB

YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I

Reja:

8.1. Yer solig'inining iqtisodiy mohiyati

8.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i elementlari

Tayanch so'z va iboralar: yer maydonlari, sug'oriladigan va sug'orilmaydigan yer maydonlari, yuridik shaxslarning yer solig'i, soliq obyekt, soliq to'lovchilar, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiyozlar.

8.1. Yer solig'inining iqtisodiy mohiyati

Yer solig'i bevosita real soliqlardan biri bo'lib, uni hisoblash uchun foydalaniladigan obyektlar (er, imoratlar va shu kabilar) ning bahosi va o'rtacha daromadliligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan kadastr yoki reestrda foydalanilishni taqozo etadi.

Asosiy belgilariga ko'ra tasniflanadigan obyektning tavsifnomasi kadastrning qurilishiga asos bo'ladi. Masalan, yer kadastrini tuzishda turli tumanlardagi ayni bir xildagi yer uchastkalari sifati, joylashgan joyi, foydalanilishi va boshqa belgilariga ko'ra guruhlanadi. Har bir guruh uchun maydon birligining qator yillar uchun o'rtacha daromadliligi belgilanadi. Boshqa hamma yer uchastkalari maydon birligidan soliq stavkasi belgilangan u yoki boshqa toifaga tenglashtiriladi.

Soliq to'lashning kadastrli usulining o'ziga xos xususiyati sifatida shuni ajratib ko'rsatish kerakki, soliqning to'lanishi payti daromadning olinishi payti bilan aslo bog'liq bo'lmaydi, chunki bunday usulda mol-mulk uning taxmin qilinadigan daromadliligining tashqi belgilari asosida baholanadi.

Yer solig'ini to'lovchilar bo'lib o'zining mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalari bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Soliqqa tortish maqsadlarida yuridik shaxslar deganda mulkchiligida, xo'jalik yuritishda yoki operativ tarzda boshqaruvida mol-mulkka ega bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ana shu mol-mulk bilan javob beruvchi, shuningdek mustaqil balansga va hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan hajmi turdagi korxonalar va tashkilotlar, shu jumladan ularning alohida bo'linmalari tushuniladi.

Yagona soliq to'lashga o'tgan kichik korxonalar, savdo tashkilotlari yer solig'i to'lamaydilar. Yagona yer solig'i to'lovchilari bo'lmish qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishlari uchun boj to'lovi, litsenziya yig'implari, bulardan tashqari jamg'armalarga ajratmalar, shuningdek, alkogolli mahsulotlarga aksiz solig'ini to'lashning amaldagi tartibi saqlab qolinadi.

Ushbu tartib quyidagilarga tegishli bo'lmaydi:

- o'rmonchilik, baliqchilik, ovchilik xo'jaliklariga;
- ilmiy tadqiqot tashkilotlari va ilmiy muassasalarning tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklariga;
- mustaqil yuridik shaxslar hisoblanmagan yordamchi qishloq xo'jaliklariga;
- dehqon xo'jaliklariga, ular uchun O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni bilan nazarda tutilgan soliq solish shartlari saqlanib qolinadi.

Yuridik shaxslarga ajratib berilgan yerlar uchun yer solig'i yerdan foydalanish va foydalanilmaganidan qat'i nazar soliq to'laydilar.

Soliq kodeksining 280-moddasiga asosan yuridik shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari soliq solinadigan obyekt hisoblanadi: mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari soliq solish obyektidir.

Qishloq xo'jaligi yerlarining maydoni va ularning sifati hamda joylashgan joyi bo'yicha yer balansi, tuproq xaritalari, tekshiruv materiallari boshqa yer kadastr hujjatlari bo'yicha qabul qilinadi.

Ixtisoslashgan loyihalash yoki ilmiy tadqiqotchilik institutlari tomonidan tuproq xaritalariga tuzatish kiritish va yerlar sifatini (ball-bonitetlarini) o'zgartirishga doir ishlar olib borilganida bunday ma'lumotlar tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tomonidan yer solig'ini hisoblash uchun ushbu ma'lumotlarni qo'llash muddatini ko'rsatgan holda tasdiqlanishi lozim.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha qishloq xo'jalik yerlariga yagona yer solig'ining muvaqqat bazaviy stavkalari, ma'muriy tumanlar va shaharlar bo'yicha sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari uchun yagona yer solig'ining bazaviy stavkalari, shuningdek, yagona yer solig'i muvaqqat bazaviy stavkalarining tuzatish koeffitsiyentlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Yerlardan noqishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanadigan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari quyidagicha guruhlangan:

- yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan korxona, tashkilot va muassasalardan olinadigan yer solig'i stavkalari.
- lalmikor ekinzorlar, bo'z yerlar va ko'p yillik ko'chatzorlar uchun olinadigan yer solig'i stavkalari.
- sug'orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlardan olinadigan yer solig'i stavkalari.
- o'rmon va qishloq hqjaligi ishlab chiqarishida foydalanilmaydigan boshqa yerlardan olinadigan yer solig'i stavkalari.
- shahar va posyolkalardagi yer uchastkalaridan olinadigan yer solig'i

stavkalari.

- qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun korxona, tashkilot va muassasalardan olinadigan yer solig‘i stavkalari.
- toshkent shahrida yer solig‘ini undirish maqsadida 5ta zonaga bo‘lingan bo‘lib, yuridik va jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkalari alohida-alohida qilib belgilangan.

Yerlarning har bir turi (sug‘oriladigan yerlar, lalmi yerlar, pichanzorlar, yaylovlar va boshqalar) uchun tegishli bazaviy stavkalar va tuzatish koeffitsiyentlari qo‘llaniladi. Bunday stavka va koeffitsiyentlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo‘mitasi tomonidan umumiy belgilangan tartibda to‘lovchilarga yetkaziladi.

Sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yerlari bo‘yicha bazaviy stavkalar qabul qilinadi.

Lalmi yerlar hamda pichanzorlar va yaylovlar bo‘yicha bazaviy stavkalar sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar bo‘yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Ijtimoiy imoratlar, suv havzalari, kanallar, kollektorlar va yo‘llar band qilgan yerlar, shuningdek, qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar bo‘yicha bazaviy stavkalar sifatida tegishli tuman va shaharlarning sug‘oriladigan yerlari bo‘yicha tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

Qishloq xo‘jalik yerlarining sifati yer uchastkasi mulkdori, yer egasi yoki yerdan foydalanuvchining aybi bilan yomonlashgan (boniteti pasayib ketgan) taqdirda, yer solig‘i yerning sifati yomonlashuviga qadar belgilangan stavkalar bo‘yicha undiriladi.

Shaharlar va shahar posyolkalarining ma‘muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo‘jalik ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig‘i qishloq xo‘jalik yerlariga belgilangan stavkalarning ikki baravari miqdorida undiriladi.

Berilgan yerlardan ikki yil davomida foydalanmagan jismoniy shaxslardan yer solig‘i uch baravar miqdorda undiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining qaroriga muvofiq yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik va jismoniy shaxslar yer solig‘i o‘rniga byudjetga ijara haqi to‘laydilar.

Ijara haqi taraflarning kelishuviga binoan belgilanadi, lekin bu haq qonun hujjatlarida belgilangan yer solig‘ining bir stavkasidan kam va uch stavkasidan ko‘p bo‘lmasligi, yerlardan qishloq xo‘jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan taqdirda esa, bir stavkasi miqdorida bo‘lishi lozim.

Yerni ijaraga olganlar hisobi, ijara to‘lovi hisobini taqdim qilish, ijara to‘lovini hisoblash va to‘lash yer solig‘i bo‘yicha belgilangan tartib bilan amalga oshiriladi.

8.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i elementlari

Yer solig'idan olinadigan imtiyozlar ikki turga bo'linadi:

- yer uchastkalari soliqdan ozod etiladi.
- yuridik shaxslar soliqdan ozod etiladi.

Soliq kodeksining 280-moddasiga asosan quyidagilarga soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi:

- aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari. Aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari jumlasiga quyidagilar kiradi:
- maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sug'orish tarmog'i, sohil bo'yi yerlari va boshqa shu kabi yerlar;
- aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, bog'lar, sayilgohlar, hiyobonlar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar);
- kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy chiqindilarni yig'ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar);
- zaxira yerlar.

Soliq kodeksining 282-moddasiga asosan quyidagi yuridik shaxslar yer solig'idan ozod qilinadi:

- 1) madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari–o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanadigan yer uchastkalari uchun;
- 2) nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatdagi xodimlar kiritiladi;
- 3) yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari – davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran ikki yilga;
- 4) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Soliq kodeksi 282-moddasining ikkinchi qismida Soliq solinmaydigan yer uchastkalari belgilangan (26-band).

Yuridik shaxslar belgilangan imtiyozli davrdan keyin bir yil o'tguniga qadar tugatilgan taqdirda, soliq summasi ularning butun faoliyat davri uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini hisoblash tartibi ish tajribasi to'planishiga qarab muntazam takomillashtirib borildi. Bunga soliq to'lovchilarning qonundagi u yoki bu qoidalarni tushuntirib berishni iltimos qilgan xatlari ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Soliq kodeksida yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi amalda eski tartibdagidek o'zgarmay qoldi, biroq ba'zi o'zgarishlar ham yuz berdi.

Soliq qonunchiligiga muvofiq yuridik shaxslar yer solig'ini mustaqil ravishda hisoblab chiqadilar va davlat soliq inspeksiyalariga har yilning 1 fevraliga qadar taqdim etadilar. Shunday qilib, soliq turi hisoblanishi uchun mas'uliyat yuridik shaxslar zimmasiga tushadi. Hatto, agar soliqni hisoblash uchun yer maydoni rasmiy hujjatlar bo'yicha qabul qilingan, tekshiruvda esa, ular band etgan yer uchastkasi maydoni hisob-kitobda ko'rsatilganidan ortiqcha bo'lib chiqsa, yuridik shaxslardan soliqni to'g'ri hisoblash uchun mas'uliyatni soqit qilinmaydi.

Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yerlar uchun yer solig'i quyidagicha hisoblanadi.

Agar yer sotilsa, olib qo'yilsa (kamaysa) soliqni undirish yer olib qo'yilgan oydan boshlab to'xtatiladi (kamaytiriladi). Masalan, korxonadan yer uchastkasining bir qismi tegishli davlat hokimiyati idoralari tomonidan 25 avgustdan olib qo'yildi, unda korxona soliqni 1 avgustidan to'lamaydi.

Yer solig'idan imtiyoz belgilanganda ular shu huquq paydo bo'lgan oyidan boshlab soliq to'lamaydilar. Yer solig'idan imtiyoz to'xtatilgan hollarda, shu imtiyoz to'xtatilgan so'nggi oydan boshlab yer solig'i to'lanadi.

Yer maydoni bir qancha yuridik shaxslarning mulkida bo'lgan qurilishiga tegishli bo'lsa, har bir mulkdor umumiy maydonidagi hissasiga qarab yer solig'i to'laydi.

Ko'p qavatli turar joylarning bir qismini egallagan yuridik shaxslar turar joyning umumiy maydonidan egallagan qismi uchun soliq to'laydi yoki shu yuridik shaxs foydalanayotgan ishlab chiqarish imoratining foydalanishi hissasiga qarab soliq to'laydi.

Soliqqa tortish maqsadida o'rmon, baliqchilik va ovchilik korxonalari hamda mashina-traktor parklari qishloq xo'jalik korxonalariga tenglashtiriladi.

Soliqdan olgan imtiyozlarni ma'lum maqsadlarga foydalanuvchi yuridik shaxslar ham yer solig'ining hisobini soliq idoralariga belgilangan muddatda va shaklda topshiradilar.

Yer uchastkasi yil ichida ajratilib berilsa, yer uchastkasi ajratilgan so'ngi oydan boshlab yer solig'i to'laydi. Masalan, korxonaga tegishli yer idoralarning qarori asosida 15 avgustdan berildi, ya'ni soliqni korxona 1 sentyabrdan boshlab to'laydi.

Yuridik shaxslar (qishloq xo'jalik korxonalaridan tashqari) yer solig'ini har chorakda ikkinchi oyning 15 sanasiga qadar to'lab boradilar (15 fevral, 15 may, 15 avgust, 15 noyabr).

Agar yuridik shaxs yer uchastkasini hisobot choragi uchun soliq to'lash muddatidan so'ng olsalar, unga yer solig'ini to'lash muddati bo'lib kelgusi chorakning soliq to'lash muddati hisoblanadi.

Yagona yer solig'i to'lovchilar tomonidan mustaqil ravishda yerlarning maydoni, bazaviy stavkalar va tuzatish koeffitsiyentlari asosida hisoblab chiqiladi.

Qishloq xo'jalik ahamiyatiga ega yerlardagi yer maydonlari yer tuzish xizmati o'tkazadigan yer hisobi ma'lumotlari, yerlarni ro'yxatdan o'tkazish va qishloq xo'jaligi yerlarini va ekinlari maxsus asboblardan yordamida o'lchash materiallari, shuningdek, ixtisoslashgan loyihalash va qidiruv tashkilotlari o'tkazish boshqa tekshiruv materiallari asosida tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Qishloq xo'jaligi yerlariga yagona yer solig'ining bazaviy stavkalari sifatida quyidagilar qabul qilingan:

- sug'oriladigan yerlar bo'yicha –1 tasnifi yerlar (ball-bonitet –10 gacha);
- lalmi yerlar bo'yicha –tekis zona yerlari;
- pichanzorlar va yaylovlar bo'yicha – "Cho'l" mintaqasidagi yerlar.

Yerlar joylashishining tafovutlari va sifati, (ball-boniteti) ga qarab bazaviy stavkalar tegishli tuzatish koeffitsiyentlariga o'zgartiriladi.

Yerlarning har bir turi bo'yicha yagona yer solig'i summasi quyidagi formulaga ko'ra belgilanadi:

$$Syas = Seu \times Sb \times Kt$$

bunda: Syas – yagona yer solig'ining summasi, so'mlarda;

Seu – yer uchastkasining maydoni, ga;

Sb – 1 gektar uchun soliqning bazaviy stavkasi, so'mlarda;

Kt – tuzatish koeffitsiyenti.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar bo'yicha qishloq xo'jalik yerlariga yagona yer solig'ining muvaqqat bazaviy stavkalari, ma'muriy tumanlar va shaharlar bo'yicha sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari uchun yagona yer solig'ining bazaviy stavkalari, shuningdek, yagona yer solig'i muvaqqat bazaviy stavkalarning tuzatish koeffitsiyentlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Yer solig'ini hisoblash haqiqiy egallangan yer maydoniga qarab amalga oshiriladi. Umumiy maydondagi yer uchastkalari ma'lumotlari shahar va tu-

man ijroiya hokimiyatlari tomonidan doimiy egalik yoki foydalanish huquqi borligi davlat hujjati bilan tasdiqlanishi kerak. Yerdan foydalanishga davlat hujjatlari berilgunga qadar vakolatli hokimiyat idoralarining qarorlari, yer balanisi ma'lumoti, qurilishning bosh rejasi yoki boshqa hujjatlar (tekshiruv dalolatnomasi, yer inventarizatsiyasi, yer rejasini olish va boshq.) yer tuzilishi xizmati yoki arxitektura idoralari xizmati bilan kelishilgan bo'lsa xizmat qiladi.

Soliq to'lovlari yer maydoni qaysi tumanda joylashgan bo'lsa, shu tuman mahaliy byudjetiga o'tkaziladi.

Yer solig'ini va yagona yer solig'ini to'lovchilar soliqning to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Davlat soliq xizmati organlari O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq nazoratni amalga oshiradilar.

Nazorat savollari

1. Yer solig'ining iqtisodiy mohiyatini izohlab bering?
2. Yer solig'ini qanday yuridik shaxslar to'laydilar?
3. Yer solig'i obyektiga qanday yer maydonlari kiradi?
4. Yer solig'i stavkalari kim tomonidan belgilanadi va yer solig'idan yuridik shaxslar qanday imtiyozlarga ega?
5. Yer solig'ini yuridik shaxslar qanday muddatlarda to'laydilar?

Mavzuqa doir topshiriqlar

8.1-topshiriq. Umumiy maydoni 2200 kv.m. bo'lgan binoga 2 kishi egalik qiladi (Toshkent shahri 2-zona). Birinchisi egalik qiladigan qismning maydoni 1800 kv.m. ikkinchi kishi egalik qiladigan qismining maydoni 400 kv.m. Yer solig'ini hisoblang va bino egalari o'rtasida taqsimlang.

8.2-topshiriq. Yer ajratish bo'yicha kadastr hujjatlariga ko'ra korxonaga materiallarni saqlash omborlari qurilishi uchun Toshkent viloyatining aholi yashamaydigan lalmi yerlaridan (adir) 2,3 yer maydoni ajratilgan. Korxona soliq organi tomonidan tekshirilganda qurilgan omborlar joylashgan yerning umumiy yer maydoni tashkil etishi ma'lum bo'ldi. Soliq organi tomonidan qanday chora qo'llaniladi.

8.3-topshiriq. Toshkent shahrining 3 zonasida joylashgan MTU ishlab chiqarish korxonasiga shahar hokimi qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni 4,5 ga ni tashkil etadi. Korxonaning hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang va to'lash muddatlarini belgilang.

8.4-topshiriq. Zarafshon shahrining 3 zonasida joylashgan korxonaga shahar hokimi qarori bo'yicha ajratilgan yer maydoni 275 gektar haqiqiy

foydalanishdagi yer maydoni esa 35 gektar ekanligi aniqlandi. Korxonani hisobot yilida to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblaymiz.

8.5-topshiriq. Zarafshon shahrining 4 zonasida yashovchi 2-guruh nogironi 0,2 gektar yer uchastkasiga ega. Hokimning qaroriga asosan yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun 0,6 gektar yer uchastkasi ajratilishi belgilangan. Fuqaroning to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang.

Testlar

- 1. Temir yo'l transporti korxonalari soliqqa tortish asoslari va xususiyatlari qaysi me'yoriy hujjatda keltirilgan?**
 - a) Soliq kodeksida
 - b) Temir yo'l transporti to'g'risidagi qonunda
 - c) "O'TY" AJ hisob siyosatida
 - d) Korxona ustavida
- 2. Yer solig'i stavkalari qanday mezon va xususiyatga ko'ra belgilanadi?**
 - a) Yer maydoniga
 - b) Yerda nechta shaxs yashashiga
 - c) Yerdan foydalanish darajasiga
 - d) Yer maydoni joylashgan zonaga
- 3. Temir yo'l transporti korxonalari mahalliy byudjetga qaysi soliqlarni to'laydilar?**
 - a) Mol-mulk va foyda solig'ini
 - b) QQS va foyda solig'ini
 - c) Yer va mol-mulk solig'ini
 - d) QQS va mol-mulk solig'ini
- 4. Yer solig'i stavkalari kim tomonidan belgilanadi?**
 - a) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
 - b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
 - c) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
 - d) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan
- 5. Qaysi qatorda mahalliy soliqlar keltirilgan?**
 - a) Yer solig'i, mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun soliq;
 - b) QQS, yer solig'i, mol-mulk solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
 - c) Yer qo'ridan foydalanganlik uchun soliq, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun soliq, aksiz solig'i, yer solig'i;
 - d) Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yuridik shaxslarning foyda solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yagona soliq to'lovi.

9-BOB

JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I

Reja:

- 9.1. Yer solig'i to'lovchilari va jismoniy shaxslar uchun yer solig'i obyekt
- 9.2. Yer solig'i stavkalari va yer solig'idan jismoniy shaxslar uchun imtiyozlar
- 9.3. Jismoniy shaxslar yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi

Tayanch so'z va iboralar: jismoniy shaxslarning yer solig'i, soliq obyekt, soliq to'lovchilar, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiyozlar, soliqni to'lash muddatlari.

9.1. Yer solig'ini to'lovchilar va jismoniy shaxslar uchun yer solig'i obyekt

O'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar yer solig'ini to'lovchilar hisoblanadi. Yer solig'i to'lovchilarini soliq idoralari har yili yil boshiga hisobini olib boradi.

Jismoniy shaxslar uchun yer solig'i obyekt yeri uchastkalaridir. Quyidagi yer uchastkalari soliq solinadigan obyekt hisoblanadi:

1. Turar joylar etagida va jamoat yerlarida shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yerlar;
2. Yakka tartibda uy-joy qurilish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
3. Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari;
4. Xizmat yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq berilgan chek yerlar;
5. Meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy, dala hovli bilan birgalikda egalik qilish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;
6. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;
7. Tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijara-ga berilgan yer uchastkalari;

Berilgan yerlardan ikki yil mabaynida foydalanmagan jismoniy shaxslardan yer solig'i uch baravar miqdorda undiriladi. Agar yer uchastkalariga mulk, egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar bo'lmasa, soliq butun maydon uchun koeffitsiyentlar qo'llangan holda to'lanadi.

9.2. Yer solig'i stavkalari va yer solig'idan jismoniy shaxslar uchun imtiyozlar

Yer solig'i stavkalari har yili yangi yil uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yer uchastkasi mulkdori, yer egasi yoki yerdan foydalanuvchining aybi bilan yomonlashgan (boniteti pasayib ketgan) taqdirda, yer solig'i yerning sifati yomonlashuviga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Shahar va shahar qo'rg'onlarining ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jalik yerlariga belgilangan stavkalarning ikki baravari miqdorida undiriladi.

Jismoniy shaxslar yer solig'i bo'yicha imtiyozga egaligi yoki ega emasligidan qat'i nazar, maydoni davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilganidan ko'p bo'lgan yer uchastkalari uchun yer solig'ining 1.5 barovar oshuvchi koeffitsiyenti bilan to'laydilar.

Yer uchastkasining joylashishiga qarab qishloq joylari uchun yer solig'i stavkasiga quyidagi koeffitsiyentlar qo'llaniladi:

Toshkent shahri atrofida 20 km radiusda – 1.3;

Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari 15 km radiusda – 1.2;

Tumanlar markazidan 10 km radiusda – 1.15;

Boshqa shaharlar 5 km radiusda – 1.10.

Agar yerlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat hokimiyati organlarining qaroriga muvofiq ijaraga olingan bo'lsa, jismoniy shaxslar yer solig'i o'rniga ijara haqi to'laydilar

Ijara haqi taraflarning kelishuvi asosida belgilanadi, lekin bu haq qonun hujjatlarida belgilangan yer solig'ining bir stavkasidan kam va uch stavkasidan ko'p bo'lmasligi, yerlardan qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalan-ganda esa – bir stavka miqdorida bo'lishi lozim. Dehqon xo'jaliklaridan undiriladigan yer solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida yer solig'i stavkalariga yer sifatiga bog'liq holda quyidagi koeffitsiyentlar qo'llaniladi:

- tuproq boniteti 40 balgacha bo'lsa – 0.75;
- tuproq boniteti 41 baldan 70 balgacha bo'lsa – 1.0;
- tuproq boniteti 70 baldan ortiq bo'lsa – 1.25;
- jismoniy shaxslarga tadbirkorlik maqsadida foydalanilayotgan yerlar uchun soliq stavkasi yuridik shaxslarga belgilangan stavkada qo'llaniladi.

Yer solig'idan imtiyozlar ikki guruhga bo'linadi:

Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan yer uchastkalari;

Yer solig'i to'lashdan to'liq ozod etilgan jismoniy shaxslar.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalariga quyidagilar kiradi:

1. Yakka tartibda uy-joy qurish va shaxsiy yordamchi xo‘jalik yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan me‘yorlar doirasida berilgan yerlar, yer berilgan paytdan boshlab ikki yil muddatga;
2. Yangi o‘zlashtirilayotgan yerlar va meliorativ holatni yaxshilash ishlari olib borilayotgan sug‘oriladigan yerlar-loyihada nazarda tutilgan muddatga, lekin ishlar, boshlangan vaqtdan boshlab besh yilgacha;
3. Yangi tut ko‘chatlari o‘tqazilgan yer uchastkalari qator oralaridan qishloq xo‘jalik ekinlarini ekish uchun foydalanishdan qat’i nazar uch yil muddatga. Shu munosabat bilan bahorda o‘tqazilgan tut ko‘chatlari egallagan yerlar soliq to‘lashdan uch yilga ozod etiladi, bunga ko‘chat o‘tqazilgan yil ham kiradi. Kuzda o‘tqazilgan ko‘chatlar o‘tqazilgandan keyingi yildan boshlab uch yilga soliq to‘lashdan ozod etiladi. Soliq kodeksining 290-moddasida soliqdan ozod etilgan boshqa yerlar bor. Ammo, ular jismoniy shaxsga tegishli ekanligi aytilmagan.

Agar yerlar o‘z o‘rnida foydalanilmasa imtiyoz yo‘qoladi. Yer kodeksi-ning 55-moddasiga ko‘ra qishloq xo‘jalik kooperativ a‘zolariga, muassasalar va tashkilotlar xodimlariga, shu tashkilotlar yerlaridan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun sug‘oriladigan yerlardan 0,35 gacha, lalmikor yerlardan 0,5 gacha, yaylovlardan

1 gacha me‘yorlarda yer ajratib beriladi. Bu faqat qishloq joylarida yashovchi dehqon xo‘jaliklariga beriladi.

Yer kodeksining 27-moddasiga binoan shahar va qo‘rg‘onlarda yashovchilarga yakka tartibda uy-joy qurish uchun 0,06 ga yer ajratilib beriladi.

Yer solig‘idan to‘liq ozod etiladigan jismoniy shaxslarga quyidagilar kiradi:

1. Yaylov chorvachiligining cho‘ponlari, yilqiboqarlari, mexanizatorlari, vrachlari va texniklari, boshqa mutaxassisleri va ishchilari;
2. "O‘zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo‘lganlar, uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar. 1941-1945 yillaridagi urush nogironlari va qatnashchilari;
3. Xizmatni Afg‘oniston Respublikasida va jangovor harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo‘lgan qo‘shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o‘tgan harbiy xizmatchilar hamda o‘quv va sinov yig‘inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar;
4. Haqiqiy muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmatchilarning oilalari – xizmat muddatiga;
5. I va II guruh nogironlari;
6. Yo‘lg‘iz pensionerlar; ularga bir o‘zi yoki voyaga yetmagan bolalari

yoki nogiron bola bilan birga alohida uy, kvartira yoki yotoqxonada yashaydigan pensionerlar kiradi.

7. Boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar; Bularga ota-onadan biri yoki ikkalasi vafot etgan va oilada 16 yoshga yetmagan besh nafar va undan ko'p bolalari bo'lgan oilalar kiradi.
8. Konsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqinlari, Chernobil AES dagi falokat oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslar;
9. Ko'chirib keltirilgan fuqarolar kelib joylashgan yer uchastkalari bo'yicha – yer uchastkalari berilgan vaqtdan e'tiboran besh yilgacha;
10. Ilgari shaxsiy pensiya tayinlangan shaxslar.

Ushbu imtiyozlar yakka tartibda uy joy qurish va shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan me'yorlar doirasida yer uchastkalari berilgan jismoniy shaxslarga nisbatan tadbqiq etiladi. Me'yordan ortiqcha yer maydonlariga ega bo'lganlar shu qismidan yer solig'ini 1,5 oshuvchi koeffitsiyent bilan to'laydilar. Imtiyoz huquqi yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan shaxslar yashaydigan va birgalikda xo'jalik yuritadigan butun oilaga tadbqiq etiladi.

9.3. Jismoniy shaxslar yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi

Jismoniy shaxslarning yer solig'i soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi. Jismoniy shaxslarning yer solig'ini hisoblash uchun soliq idoralari shahar, tuman yer fondi ma'lumotlari hokimliklarning qarorlari asosida hamda uyma-uy yurib o'tqazilgan tekshirishlar asosida yer uchastkalari maydonini aniqlab chiqadilar.

Jismoniy shaxslarning yer solig'i har yilning boshida soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi va to'lov xabarnomasi yoziladi.

Yer solig'ini to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi har yili soliq idoralari tomonidan 1 maydan kechiktirmay jismoniy shaxslarga yetkaziladi. Ular jismoniy shaxslarga shaxsan topshirilishi lozim.

Jismoniy shaxslar yer solig'ini joriy yilning 15 oktyabriga qadar to'lab qo'yishlari shart. Aks holda soliqdan boqimanda paydo bo'ladi va soliqdan tashqari penya (aybnoma) to'lashga to'g'ri keladi.

Soliq o'tgan yillarda undirilmagan bo'lsa, soliq idoralari avvalgi uch yil uchun soliq hisoblab undirib olishga haqli. O'tgan yillar uchun undirilmagan soliq summasiga aybnoma hisoblanmaydi.

Nazorat savollari:

1. Qanday jismoniy shaxslar yer solig'i to'lovchilari hisoblanadi?
2. Jismoniy shaxslarning yer solig'i obyektiga nimalar kiradi?
3. Yer solig'i stavkasini belgilash tartibi qanday?

4. Yer solig'idan jismoniy shaxslar qanday imtiyozlar olish huquqiga ega?
5. Jismoniy shaxslarning yer solig'ini kim hisoblaydi va yer solig'ini to'lash muddati qanday?

Mavzuqa doir topshiriqlar.

9.1-topshiriq. Toshkent shahrining 2 zonasida yashovchi fuqaro 4,25 kv.m. yer uchastkasiga ega. Fuqaroning to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini va to'lash muddatini aniqlang.

9.2-topshiriq. Zarafshon shahrining 4 zonasida yashovchi 2-guruh nogironi 0,2 ga yer uchastkasiga ega. Hokimning qaroriga asosan yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun 0,6 ga yer uchastkasi ajratilishi belgilangan. Fuqaroning to'lashi lozim bo'lgan yer solig'i summasini hisoblang.

9.3-topshiriq. Fuqaro Qo'qon shahrining 2 zonasida 0,5 gektar yer maydoniga, 3 zonasida 0,3 ga yer maydoniga ega bo'lsa, qancha miqdorda 1 yilga soliq to'laydi?

9.4-topshiriq. Fuqaro Qarshi shahrining 2 zonasida 0,15 gektar yer maydoniga, 1 zonasida 0,3 ga yer maydoniga ega bo'lsa, qancha miqdorda 1 yilga soliq to'laydi?

9.5-topshiriq. Fuqaro Samarqand shahrining 2 zonasida 0,18 gektar yer maydoniga, 3 zonasida 0,2 ga yer maydoniga ega bo'lsa, qancha miqdorda 1 yilga soliq to'laydi?

Testlar

1. «Ball bonitet» tushunchasiga aniq ta'rif bering.

- a) yer solig'i stavkasi
- b) yerning miqdoriy o'lchov birligi
- c) bu yer uchastkasi maydonining ko'rsatkichi
- d) bu yerning tabiiy hosildorligi va sifatining baholanishi

2. Yer solig'i to'lashdan quyidagilar ozod etiladi:

- a) o'z faoliyatida yerdan foydalanmaydigan korxonalar
- b) yerdan xayriya maqsadida foydalanadigan korxonalar
- c) yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari- davlat ro'yxatidan o'tgan kundan
- d) ta'lim vazirligi tasarrufidagi korxonalar

3. Ko'p kvartirali uylarda yashaydigan jismoniy shaxslardan yer solig'i qanday olinadi?

- a) jismoniy shaxslar uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi
- b) undirilmaydi
- c) yashashning birinchi 2 yil davomida undirilmaydi
- d) har yil undiriladi.

4. Quyidagi jismoniy shaxslardan qaysi biri yer solig'idan ozod etilmagan?

- a) uchchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar
- b) I va II guruh nogironlari
- c) yaylov chorvachiligining cho'ponlari
- d) yolg'iz bo'lmagan, boquvchisi bor pensionerlar.

5. Qat'iy belgilangan soliq bo'yicha soliq solinadigan obyekt:

- a) belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi fizik ko'rsatkich
- b) belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi moliyaviy ko'rsatkich
- c) belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi foiz ko'rsatkich
- d) belgilangan faoliyat turini tavsiflovchi mexanik ko'rsatkich

10-BOB

JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I

Reja:

- 10.1. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq elementlari.
- 10.2. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibi.
- 10.3. Jismoniy shaxslarning daromadga solig'ini hisoblash tartibi, hisobotlar, hisob-kitoblar va deklaratsiyalar taqdim etish.
- 10.4. Chet ellik jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning xususiyatlari.

Tayanch so'z va iboralar: rezident va norezident, jismoniy shaxslarning daromad solig'i, deklaratsiya, soliq obykti, soliq to'lovchilar, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiyozlar.

10.1. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq elementlari

Moliya yilida soliqqa tortiladigan daromadga ega bo'lgan har qanday jismoniy shaxs Jismoniy shaxslar daromadiga soliq to'lovchilari hisoblanadi.

Soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxslar daromadi rezidentlar va norezidentlar daromadiga bo'linadi.

Boshlanayotgan yoki tugayotgan moliya yilida 12 oygacha bo'lgan istalgan davrda O'zbekiston hududida 183 kun va undan ortiq yashovchi jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasi rezidenti deb ataladi. Shu ko'rsatilgan muddatdan kam yashab va kam daromad olgan jismoniy shaxslar norezident deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasi rezidenti jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasida va undan tashqaridagi manbaalardan olgan daromadlari bo'yicha daromadga soliqqa tortiladi.

O'zbekiston Respublikasi norezidenti faqat O'zbekiston hududidan olgan daromadidan soliq to'laydi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida rezident shaxslar tomonidan to'langan soliq summasi O'zbekiston Respublikasida soliq to'lash paytida O'zbekiston Respublikasining qonunlari va xalqaro qonunlarga binoan hisobga olinadi.

Hisobga olinayotgan soliq summasi O'zbekiston Respublikasida harakatda bo'lgan soliq stavkasida hisoblangan jismoniy shaxslarning daromadiga solig'i summasidan oshib ketmasligi kerak.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari soliq solish obyektidir:

- O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari;
- O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari;

- yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan, Soliq kodeksning 58-bobiga muvofiq qat'iy belgilangan soliq solinadigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining soliq solish obyekti bo'lmaydi.

Shunday qilib, soliq Soliq kodeksiga muvofiq belgilanadigan jami yillik daromad soliq obyekti hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va jismoniy shaxslarning daromadiga soliq bo'yicha qonunchilikka binoan soliq stavkalari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlariga solinadigan differensial progressiv soliq stavkalari;
- jismoniy shaxslarning rezidentlarning dividend va foiz tarzida oladigan daromadiga soliq stavkalari;
- manbaida to'lanadigan norezident daromadiga soliq stavkalari;
- imtiyozli soliq stavkalari.

Soliqqa tortish maqsadida eng kam ish haqining miqdori yil boshidan e'tiboran ortib boruvchi yakun tarzida hisoblanadi (yil boshidan e'tiboran tegishli davr uchun eng kam ish haqining oylik miqdorlari summasi yig'indisi).

Jismoniy shaxslar–rezidentlarning dividendlar va foizlar daromadlariga Soliq Kodeksiga binoan ozod qilinadiganlardan tashqari to'lov manbaida 10 foiz miqdorida soliq ushlab qolish tartibi belgilangan. Davlat qimmatli qog'ozlari va depozitlaridan dividend va foiz bo'yicha soliq to'lash bekor qilingan.

Norezident jismoniy shaxslarning doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmagan holda O'zbekiston Respublikasidagi manbadan olgan daromadlariga ularni to'lash manbai chegirmasiz quyidagi miqdorlarda stavkalar bo'yicha soliq ushlab qolinadi:

- dividendlar va foizlar –10 foiz;
- O'zbekiston Respublikasi bilan boshqa davlatlar o'rtasida harakat qilishda xalqaro aloqa, telekommunikatsiyalar yoki transport xizmatlari (fraxta) uchun – 6 foiz;
- royalti, ijaradan olinadigan daromadlar xizmat ko'rsatish, shu jumladan boshqaruv maslahat xizmatlari ko'rsatishdan keladigan daromadlar va boshqa daromadlar (daromad solig'i solinadigan daromad bunga kirmaydi) – 20 foiz.

Ushbu to'lov manbaida soliqqa tortish tartibi to'lov O'zbekiston Respublikasi ichida yoki uning tashqarisida amalga oshirilganidan qat'i nazar tadbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zararli va og'ir sharoitda

ishlarda band bo'lgan jismoniy shaxslarning ayrim toifalari uchun, shuningdek tabiiy iqlim sharoitlari yomon joylarda ishlash bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha to'lovlar bo'yicha imtiyozli daromad solig'i stavkalarini belgilagan.

Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan ayollarning daromadlaridan olish darajasi 20 foizdan oshmasligi lozim. Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlar ro'yxati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortayotganda dividend, foiz daromadlari jami daromad tarkibiga kiritilmaydi, chunki ular bo'yicha soliq alohida hisoblangan bo'ladi.

Jismoniy shaxslar daromadiga soliqdan imtiyozlarni uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin:

Jismoniy shaxslarning soliq solinmaydigan daromadlari (soliq solinadigan daromadga kiritilmaydi).

Soliqdan to'liq ozod bo'ladigan jismoniy shaxslar.

Soliqdan har bir to'liq oy uchun to'rt karrali minimal ish haqi miqdorida ozod etilish.

10.2. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibi

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibiga soliq to'lovchi olishi mumkin bo'lgan yoki tekinga olgan pul yohud buyum shaklida olgan pul mablag'lari kiradi.

Jismoniy shaxslarning jami daromadlari tarkibi 3 guruhga bo'linadi.

1. Mehnat haqi tariqasida olingan daromadlari (eng asosiy daromadlar).
2. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari.
3. Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan olgan daromadlari.

Yuqoridagi daromadlarning har birining tarkibini aniq bilib olish zarur.

Jismoniy shaxslarning mehnat haqi tariqasida olgan daromadlari tarkibiga mehnat shartnomasi bo'yicha faoliyatdan va fuqorolik-huquqiy shartnomalari bo'yicha olingan daromadlari kiradi.

Mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi:

- 1) xodimlarga sotiladigan tovarlar(ishlar, xizmatlar) qiymati bilan bunday tovarlarni(ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish narxi yoki ularning tannarxi o'rtasidagi manfiy farq;
- 2) ish beruvchi tomonidan o'z faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, xodimlarning chiqimlarini qoplash uchun qilingan xarajatlar;
- 3) xodim ish beruvchiga to'lashi kerak bo'lgan, ammo ish beruvchining hisobidan chiqarilgan qarz summalari;
- 4) ish beruvchi o'z xodimlarining hayoti yoki sog'ligini ixtiyoriy

sug'urtalash badallarini to'lash uchun qilingan xarajatlar;

- 5) ish beruvchining jismoniy shaxsdan ushlab qolinishi lozim bo'lgan to'lovlar yuzasidan to'lagan summolari;
- 6) ish beruvchining o'z xodimlarining bevosita yoki bilvosita daromadlarini tashkil etadigan boshqa xarajatlari.

Xodimlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan me'yorlari doirasida beriladigan xizmat safari to'lovlarining summasi jami yillik daromadga kirmaydi. Ammo, me'yordan ortiq xarajatlar jami yillik daromad tarkibiga kiradi. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga foizlar, dividendlar bo'yicha olingan daromadlar va mol-mulkni ijaraga berishdan keladigan daromadlar kiradi.

Dividend va foiz daromadlar asosan qimmatli qog'ozlardan (oddiy va imtiyozli aksiyalar, akkreditivlar va boshqalar) hamda shirkatlarda sherikchilikdan olgan daromadlardir.

Mulklarni ijaraga berish tadbirkorlikka kirmaydi. Ijara daromadlariga:

- kvartiralar, garajlar;
- yuk mashinalarni, yengil mashinalar;
- uy anjomlarini va boshqa mulklarni ijaraga berish.

Jismoniy shaxslarning uchinchi guruh oladigan daromadlariga tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar kiradi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadga yana tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasidan, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan, yakka tartibda amalga oshirilayotgan boshqa faoliyatdan keladigan barcha tushumlar ushbu daromadni topish bilan bog'liq xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalar chegirib tashlangan holda kiradi.

Jismoniy shaxs bir necha faoliyat turi bilan shug'ullansa har bir faoliyatdan soliqni alohida-alohida to'laydi. Ishbilarmonlik faoliyati bo'yicha ijaraga olingan asbob-uskunalar va joylaridan foydalanilsa, shu jumladan, ishonchli qog'ozli transportda, o'zlari joylashgan soliq idoralariga ijaraga beruvchi haqida ma'lumotnoma taqdim etishlari shart.

10.3. Jismoniy shaxslarning daromadga solig'ini hisoblash, hisobotlar, hisob-kitoblar va deklaratsiyalar taqdim etish tartibi

Jismoniy shaxslarning asosiy ish joyida olgan mehnat haqi daromadlaridan soliqni to'liq to'g'ri hisoblash javobgarligi yuridik shaxslar ish beruvchilar buxgalteriyasiga yuklatilgan.

Jismoniy shaxslarning asosiy ish joyidan olingan mehnat haqi va boshqa to'lovlari kalendar yilining boshidan boshlab har oyda soliqqa tortiladigan jami daromaddan o'sib boruvchi yakun bilan hisoblanadi. Yuridik shaxslar tomonidan hamma xodimlar uchun hisoblangan ish haqi va boshqa

daromadlardan qaydnoma bo'yicha soliq ushlanadi. Ushlangan soliq summasi ish haqi uchun chek bilan bankka murojaat etganda to'lov topshirig'i bilan to'lab boriladi.

Agar oy ichida vaqtincha ishlovchilarga fuqaro huquqiy shartnomalari bo'yicha mehnat haqlari to'langan bo'lsa, kelgusi oyning 5-sanasigacha ushlangan soliqlarni korxona davlat byudjetiga o'tkazib borishlari shart.

Agar fuqaroning yil ichida asosiy ish joyi o'zgarsa, u yangi ish joyning buxgalteriyasiga avvalgi ish joyidan yil boshiga ishdan ketgunga qadar davrga olingan daromadlar va ushlangan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani topshiradi.

Fuqaroning yangi ish joyi (xizmat, o'qish)da soliqni hisoblash kalendar yil boshidan avvalgi ish joyi va yangi ish joyi (xizmat o'qish)da olingan jami daromaddan amalga oshiriladi. Bu yerda tegishli imtiyozlar bo'lsa chiqariladi.

Agar fuqaro ilgari ish joyidan ma'lumotnoma keltirmagan taqdirda soliq maksimal stavkasi bo'yicha ushlanib turiladi. Ma'lumotnoma taqdim etilishi bilan soliq qayta hisoblanib chiqiladi.

Asosiy ish joyidan tashqarida olingan mehnat haqi va boshqa daromadlardan soliq hisoblash daromadlar to'langan manbada har oyda kalendar yilining boshidan oshib boruvchi yakun bo'yicha imtiyozlarsiz hisoblanadi.

Agar asosiy ish joyidan tashqarida mehnat haqidan daromad oluvchi fuqaro o'zining daromadidan maksimal stavkada soliq ushlash xaqida shu yerda ariza bersa, daromad to'lovchi korxonalar soliq to'lovchining arizasiga binoan soliq hisoblashlari kerak.

Jismoniy shaxslarning asosiy ish joyidan tashqarida olgan daromadlaridan soliq ushlash ularning olgan jami daromadlari va ushlangan soliq summasi to'g'risidagi deklaratsiyaga qarab soliq idoralari tomonidan soliq qayta hisoblab chiqiladi.

Asosiy bo'lmagan ish joyidan (O'zbekistondagi, shuningdek, tashqaridagi manbalardan) daromad olgan rezident – jismoniy shaxs doimiy joyidagi soliq organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreldan kechiktirmay jami yillik daromad haqida deklaratsiya taqdim etadilar.

Chet ellik jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasiga kelgan kundan e'tiboran bir oy mobaynida mo'ljaldagi daromadlar haqida deklaratsiya topshiradilar. Ularning faoliyati kalendar yili mobaynida to'xtagan va u O'zbekistondan chiqib ketadigan bo'lsa, amalda olingan daromadlar haqida jo'rab ketishdan kamida bir oy oldin deklaratsiya taqdim etilishi kerak.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs olgan daromadlar va qilingan xarajatlar to'g'risidagi deklaratsiyani belgilangan tartibda quyidagi muddatlarda taqdim etadi:

- shunday daromadlar paydo bo'lgan kundan e'tiboran birinchi oy

- o'tgandan keyin 5 kun ichida (dastlabki) deklaratsiya;
- hisobot yili tugashi bilan keyingi yilning 15 yanvarigacha (oxirgi), yakuniy deklaratsiya taqdim etadilar.

Jismoniy shaxsning tadbirkorlik faoliyati to'xtatilgan taqdirda, soliq organi soliq to'lovchidan kamroq bo'lgan davr uchun hisobotlar, soliq hisobi hamda daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etishni yozma xabarnoma topshirish yo'li bilan talab qilish mumkin bo'lib, xabarnomada buning sababi va hisobotlari, soliq hisobi hamda jami yillik daromad va qilingan chegirmalar to'g'risidagi deklaratsiya qachon va qaysi davr uchun topshirilishi ko'rsatilgan bo'ladi.

Jismoniy shaxsning tadbirkorlik faoliyatini to'xtatish haqida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan taqdirda soliq to'lovchi besh kun muddatda bu haqda soliq organiga yozma ravishda xabardor qiladi.

Jismoniy shaxsning tadbirkorlik faoliyatini to'xtatish haqida qaror qabul qilingandan so'ng soliq to'lovchi besh kun ichida soliq organiga hisobotlar, soliq bo'yicha hisoblar hamda daromadlar haqidagi deklaratsiyani taqdim etishi shart.

Yuqoridagi hujjatlar qonunlarda belgilangan shaklda va tartibda taqdim etiladi.

Jismoniy shaxslarning daromadiga soliqni to'lov manbaida ushlab qolishni quyidagi yuridik shaxslar amalga oshirishi shart:

1. Ishlaydigan jismoniy shaxslarga mehnat shartnomalari va fuqorolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha to'lovlarni amalga oshiruvchi, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar.
2. Nodavlat pensiyalarini to'lovchilar;
3. Jismoniy shaxslarga dividendlar va foizlar to'lovchilar, banklar, aksiyadorlik va hissadorlik jamiyatlari.
4. Norezidentlarga, doimiy muassasa bilan bog'liq bo'lmaganlarga to'lovlarni amalga oshiruvchilar.

Jismoniy shaxslarning daromadiga soliqni ushlab qolish va byudjetga o'z vaqtida o'tkazish uchun daromad to'lovchi yuridik shaxs javobgardir. Soliq summasi ushlab qolinganda daromad to'lovchi yuridik shaxs ushlab qolinmagan soliq summasini hamda u bilan bog'liq jarima va penyalarni byudjetga to'lashi shart.

Manbaida ushlab qolingan soliqlar quyidagi muddatlarda byudjetga to'lanadi:

1. Daromad to'lovchi yuridik shaxslar tomonidan ushlab qolingan soliq summasi shu maqsadda pul mablag'lari olish uchun bankka hujjatlar taqdim etish bilan bir vaqtda byudjetga o'tkaziladi.
2. To'lovni natura holida yoki mahsulotni realizatsiya qilishdan, ishlar ba-

jarish yoxud xizmat ko'rsatishdan tushgan tushumdan to'lovchi yuridik shaxslar tomonidan, ushlab qolingani soliq summasi to'lov amalga oshirilgan, oy tugagandan keyin besh kun ichida byudjetga o'tkaziladi.

10.4. Chet ellik jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik jismoniy shaxslarga O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari hisobga olingan holda, ushbu Kodeksga muvofiq soliq solinadi.

Chet ellik jismoniy shaxslardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish fuqarolik prinsipi bo'yicha tugatilishi yoki cheklanishi mumkin.

Chet ellik jismoniy shaxslar bilan bitimlar tuzish chog'ida bunday bitimlarning shartlariga O'zbekiston Respublikasida faoliyatni amalga oshiradigan soliq to'lovchilar hamda boshqa shaxslar chet ellik jismoniy shaxslarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha xarajatlarini o'z zimmasiga olishini nazarda tutadigan soliq haqidagi izohlar kiritilishiga ruxsat berilmaydi.

Chet ellik jismoniy shaxsning – O'zbekiston Respublikasi rezidenti-ning daromadlariga ushbu bo'limda belgilangan tartibda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadi.

Ko'chmas mulk, yuridik shaxslarning – O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining ustav kapitalidagi aksiyalari va ulushlari (paylari) bir chet ellik jismoniy shaxs tomonidan boshqa jismoniy shaxsga – O'zbekiston Respublikasi rezidentiga yoki norezidentiga, yuridik shaxsga – O'zbekiston Respublikasi norezidentiga realizatsiya qilingan taqdirda, ushbu daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini ushlab qolish majburiyati soliq agenti deb e'tirof etiluvchi daromadni to'lash manbaiga (mol-mulkni sotib oluvchi zimmasiga) yuklatiladi.

Aksiyalar qimmatli qog'ozlarning birja bozori va uyushgan birjadan tashqari bozorida realizatsiya qilinganda O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar bozoridagi hisob-kitob-kliring palatasi soliq agenti deb e'tirof etiladi.

Chet ellik jismoniy shaxs tomonidan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash, ushlab qolish, o'tkazib berish, soliq agenti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tasdiqlaydigan shakl bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisob-kitobini va aksiyalar oldi-sotdisi bo'yicha bitimlar reestrini taqdim etish, soliq to'langanligi to'g'risida ma'lumotnoma berish va mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini ro'yxatdan o'tkazish (rasmiylashtirish) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bo'yicha Soliq ko-

deksning 155-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar sotuvchida – chet ellik jismoniy shaxsda mol-mulk realizatsiya qilingan yildan keyingi yilning 1 apreliga qadar Soliq kodeksining 192-moddasi uchinchi qismiga muvofiq daromadlarni deklaratsiya qilish bo'yicha majburiyat yuzaga kelsa, soliq agenti tomonidan ushbu moddaga muvofiq ushlab qolingani jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiya taqdim etilayotganda davlat soliq xizmati organi tomonidan qayta hisoblab chiqarilishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Jismoniy shaxslarning daromadlari haqida ma'lumot bering.
2. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i obyektlarini ko'rsating.
3. Daromad solig'i to'lovchi jismoniy shaxslarni sanab bering.
4. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i xususiyatlarini gapirib bering.
5. Jismoniy shaxslardan deklaratsiya asosida soliq undirish tartibini tushuntirib bering.

Mavzuqa doir topshiriqlar

10.1-topshiriq. Korxona xodimiga yanvar oyida 1.mln.260 ming so'm ish haqi, 535000 so'm moddiy yordam hisoblandi. Xodim 3-guruh nogironi. Yanvar oyi uchun daromad solig'i miqdorini aniqlang.

10.2-topshiriq. Korxona xodimiga fevral oyida 1.mln.230 ming so'm ish haqi, 5.mln.150 ming so'm moddiy yordam hisoblandi. Daromad solig'ini hisoblang.

10.3-topshiriq. Xodim og'ir sharoitli sexda faoliyat yuritadi. Joriy yil aprel oyida ish haqi 1.mln.350 ming so'm, o'ta zararli ishda ishlagani uchun unga 35% ustama to'lanadi. Unga har kuni iste'mol qilishi uchun 1500 so'mlik sut beriladi. Xodimning va uning bolalari davolanishi uchun 1.mln.300 ming so'm to'langan. Yanvar-mart oyida 3.mln.250 ming so'm daromad olgan 568700 so'm daromad solig'ini tolagan. *Keltirilganlar ma'lumotlar asosida quyidagilarni aniqlang:*

- 1) xodimning jami daromadi miqdorini;
- 2) chegiriladigan summalarni;
- 3) daromad solig'i miqdorini.

10.4-topshiriq. Xodimga fevral oyida 1.mln.150 ming so'm ish haqi hisoblandi. Xodimning o'tgan yilda qilgan ixtiroi 5 mln.so'mga sotildi. Xodimga chet elga xizmat safari uchun 3.mln.so'm berildi. Xodim yanvar oyida 1.mln.250 ming so'm daromad olgan. Aniqlash kerak:

- 1) xodimning jami daromadi miqdorini;
- 2) chegiriladigan summalarni;
- 3) daromad solig'i miqdorini.

10.5-topshiriq. Xodimning qaramog'ida bolaligidan nogiron, doimiy

parvarishni talab qiladigan farzandi bor. Sentyabr oyida xodimning asosiy ish haqi 1 mln. 120 ming so‘m. Yanvar-mart oylaridagi daromadi 8500 ming so‘mni tashkil qilgan. Aniqlash kerak:

- 1) xodimning jami daromadi miqdorini;
- 2) chegiriladigan summalarni;
- 3) daromad solig‘i miqdorini

Testlar

1. **O‘zR Oliy O‘quv Yurtlarida ta’lim olish uchun (o‘zining yoki 26 yoshga to‘lmagan farzandlarining o‘qishi uchun) yo‘naltiriladigan summalar daromad solig‘iga tortiladimi?**
 - a) ish haqidan olinadigan daromad solig‘i kabi daromad solig‘i undiriladi;
 - b) qisman daromad solig‘iga tortiladi;
 - c) bu summalar soliqqa tortilmaydigan daromad hisoblanadi;
 - d) daromad solig‘ining eng past stavkasida daromad solig‘iga tortiladi.
2. **Nega “O‘zbeknavo” birlashmasidan ro‘yxatdan o‘tgan san’at sohasida faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslar daromad solig‘i to‘lashdan to‘liq ozod etilgan?**
 - a) chunki ular xalq xizmatida bo‘ladilar;
 - b) o‘zbek san’atini dunyoga tanitish va tanishtirish;
 - c) faoliyati bo‘yicha to‘lanadigan litsenziya to‘loviga tenglashtirilgan;
 - d) litsenziya uchun to‘lovning stavkasi nisbatan kamroq.
3. **Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyati uchun qanday soliq to‘laydilar?**
 - a) daromad solig‘i;
 - b) yagona soliq to‘lovi;
 - c) qat’iy belgilangan soliq;
 - d) foyda solig‘i.
4. **Qaysi toifadagi fuqarolar jami yillik daromad to‘g‘risida deklaratsiya topshiradi?**
 - a) yuqori daromadga ega fuqarolar;
 - b) ikki va undan ortiq daromad manbaiga ega bo‘lgan hamma toifadagi fuqarolar;
 - c) yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar;
 - d) faqat o‘rindoshlik bo‘yicha ishlovchilar.
5. **Moddiy yordamning qanday qismi daromad solig‘iga tortilmaydi**
 - a) 6 minimal ish haqi miqdorida.
 - b) 10 minimal ish haqi miqdorida.
 - c) 100 ming so‘m miqdorida
 - d) 12 minimal ish haqi miqdorida.

11-BOB

SUV RESURLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ

Reja:

11.1.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning iqtisodiy mohiyati

11.2.Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning elementlari

Tayanch soʻz va iboralar: suv resurslari, yer osti va yer usti suvlari, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, soliq obykti, soliq toʻlovchilar, soliq stavkasi, soliq boʻyicha imtiyozlar

11.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning iqtisodiy mohiyati

Suv har qanday davlatning uchun asosiy boyligi hisoblanadi. Oʻzbekiston sharoitida suv qadrli, chunki, respublikamizda qishloq hoʻjaligi asosan sugʻoriladigan yerlardan iborat.

Isteʼmolchilarning suvdan samarali, tejab foydalanish maqsadida respublikamiz soliq qonunchiligiga hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish toʻgʻrisida”gi qonuniga koʻra 1998 yil 1-yanvardan boshlab suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi. Ushbu soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, respublika byudjetining asosiy daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2007 yil 12 dekabr-dagi 744-sonli qaroriga asosan ushbu soliq tushumi mahalliy byudjetlarning Davlat byudjetidagi ulushini koʻpaytirish maqsadida toʻliq miqdorda mahalliy byudjetlar daromadiga oʻtkazildi.

Suvdan foydalanishni imkoniyat darajasida tejash maqsadida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soligʻi kiritilgan. Oʻz faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanish soligʻi toʻlovchilari hisoblanadi. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solishning alohida tartibi oʻrnatilgan toʻlovchilarning ayrim toifalariga tatbiq etilmaydi.

Bunda, agar soliq solishning alohida tartibi oʻrnatilgan toʻlovchilar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shugʻullansalar, ular alohida hisob olib borishlari va shu faoliyatda foydalaniladigan suv hajmidan kelib chiqib, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq toʻlashlari kerak. Yer osti va yer usti manbalaridan ishlab chiqarish va texnikaviy maqsadlarda foydalanishga olingan suv resurslari hajmi, yaʼni yuridik shaxslar tomonidan foydalanilgan suv resurlarining jami hajmi, isteʼmol tavsifi va maqsadlaridan qatʼi nazar soliqqa tortiladi.

Yer usti manbalariga daryolar, koʻllar, suv omborlari, ariqlar va boshqa

yer usti manbalari kiradi.

Yer osti manbalariga: artezian quduqlari va skvajinalari, vertikal va gorizontaal drenaj tarmoqlari kiradi.

11.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning elementlari

O‘z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, dehqon xo‘jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilardir.

Suvdan foydalanish joyida yuridik shaxslar, davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatga olinish joyidan qat’i nazar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘laydilar.

Aholi punktlarining suv ta‘minoti uchun suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar o‘z faoliyatida ishlatiladigan suv uchungina soliq to‘lovchilar hisoblanadi.

Yer usti va yer osti manbalaridan foydalaniladigan suv resurslarining hajmi soliq solish obyekti hisoblanadi.

Yer usti manbalariga quyidagilar kiradi: daryolar, ko‘llar, suv omborlari, yer yuzasidagi boshqa havzalar va suv manbalari, turli kanal va hovuzlar.

Yer osti manbalariga quyidagilar kiradi: artezian quduqlar va skvajinalar, vertikal va gorizontaal zovur tarmog‘i.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi va soliq to‘lovchilarga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

Suvdan qishloq xo‘jalik ekinlari va ko‘chatlarini sug‘orish uchun foydalanadigan yordamchi xo‘jaliklarga ega yuridik shaxslar, shuningdek ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o‘quv yurtlarining o‘quv-tajriba xo‘jaliklari soliqni qishloq xo‘jalik korxonalari uchun belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘laydilar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod etiladi:

- 1) suv uchun byudjetga soliq o‘tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste’molchilar;
- 2) birlamchi foydalanilgan suv uchun to‘lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste’molchilari;
- 3) ixtiyoriy tugatilayotgan yuridik shaxslar – tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e’tiboran. Ixtiyoriy ravishda tugatish qonun hujjatlarida belgilangan mud-

datlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza quyidagi hajmlarga kamaytiriladi:

- 1) sog'liqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari hajmiga, bundan savdo tarmog'ida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;
- 2) atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan yer osti suvlari hajmiga, ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi bundan mustasno;
- 3) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlamdagi bosimni saqlab turish uchun yer qa'riga qaytarib quyiladigan yer osti suvlari hajmiga, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;
- 4) gidroelektr stansiyalari gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv hajmiga;
- 5) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni yuvish uchun foydalaniladigan suv hajmiga.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar tomonidan, dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etilgan va tashkil etilmagan)dan tashqari, tasdiqlangan stavkalar bo'yicha amalda olingan soliqqa tortiladigan suv hajmidan kelib chiqib hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lanadi:

- yuridik shaxslar (dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tomonidan – har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunigacha;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tomonidan (dehqon xo'jaliklaridan tashqari) – har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunigacha.

Chorak uchun suv resurslaridan foydalanganlik solig'ining umumiy summasi eng kam ish haqining ellik baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan yuridik shaxslar soliqni chorakda bir marotaba, choraklik moliyaviy hisobotlarni topshirish uchun belgilangan muddatlarda to'laydilar.

Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jalik korxonalari va dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni yilda bir marta – hisobot yilining 15 dekabriga qadar to'laydilar.

Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jalik korxonalari boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydalangan suv hajmini olingan suv-

ning umumiy hajmidan chiqarib tashlaydilar, bunda 1 gektar sug'oriladigan yerni sug'orishga suv sarfining umuman xo'jalik bo'yicha o'rtacha miqdoridan kelib chiqiladi (boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning sug'oriladigan yerlari ham kiradi).

Suv yer osti va yuzadagi manbalardan kelib tushadigan vodoprovod tarmog'idagi suvdan foydalanilganda soliq manbalar bo'yicha belgilangan stavkalardan kelib chiqib hisoblanadi. Shahar va tumanlarning davlat soliq xizmati organlari suv yetkazib beruvchi korxonalardan vodoprovod tarmog'iga yuzadagi va yer osti manbalaridan kelib tushadigan suv hajmlari nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni olishlari va mazkur ma'lumotlarni soliq to'lovchilarga yetkazishlari kerak.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan binolar bir qismi, ayrim xonalar boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ijaraga topshirilganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni "Suvoqava" tizimi korxonalari yoki suv xo'jaligi organlari yoxud boshqa korxonalar bilan suv yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzgan ijaraga beruvchilar to'laydilar.

Bino (xona)ni ijaraga olgan va o'zlari suv yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzgan yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni mustaqil ravishda to'laydilar.

Amaldagi korxonalar va tashkilotlar hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaradigan yuridik shaxslar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun soliq to'lamaydilar. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarish chog'ida foydalaniladigan suv hajmi uchun soliqni ular uchun ushbu ishlar bajariladigan korxona va tashkilotlar to'laydilar. Yangi qurilish maydonchasida qurilish ishlarini bajarish chog'ida qurilish paytida foydalaniladigan suv hajmi uchun soliqni qurilish tashkiloti to'laydi.

Hisoblab yozilgan soliq summasi quyidagicha aks ettiriladi:

- davr xarajatlarini hisobga olish hisobvarag'i debeti;
- byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i krediti. Byudjetga o'tqazilgan soliq summalari quyidagicha aks ettiriladi:
- byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i debeti;
- pul mablag'larini hisobga olish hisobvarag'i krediti.

Soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari ustidan davlat soliq xizmatining yuqori organlari yoki sudga shikoyat qilish huquqiga egalar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga

muvofoiq amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

1. Suv resurslaridan foydalanganlik solig'ini joriy etishdan maqsad nima?
2. Kimlar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar hisoblanadi?
3. Suv resurslaridan foydalanganlik solig'ining byudjet daromadlaridagi hissasi qanday?
4. Suv resurslaridan foydalanganlik solig'ining stavkalari qanday va soliqqa tortiladigan obyekt nima?
5. Suv resurslaridan foydalanganlik solig'ini hisoblash va to'lash tartibi qanday?

Mavzuqa doir topshiriqlar

11.1-topshiriq. Birinchi yarim yillik uchun korxona tomonidan:

Yer osti manbalaridan 1800 kub.m. suv ishlatildi, shundan 800 kub.m II kvartal uchun, Yer usti manbalaridan 1600 kub.m. suv ishlatildi, shundan 600 kub.m II kvartal uchun. 1-cho'rak 49 100 so'm suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'langan. 2-cho'rak I uchun byudjetga to'lanadigan soliq summasini hisoblang.

1. Ushbu korxona uchun hisobot davrini ayting.
2. Hisobot davri o'zgarishi uchun korxonada suv resurslaridan foydalanish bo'yicha qanday o'zgarish bo'lishi kerak.
3. Agar ushbu korxona nogironlar uyushmasiga tegishli bo'lsa, imtiyozdan foydalanishi uchun qanday talablarga javob berishi kerak?

11.2-topshiriq. Korxona Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan bo'lib, Toshkent shahrining Uchtepa tumanida yotoqxona binosiga ega. Korxona yotoqxona uchun ishlatiladigan suvga qaysi tumanda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchi hisoblanadi.

11.3-topshiriq. Korxona 1-avgustda tuman tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyasiga ixtiyoriy tugatish to'g'risida ariza berdi. 8 oy o'tgach likkvidatsiya jarayoni to'xtatildi va korxona yangidan faoliyat boshladi. 8 oy davomida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lanmadi. Suv o'lchagich ko'rsatkichiga ko'ra ushbu davrda foydalanilgan suv hajmi (yer usti manbalaridan) 1200 kub.m. ni tashkil etdi. Ushbu holatda korxona qanday yo'l tutishi lozim?

1. Agar korxona soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo'yicha soliq to'lovchi bo'lsa;
2. Agar korxona umumbelgilangan soliqlarni to'lovchi korxona bo'lsa.

11.4-topshiriq. Toshkent shahar «Suvoqava» trestining bergan ma'lumotiga ko'ra shahar vodoprovod tarmog'iga suv 72% yer ustidagi va 28% yer osti manbalaridan kelib tushadi. Faraz qilaylik, korxona bir oy davomida

10 ming kub.m. suv olgan. Korxona davlat byudjetiga suv resurslaridan foydalanganligi uchun o'tkazishi lozim bo'lgan soliqni hisoblang.

Testlar

- 1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasini aniqlang.**
 - a) Yer usti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi
 - b) Yer osti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi
 - c) Yer usti va yer osti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi
 - d) Chuchuk suv manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi
- 2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni kimlar to'laydi?**
 - a) O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar
 - b) O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar
 - c) O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar
 - d) Barcha yuridik va jismoniy shaxslar
- 3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha soliq davrini aniqlang.**
 - a) Kalendar oy
 - b) Kalendar choragi
 - c) Kalendar yil
 - d) Yarim yil
- 4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisobot davrini aniqlang.**
 - a) Kalendar oy
 - b) Kalendar choragi
 - c) Kalendar yil
 - d) Yarim yil
- 5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha to'lash davrini aniqlang.**
 - a) Kalendar oy
 - b) Kalendar choragi
 - c) Kalendar yil
 - d) Yarim yil

12-BOB

YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILAR UCHUN SOLIQLAR VA MAXSUS TO'LOVLAR

Reja:

- 12.1. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortish zarurligi
- 12.2. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar elementlari
- 12.3. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarni to'lash tartibi

Tayanch so'z va iboralar: yer osti qazilma resurslar, texnogen hosilalar, yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, soliq obyekti, soliq stavkasi, soliq bo'yicha imtiyozlar.

12.1. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortish zarurligi

Tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan muhim vosita – davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq turli xil to'lovlardir.

Jahon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini bonuslar, renta va royalti soliqlar tashkil etadi. Bonuslar bir martalik to'lov bo'lib, davlat uchun soliqlar kabi unchalik muhim moliyaviy resurs bo'lmasada, davlat byudjeti daromadlarini oshirishning zarur elementlaridan biri hisoblanadi. Bonuslar hajmi har bir mamlakatning qonunchiligi bilan belgilanib, ular tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha kelishuvlar predmeti hisoblanadi.

“O'zbekistonda ham xo'jalik yurituvchi subyektlar tabiiy resurslardan foydalanishi jarayonida bonuslar to'laydi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, bonuslar – bitim tuzilgan vaqtda yoki muayyan natijaga erishilgach bitim shartlariga muvofiq belgilangan bir martalik to'lovlar hisoblanadi.”⁴

O'zbekistonda yer qa'ridan foydalanuvchilar ikki xil bonusni to'laydilar. Bular imzoli bonus hamda tijoratbop topilma bonusi.

Rentali tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlarning ikkinchi ko'rinishi hisoblanib, davlat tomonidan tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha shartnoma tuzish vaqtida undiriladigan to'lov hisoblanadi. Rentals kelishuv davri davomida yoki qazib olish boshlanishidan avval undiriladi.

“Royalti tabiiy resurslardan foydalanuvchining yalpi daromadidan foiz ko'rinishida undirilib, davlat tomonidan tabiiy resurslarning egasi sifatida

⁴ O'zbekiston Respublikasining “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida” gi Qonuni, 20-moddada.

ishlab chiqarilgan mahsulotning qat'iy ulushi o'zlashtiriladi. Respublikamiz qonunchiligiga muvofiq, royalti bu mineral xom-ashyoni qazib olish xajmiga yoki ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatiga nisbatan foiz hisobida bitim shartlariga muvofiq belgilangan va investor tomonidan pul shaklida yoki qazib olingan mineral xom-ashyoning bir qismi tarzida to'lanadigan muntazam to'lovlardir.”⁵

Jahon amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanishni soliqqa tortish odatda foyda solig'i va tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun maxsus soliqlar, ya'ni renta soliqlari sifatida undiriladi. Shuningdek, ayrim xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotida tabiiy resurslardan foydalanish hisobiga yuqori rentabellikka erishadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun aksiz soliqlari ham amal qiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin respublikamiz xududidagi barcha tabiiy, yer osti boyliklari davlatimiz tasarrufiga o'tdi. O'zbekiston zaminida juda ulkan va noyob, hali ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilmagan mineral xom-ashyo resurslari to'plangan.

O'zbekistonda 100 ga yaqin, aniqrog'i 95 turdagi mineral xom-ashyoni o'zida mujassam etgan 2700 ta kon aniqlangan. Amalda Mendeleyev davriy jadvalidagi barcha elementlar respublikamizda mavjud. Mamlakatning umumiy xom-ashyo salohiyati 3,3 trillion AQSh dollari miqdorida baholanmoqda. Mavjud konlardan har yili 5,5 mlrd. AQSh dollariga teng foydali qazilmalar qazib olinmoqda.

Respublikamiz qonunchiligiga ko'ra mavjud yer osti boyliklari umumdavlat mulki hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 23 sentyabrdagi “Yer osti boyliklari to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq 1995 yildan boshlab yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi va yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning hajmidan kelib chiqqan holda maxsus soliq to'lay boshladilar.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etilishidan asosiy maqsad – umumdavlat mulki hisoblangan yer osti boyliklaridan oqilona tarzda butun jamiyat a'zolarini va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Soliqqa tortish maqsadida «yer osti» tushunchasiga yer qa'rining tuproq qismidan pasta joylashgan qismi tushuniladi. Yer qa'ri bo'lmagan joylarda suv yuzasidan past qismi va geologik izlanuv yoki egallash imkoniyatiga ega bo'lgan suv xavzalari yoki oqimlarining tagi (tubi) hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kavlab olish, mineral xom-ashyodan va (yoki) texnogen

⁵ O'zbekiston Respublikasining “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida” gi Qonuni, 20-moddasi.

mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilardir.

Yer qa'ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarni to'laydilar:

- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- qo'shimcha foyda solig'i;
- bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).

Bu soliqni yagona soliq to'lovchi kichik biznes korxonalari, yagona yer solig'i to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari hamda savdo va umumiy ovqatlanish va gramplastinkalar, kassetalar va disketalar sotuvchi korxonalar va qat'iy stavkada soliq to'lovchi yuridik shaxslar ham to'lamaydilar.

Agar tarkibida rangli, nodir, qora metallar va boshqa mineral xomashyoni qazib oluvchi korxona uni qayta ishlashga ikkinchi korxonaga bersa, tayyor mahsulotni sotuvchi korxona soliq to'lovchi hisoblanadi. Masalan, mis qazib oluvchi korxona rudani Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga berdi. Kombinat tayyor mahsulot qilib sotadi. Bu yerda kombinat soliq to'lovchi hisoblanadi. Agar qazib olingan rudani Respublikadan tashqariga ortsa, ruda qazib olgan korxona soliq to'lovchi hisoblanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq obyektiga kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektidir. Tayyor mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va realizatsiya qilish yoki topshirish, shu jumladan bepul berish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z iste'moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e'tirof etiladi.

Soliq solish obyektini tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

12.2. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar elementlari

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq obyektiga kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyektidir. Tayyor mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va

realizatsiya qilish yoki topshirish, shu jumladan bepul berish, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish maqsadida o'z iste'moli va boshqa ehtiyojlari uchun mo'ljallangan foydali qazilma (foydali komponent) tayyor mahsulot deb e'tirof etiladi.

Soliq solish obyekti tayyor mahsulotning har bir turi bo'yicha alohida aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yangi yil byudjetini tasdiqlayotganda soliq obyektlarining turlari va soliq stavkalarini har yili belgilab, Oliy Majlis muhokamasidan o'tkazadi.

Joriy yil uchun belgilangan soliq stavkalari foydali qazilmalar hajmiga nisbatan foizlarda belgilangan. Albatta bu yerda hajm qiymati chiqariladi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda qazib olinadigan xom-ashyo turlari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning tabaqalashtirilgan stavkalari belgilangan. Foydali qazilmalarni qazib olishning tabiiy noqulay sharoitda ishlaydigan konlar davlat tomonidan qo'shimcha ravishda qo'llab-quvvatlanadi. Ularga nisbatan pasaytirilgan soliq stavkalarni joriy etish orqali bunday korxonalar ishlab chiqarishini rivojlantirish va zamonaviylashtirishga qo'shimcha mablag'lar yo'naltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hozirgi vaqtda jami 53 turdagi foydali qazilmalarga nisbatan tabaqalashtirilgan tarzda soliq stavkalari o'rnatilgan.

12.3. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarni to'lash tartibi

Soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar soliq hisobini o'sib boruvchi yakun bilan mustaqil hisoblaydilar va o'zlari joylashgan hududdagi soliq idoralariga moliyaviy hisobotlar topshirish uchun belgilangan muddatda topshiradilar.

Soliq hisobi foydali qazilmalar qazib olganlik va texnogen hosilalardan foydalanganlik uchun yilning har choragi va yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish uchun belgilangan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

- yuridik shaxslar tomonidan – ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;
- jismoniy shaxslar tomonidan – yiliga bir marta, soliq davridan keyingi

yilning 1 fevralidan kechiktirmay.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lash quyidagicha amalga oshiriladi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan – hisob-kitob taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan yuridik shaxslar tomonidan – har oyda, keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa, yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatdan kechiktirmay.

Nazorat savollar:

1. Yer qa'ridan foydalanganlik solig'ini joriy etishdan maqsad nima?
2. Yer qa'ridan foydalanganlik solig'ining byudjet daromadlaridagi hissasi qanday?
3. Kimlar yer qa'ridan foydalanganlik solig'ining to'lovchilari hisoblanadi?
4. Yer qa'ridan foydalanganlik solig'ining stavkalari va soliqqa tortiladigan obyekt qanday aniqlanadi?
5. Yer qa'ridan foydalanganlik solig'ini hisoblash va to'lash tartibi qanday?

Mavzuqa doir topshiriqlar

12.1-topshiriq. Neft qazib oluvchi korxona hisobot davrida 1200 tonna neft qazib olgan. Korxona qayta ishlashga 1200 ming so'mga (QQS va aksiz solig'isiz) realizatsiya qilgan. Korxonaning hisobot davrida to'lashi lozim bo'lgan yer ostidan foydalanganlik uchun soliq summasini aniqlang.

12.2-topshiriq. Ko'mir qazib oluvchi korxona hisobot davrida 1800 tonna ko'mir qazib olgan va uning 45 foizini 8400 ming so'mga realizatsiya qilgan. Korxonaning to'lashi lozim bo'lgan yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang.

12.3-topshiriq. Korxona hisobot davrida 500 tonna temir rudasini qazib olib, uning bir qismini 1200 ming so'mga QQS bilan realizatsiya qilgan. Korxonaning to'lashi lozim bo'lgan yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq summasini hisoblang.

14.4-topshiriq. Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati joriy yilning 3-choragi davomida 200 tonna ko'mir kavlab oldi. Mahsulotning 2-chorakdagi o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosi 1 kg uchun 2000 so'm. 3-chorak uchun yer qa'ridan foydalanganlik solig'ini hisoblang.

Testlar

1. **Kimlar yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari hisoblanadi?**
 - a) Yuridik va jismoniy shaxslar
 - b) Faqat yuridik shaxslar
 - c) Faqat jismoniy shaxslar
 - d) Norezidentlar
2. **Jismoniy shaxslar yer qa'ridan foydalanganlik solig'ini to'lovchilari.....**
 - a) Hisoblanadilar
 - b) Hisoblanmaydilar
 - c) Agar ular yer uchastkaning egalari bo'lsa, hisoblanadilar
 - d) Agar ularga hokimiyat tomonidan ruxsat berilgan bo'lsa, hisoblanmaydilar
3. **Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'ycha soliq davrini aniqlang.**
 - a) Kalendar oy
 - b) Kalendar choragi
 - c) Kalendar yil
 - d) Yarim yil
4. **Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'ycha hisobot davrini aniqlang.**
 - a) Kalendar oy
 - b) Kalendar choragi
 - c) Kalendar yil
 - d) Yarim yil
5. **Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'ycha to'lash davrini aniqlang.**
 - a) Kalendar oy
 - b) Kalendar choragi
 - c) Kalendar yil
 - d) Yarim yil

13-BOB

TRANSPORT VOSITALARIGA BENZIN, DIZEL YOQILG‘ISI VA GAZ ISHLATGANLIK UCHUN OLINADIGAN SOLIQ

Reja:

13.1. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqining iqtisodiy mohiyati.

13.2. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq elementlari.

Tayanch so‘z va iboralar: jismoniy shaxs, benzin, dizel yoqilg‘isi, soliq to‘lovchi, soliq solish obyekti, soliq bazasi, soliq imtiyoz, soliq stavkasi, soliq hisoblash tartibi, soliq hisoboti, soliq to‘lash muddati.

13.1. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqining iqtisodiy mohiyati

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq jismoniy shaxslarga benzin, dizel yoqilg‘isi va suyultirilgan gaz sotadigan, mulkchilik shaklidan qat‘i nazar xo‘jalik yurituvchi subyektlar hisoblanadi. Bunda ularning joylashgan joyidan qat‘i nazar avtomobilga yoqilg‘i quyish shoxobchalariga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar soliq to‘lovchi hisoblanadi.

Soliq kodeksiga ko‘ra jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gazni chakana realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni to‘lovchilardir.

13.2. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqi elementlari

Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gazni chakana realizatsiya qilish hajmi soliq solish obyekti.

Transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gazning natura holidagi realizatsiya qilingan hajmi soliq solinadigan bazadir.

Sotilgan, o‘zi ishlab chiqargan hamda chetdan xarid qilingan benzin, dizel yonilg‘isi va suyultirilgan gazning natural hajmi soliq solish obyekti hisoblanadi.

Soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi, uning miqdorlari O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi. Soliq summasi chakana narxga qo‘shimcha ravishda belgilanadi va jismoniy shaxs – xaridorga beriladigan chekda alohida satr bilan ko‘rsatiladi.

Soliq summasi jismoniy shaxslarga sotiladigan benzin, dizel yonilg'isi va suyultirilgan gaz uchun mablag' to'lanishi bilan bir vaqtda undiriladi.

Soliq summasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$N = V \times St$$

bu yerda: N – hisoblab yozilgan soliq;

V – jismoniy shaxslarga sotilayotgan benzin, dizel yonilg'isi yoki suyultirilgan gazning natural ifodadagi hajmi;

St – soliq stavkasi.

Hisoblab chiqarilgan va ushlangan soliq summasi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun tushum deb hisoblanmaydi hamda boshqa to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlar bo'yicha soliq solish obyekti bo'lmaydi.

Soliq davri quyidagilardir:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun – yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar uchun – bir oy.

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq – soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. Soliq summasi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$N = V \times St$$

bu yerda: N – hisoblangan soliq.

V – jismoniy shaxslarga sotilayotgan benzin, dizel yonilg'isi yoki gazning natural hajmi;

St – soliq stavkasi.

Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasi chakana narxga qo'shimcha ravishda belgilanadi, sotib oluvchiga beriladigan chekda alohida qatorda ko'rsatiladi hamda jismoniy shaxslardan realizatsiya qilinayotgan benzin, dizel yonilg'isi va gaz uchun mablag'larni olish bilan bir vaqtda undiriladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq – soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasi transport vositalari uchun realizatsiya qilinadigan benzin, dizel yoqilg'isi va gazning narxida hisobga olinadi. Benzin, dizel yoqilg'isi va gazdan o'z ehtiyojlari uchun foydalanilganda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning hisoblangan summasi soliq to'lovchining xarajatlariga kiritiladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun

olinadigan soliqning hisob-kitobi joriy oʻn kunlik toʻlovlar hisobga olingan holda har chorakda, soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari boʻyicha esa, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. Hisob-kitob benzin, dizel yoqilgʻisi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxs joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi, bundan avtomobillarga yoqilgʻi quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilgʻisi va gazni realizatsiya qilish hollari mustasno. Avtomobillarga yoqilgʻi quyish shoxobchalari orqali benzin, dizel yoqilgʻisi va gaz realizatsiya qilinganda hisob-kitob avtomobillarga yoqilgʻi quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi.

Transport vositalariga benzin, dizel yoqilgʻisi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni toʻlash transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilgʻisi va gaz realizatsiya qilingan oyning oʻn kunligi tugaganidan keyingi uchinchi kundan kechiktirmay, hisob-kitob taqdim etiladigan yerda har oʻn kunda amalga oshiriladi.

Byudjetga soliq toʻlovchilar uning toʻgʻri hisoblanishi va Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq oʻz vaqtida toʻlanishi uchun javobgar boʻladilar.

Soliqning toʻgʻri hisoblanishi va toʻlanishi ustidan nazoratni davlat soliq xizmati organlari Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar.

Soliq bank muassasalari orqali har oʻn kunda, benzin, dizel yoqilgʻisi va suyultirilgan gaz jismoniy shaxslarga sotilgan oy kunligi tugaganidan soʻng uchinchi kundan kechiktirmay toʻlanadi.

Joriy oʻn kunlik toʻlovlar hisobiga olingan soliq boʻyicha hisob-kitob avtomobilga yonilgʻi quyish shoxobchalari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Nazorat savollari

1. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilgʻisi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqni byudjetga bevosita toʻlovchilar kimlar?
2. Soliq solish obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?
3. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilgʻisi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq stavkalarini ayting.
4. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilgʻisi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq hisob-kitobi qaysi muddatlarda taqdim etiladi?

5. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq to'lovi qaysi muddatda amalga oshiriladi?

Mavzuga doir topshiriqlar

13.1-topshiriq. Joriy davrda (1 kunda) yonilg'i quyish shoxobchasida 1000 benzin sotildi. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasini hisoblang.

13.2-topshiriq. Joriy davrda (1 kunda) yonilg'i quyish shoxobchasida 1000 l dizel yonilg'isi va 1200 kub.m gaz sotildi. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, ishlatganlik uchun olinadigan soliq summasini hisoblang

Testlar

- 1. Quyida qayd etilgan soliqlarning qaysi biri egri soliqlar guruhiga kiradi?**
 - a) Qo'shilgan qiymat solig'i
 - b) Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq
 - c) Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq
 - d) Mol-mulk solig'i
- 2. Soliq solinadigan obyektlar hisobini olib bormaslik yoki kassa operatsiyalarini yuritish tartibini buzish ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning qaysi moddasida nazarda tutilgan?**
 - a) 175-modda
 - b) 176-modda
 - c) 164-modda
 - d) 168-modda
- 3. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Soliq kodeksi nechta moddadan iborat (21 bo'lim 64 bob)?**
 - a) 325 modda
 - b) 382 modda
 - c) 392 modda
 - d) 393 modda
- 4. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yonilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq stavkalari kim tomonidan belgilanadi.**
 - a) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan
 - b) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan

- c) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan
- d) O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi tomonidan

5. Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg‘isi va gaz iste’moliga soliq tushumi qaysi byudjetga tushadi?

- a) Umumdavlat
- b) Mahalliy
- c) Ham umumdavlat, ham mahalliy
- d) Hokimiyat

14-BOB

DAVLAT BYUDJETNING SOLIQSIZ DAROMADLARI

Reja:

14.1. Davlat byudjeti soliqsiz daromadlarining zarurligi va mohiyati

14.2. Davlat byudjeti soliqsiz daromadlarining turkumlanishi

Tayanch soʻz va iboralar: davlat byudjeti, oliqsiz daromadlari, maxsus maqsadli jamgʻarmalari, tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun toʻlovlar

14.1. Davlat byudjeti soliqsiz daromadlarining zarurligi va mohiyati

Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari tarkibiga davlatga tegishli mulklarni sotishdan va xususiylashtirishdan kelgan daromadlar, tashqi iqtisodiy faoliyatdan kelgan daromadlar, xorijiy davlatlardan olingan moliyaviy yordamlar va davlatning maxsus maqsadli byudjet jamgʻarmalari kiradi.

Oʻzbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi toʻgʻrisida»gi qonuniga muvofiq davlat byudjetining soliqsiz daromadlariga yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident – yuridik shaxslarga va chet davlatlarga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan toʻlovlar va davlatning moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar kiritilgan.⁶ Ushbu qonunda soliqsiz daromadlarning yoki soliqtan tashqari toʻlovlarning uch asosiy turi eʼtirof etilgan.

Davlatning maxsus maqsadli jamgʻarmalari pul mablagʻlarini soliqsiz daromadlar tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq boʻlmay emas. Buning sababi shundaki, *birinchidan*, mazkur jamgʻarmalarga qilingan ajratmalar soliq xarakteriga ega boʻlib, bunda soliq toʻlovchilar bilan davlat oʻrtasida tovar-pul munosabatlari mavjud emas; *ikkinchidan*, maqsadli jamgʻarmalarga qilingan ajratmalar soliqlarga xos boʻlgan muhim xususiyatga, yaʼni toʻlovni amalga oshirishda subyektlar mulk shaklining oʻzgarishi xususiyatiga egadir.

Soliqqa kirmaydigan, yaʼni soliqsiz daromadlarning koʻpchiligi doimiy, qatʼiy belgilangan stavkada undiriladigan xazina (byudjet) daromadlari koʻrinishiga ega boʻlmaydi. Byudjetning soliqsiz daromadlari qatʼiy rejalashtirilmasligi kerak, lekin amaliyotda koʻp hollarda ular, odatda ilgari yildagi tushumlar darajasida rejalashtiriladi. Soliqsiz daromadlar soliq daromadlari kabi Oʻzbekiston Respublikasining vakillik organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar uchun joriy qilinadi. Soliqsiz daromadlar ham majburiy, ham ixtiyoriy shakllarda boʻlishi mumkin.

⁶ Oʻzbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi toʻgʻrisida»gi qonuni. Oʻzbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari. -T.: Adolat, 2014. -8 b.

14.2. Davlat byudjeti soliqsiz daromadlarining turkumlanishi

Soliqsiz daromadlar ro'yxati hamma darajadagi byudjetlar uchun yagona bo'lib, byudjet tasnifi bilan belgilanadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkdan yoki xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar, shu jumladan:
 - davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligidagi mulkni foydalanishga berishdan olingan daromadlar;
 - davlatga tegishli aksiyalar bo'yicha dividendlar;
 - davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkni ijaraga berishdan, shu jumladan qishloq xo'jaligi va noqishloq xo'jaligi maqsadlaridagi yerlar uchun ijara to'lovidan olingan daromadlar;
 - vaqtinchalik bo'sh turgan byudjet mablag'larini bank va kredit tashkilotlarida joylashtirishdan olingan daromadlar;
 - xizmat ko'rsatish va davlat xarajatlarini qoplashdan olingan daromadlar;
 - davlat va mahalliy tashkilotlardan to'lovlar;
 - davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkdan yoki xo'jalik faoliyatidan olinadigan boshqa tushumlar.
2. Davlat yoki mahalliy hokimiyat egaligida bo'lgan mulkni sotishdan olingan daromadlar, shu jumladan:
 - davlat mulki bo'lgan korxonalar va tashkilotlarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishdan olingan tushumlar;
 - kvartiralarini sotishdan tushumlar;
 - davlatning ishlab-chiqarish va noishlab-chiqarish fondlarini, transport vositalari va boshqa uskuna-jihozlarni sotishdan olingan daromadlar;
 - musodara qilinib, davlat va mahalliy hokimiyat egaligiga o'tgan egasiz mol-mulkni sotishdan olingan daromadlar.
3. Davlat zaxiralarini sotishdan olingan daromadlar.
4. Yer va nomoddiy aktivlarni sotishdan olingan daromadlar.
5. Davlatga qarashli bo'lmagan manbalardan kapital transfertlar tizimlari.
6. Jarima-jazolarni qo'llash, yetkazilgan zararni qoplash, shu jumladan:
 - standartlar va texnik shartlardan chetlashgan holda tayyorlangan mahsulotni ishlab chiqarganlik va sotganlik uchun tushumlar summasi;
 - narxlarni qo'llash tartibini buzganlik uchun jazolar;
 - jinoyatlar qilish va moddiy boyliklar kamomadida aybdor bo'lgan shaxslardan undiriladigan summalar.
7. Tashqi iqtisodiy faoliyatdan olingan daromadlar, shu jumladan:
 - davlat kreditlari bo'yicha foizlar;
 - davlat zaxiralarini sotishdan olingan daromadlar;

- markazlashtirilgan eksportdan tushumlar summasi;
- tashqi iqtisodiy faoliyatdan olingan boshqa tushumlar.

8. Boshqa turli soliqsiz tushumlar.

Byudjetning soliqsiz daromadlari hududiy belgiga ko'ra (muayyan darajadagi byudjetga kiritish), jalb qilish va shakllantirish usuliga ko'ra (majburiy yoki ixtiyoriy) va soliqsiz tushumlarini shakllantiradigan to'lovlarni undirishning konkret asoslariga ko'ra (davlat mulkini sotishdan olingan daromadlar) tasniflanadi.

Soliqlar va soliqsiz to'lovlarning ko'pgina o'xshash tomonlari bilan birga qator farqli tomonlari ham mavjud.

Pul mablag'larining muayyan qismi davlat xazinasiga soliqsiz to'lovlar tarzida kelib tushadi. Ular soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar singari davlatning qonun chiqaruvchi idorasi tomonidan belgilanadi.

Shu bilan birga soliqlar va soliqsiz to'lovlar o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Bu farqlarni quyidagilardan iborat deb belgilash mumkin:

- soliqsiz to'lovlar soliqlardan farq qilib, ikki tomonlama huquq va burchlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, faoliyatning muayyan turi bilan shug'ullanish huquqini beradigan litsenziyalarni olish maqsadida belgilangan to'lovlarning amalga oshirilishi boshqa shartlar bajarilgani taqdirda vakolatli ruxsatnomani berishi lozim bo'ladi;
- soliqlardan farq qilib, soliqsiz to'lovlar ko'pchilik hollarda majburiy ravishda to'lanmaydi. Soliq esa, uni to'lash obyekti mavjud bo'lganida to'lanadi;
- soliqlardan farq qilib, soliqsiz to'lovlar muayyan maqsadga mo'ljallandi hamda ana shu maqsadda undan foydalanish lozim.

Soliqsiz to'lovlar respublika byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlarida jamlanadi. Ushbu mahalliy soliq va yig'imlarning to'lovchilari doirasi, soliq solish obyektlari, soliq va yig'imlar yuzasidan yengillik va imtiyozlar, soliq va yig'imni hisoblab chiqish va to'lash tartiblari mahalliy hokimiyat idoralarining bevosita o'zlari tomonidan belgilanadi.

Soliqsiz to'lovlar hududiy belgisiga ko'ra: umumdavlat miqyosidagi va mahalliy to'lovlarga; shakllanish usuliga ko'ra: majburiy va ixtiyoriy; jamlanish usuliga ko'ra: davlat byudjetida yoki byudjetdan tashqari jamlanadigan turlarga bo'linadi.

Soliqsiz to'lovlar undirish asoslariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar.

Bu to'lovlarning tabiiy resurslardan tejab-tergab, samarali foydalanishda ahamiyati kattadir;

- davlat idoralari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan turli xizmatlar ko'rsatishdan olinadigan to'lovlar.

Ular jumlasiga:

- tashqi iqtisodiy va boshqa faoliyat tufayli bojxona idoralariga to'lanadigan to'lovlar;
- sud va boshqa huquq-tartibot idoralariga murojaat qilinganda to'lanadigan davlat boji;
- davlat ro'yxatidan o'tkazish, litsenziya (ruxsatnoma) olish va tovarlar uchun sertifikatlar olishdagi to'lovlar;
- bozorlar, yarmarkalar va boshqa savdo shaxobchalaridan olinadigan bir martalik patta to'lovlari;
- qimmatli qog'ozlar chiqarish va joylashtirish, lotoreya o'yinlarini o'tkazish uchun to'lovlar;
- davlat mulkini xususiylashtirishdan kelib tushadigan daromadlar;
- jarima tarzidagi to'lovlar (jarimalar, penyalar va boshqalar).

Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari tarkibiga davlatga tegishli mulklarni sotish va xususiylashtirish natijasida olingan daromadlarni, davlatning tashqi-iqtisodiy faoliyatidan olingan daromadlarni va xorijiy davlatlardan qaytarib bermaslik sharti bilan olinadigan pul mablag'larini kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, soliqsiz daromadlarning zarurligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1. Davlatga tegishli mulklardan foydalanish samaradorligining pasayishi natijasida davlat sektoriga tegishli korxonalarining moliyaviy holatini yaxshilash maqsadida ularni xususiylashtirishning zarurligi.

Davlat sektoriga mansub bo'lgan korxonalarining faoliyati ko'pchilik hollarda xususiy sektor korxonalariga nisbatan samarasiz bo'ladi.

Davlat korxonalarini xususiylashtirish ular faoliyatining moliyaviy barqarorligini oshishiga, iste'mol bozorini tovarlar bilan to'ldirilishini ta'minlashga, ishsizlik muammosini hal qilishga hamda o'rta va uzoq muddatli davriy oraliqlarda soliq tushumlarini ko'paytirishga sezilarli darajada hissa qo'shadi.

2. Davlat byudjeti daromadlarining miqdorini oshirish zaruriyatining yuzaga kelishi.

Davlat byudjeti xarajatlarining sezilarli darajada o'sishi, davlatning iqtisodiy xarajatlarini oshirish zaruriyatini paydo bo'lishi hukumatga soliqsiz daromadlarni oshirish tadbirlarini ishlab chiqarish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Ana shu maqsadda davlatga tegishli mulklarni sotish, davlatga tegishli xorijiy valyutalar va nodir metallarni xorijiy moliya bozorlarida joylashtirish yo'li bilan daromadlar olish va xorijiy tashkilotlarning moliyaviy yordamlarini jalb qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Rivojlangan xorijiy davlatlar ichida Yaponiya soliqsiz daromadlarning

davlat byudjeti daromadlarining hajmidagi salmogʻining yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Bu koʻrsatkich Yaponiyada 15 foizni tashkil etadi. Yaponiya mahalliy byudjetlari daromadlarining 25 foizgacha boʻlgan qismi soliqsiz daromadlardan tashkil topadi. Yaponiya byudjet qonunchiligiga muvofiq soliqsiz daromadlar tarkibiga quyidagi daromadlar kiritiladi:

- ijara toʻlovlari;
- davlatga tegishli yer maydonlari va boshqa qoʻzgʻalmas mulklarni sotishdan olingan daromadlar;
- jarimalar;
- obligatsiyalarni sotishdan olingan tushumlar;
- yutuqli lotoreyalarni sotishdan olingan tushumlar;
- oʻtgan yillarda ishlatilmay qolgan byudjet mablagʻlari.

Davlat byudjetining soliqsiz daromatlari daromad manbalari sifatida nobarqaror va doimiy xususiyatga ega boʻlgan daromadlar hisoblanadi. Buning sababi shundaki, *birinchidan*, davlat mulkini xususiylashtirish jarayoni mohiyatiga koʻra nobarqaror jarayon boʻlib, xususiylashtirishdan olinadigan daromatlarni nobarqaror boʻlishiga olib keladi; *ikkinchidan*, davlatga tegishli oltin-valyuta zaxiralarini bozor stavkalarida joylashtirish natijasida olinadigan daromadlar joylashtiriladigan moliyaviy aktivlarning miqdoriga va bozor stavkalarining oʻzgarishiga bogʻliq boʻlganligi sababli ulardan olinadigan daromadlarning summasi doimiy ravishda tebranib turadi; *uchinchidan*, xorijiy tashkilotlardan va davlatlardan olinadigan moliyaviy yordamlarning miqdori ularni beruvchilar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Bu ularning miqdorini oldindan belgilash imkonini bermaydi.

Davlat byudjetining soliqsiz daromatlari fiskallik va iqtisodiy funksiyalarni bajaradi. Ular daromad manbai sifatida nobarqaror boʻlib, davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmida nisbatan kichik salmoqni egallaydi.

Nazorat savollar

1. Soliqsiz daromadlarning zarurligi nimada?
2. Soliqsiz daromadlarga qanday daromadlar kiradi?
3. Mahalliy hokimiyat egaligida boʻlgan mulkdan yoki xoʻjalik faoliyatidan olingan daromadlarga nimalar kiradi?
4. Mahalliy hokimiyat egaligida boʻlgan mulkni sotishdan olingan daromadlarga nimalar kiradi?
5. Soliqlar va soliqsiz toʻlovlarning oʻxshash va farqli tomonlari qanday?
6. Soliqsiz toʻlovlar qaysi byudjetga tushadi?
7. Soliqsiz toʻlovlar undirish asoslariga koʻra qanday turlarga boʻlinadi?
8. Soliqsiz daromadlarning zarurligi qaysi omillar bilan belgilanadi?

Mavzuqa doir topshiriqlar

14.1-topshiriq. Xususiy savdo firmasi yanvar, fevral oyida faoliyat ko‘rsatmagan. Lekin u mart oyida ulgurji savdo faoliyat bilan shugullanib 15800,0 ming so‘mga olingan tovarni 18200,0 ming so‘mga sotgan. U qancha miqdorda yagona soliq to‘lovini to‘laydi.

14.2-topshiriq. Quvasoy shahrida joylashgan chakana savdo firmasi joriy yil 1-chorak natijasiga ko‘ra quyidagicha tovar aylanmasiga ega bo‘lgan – 24280,0 ming so‘m. Bu tovar aylanmani 38 % ini naqd pulga sotilgan tovarlar aylanmasi tashkil etadi. Berilganlardan foydalanib firmaga hisobot davri uchun yagona soliq to‘lovini hisoblang.

14.3-topshiriq. Qo‘qon shahrida joylashgan iqtisodiyot kolleji hududidagi oshxona joriy 3 oylik natijaga ko‘ra quyidagicha tovar aylanmasiga ega bo‘lgan –42100,0 ming so‘m. Bu tovar aylanmani 56 % ini naqd pulga sotilgan tovarlar aylanmasi tashkil etadi. Berilganlardan foydalanib, firmaga hisobot davri uchun yagona soliq to‘lovini hisoblang.

14.4-topshiriq. Korxona bir oy davomida 12000 ming so‘mlik mahsulot olib, 15000 ming so‘mga sotgan. U qancha yalpi daromad hosil qilgan va qancha miqdorda yagona soliq to‘lovini to‘lashi kerak?

14.5-topshiriq. Gastrol-konsert faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxs joriy yilda 25000 ming so‘mlik daromad oldi. Byudjetga qaysi majburiy to‘lovlarni va qancha miqdorda to‘laydi?

15-BOB

IJTIMOIIY JAMGARMALARIGA MAJBURIY TO'LOVLAR

Reja:

15.1. Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari.

15.2. Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi.

15.3. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar.

Tayanch so'z va iboralar: byudjet, jamg'arma, yagona ijtimoiy to'lov, sug'urta badali, pensiya jamg'armasi, yo'l jamg'armasi, majburiy ajratma, yig'im, soliq to'lovchi, soliq solish obyekti, soliq bazasi, soliq imtiyozi, soliq stavkasi, soliq hisoblash tartibi, soliq hisoboti, soliq to'lash muddati.

15.1. Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari.

O'zbekiston Respublikasida yagona ijtimoiy to'lov 2004 yildan amal qilib kelmoqda. Soliq kodeksining 305-moddasiga binoan yagona ijtimoiy to'lovni to'lovchilar bo'lib yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari, O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa, chet ellik yuridik shaxslarning vakolatxonalari va filiallari orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari hamda jismoniy shaxslar.

Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi va ishlovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lovchilardir.

Sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek ularning to'g'ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallari miqdorini oyiga eng kam ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda, qoramollarni yetishtirish bilan shug'ullanuvchi dehqon xo'jaliklarining a'zolari esa oyiga eng kam ish haqining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorda belgilaydi. Dehqon xo'jaliklarining a'zolari sug'urta badallarini ixtiyoriy ravishda to'laydi.

Yo'shga doir pensiya olish huquqiga ega bo'lgan, shuningdek I va II guruh nogironlari bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklarining a'zolari uchun sug'urta badalining miqdori eng kam ish haqining kamida 50

foizini tashkil etishi kerak.

Ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarining soliq solish obyektidir. Mehnat shartnomalariga yoki ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish predmeti bo'lgan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga hisoblanadigan va to'lanadigan barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi. Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga quyidagilar ham kiradi:

- a) rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar;
- b) kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiya);
- c) ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash.

Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan baza to'lanadigan daromadlar summasi sifatida belgilanadi. Bunda soliq obyektidan yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari hisoblanmaydigan to'lovlar ayriladi.

Imtiyozlar. Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari quyidagi to'lovlarga nisbatan hisoblanmaydi:

- 1) doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) ko'chib yurish xususiyatiga ega bo'lgan xodimlarning, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda ishlar vaxta usulida bajarilgan taqdirda, ish haqiga ustamalar;
- 2) xizmat safarlari vaqtidagi qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);
- 3) xizmat ishlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlardan ortiqcha foydalanganlik uchun to'lovlar;
- 4) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast yetganlik bilan bog'liq zararning o'rnini qoplash uchun ortiqcha olingan summalar.
- 5) xodimga hisoblanadigan va uning roziligi bilan tegishli byudjet yoki xayriya jamg'armalarga (shanbaliklar, yakshanbaliklar va shu kabilar uchun) o'tkaziladigan ish haqi tarzidagi daromadlar;
- 6) xodimning muhim sanasi, uzoq yillik xizmati, jamoat faoliyatida erishgan yutuqlari munosabati bilan unga beriladigan rag'batlantirish tarzidagi to'lovlar;
- 7) xodimga tabiiy ofat, boshqa favqulodda holatlar munosabati bilan to'lanadigan to'lovlar;
- 8) yosh mutaxassislarga oliy o'quv yurtini tamomlaganlaridan so'ng ta'til vaqti uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqalar.

Kalendar yil – soliq davridir. Hisobot davri quyidagilardir:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun – yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lov-

chilar uchun – bir oy.

15.2. Yagona ijtimoiy to‘lovni va sug‘urta badallarini hisoblab chiqarish hamda to‘lash tartibi

Yagona ijtimoiy to‘lov va sug‘urta badallari har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yagona ijtimoiy to‘lov yuridik shaxslarning mablag‘lari hisobidan to‘lanadi, sug‘urta badallari esa xodimlarning ish haqidan ushlab qolinadi va soliq agentlari tomonidan o‘tkaziladi.

Yagona ijtimoiy to‘lovning hisob-kitobi soliq bo‘yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan - yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to‘lovchilar tomonidan – har oyda hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Sug‘urta badallarining hisob-kitobi ro‘yxatdan o‘tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga soliq to‘lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay taqdim etiladi. To‘lov quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- yagona ijtimoiy to‘lov-har oyda, keyingi oyning 10-kunidan kechik-tirmay;
- sug‘urta badallari - ish haqiga pul mablag‘lari olish uchun bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda.

15.3. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar

Pensiya ta‘minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha majburiy badallar to‘liq yig‘ilishini samarali tashkil qilish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to‘lashga yo‘naltiriladigan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15-noyabrda «O‘zbekiston Respublikasi pensiya ta‘minotini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 444-sonli qarori bilan byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga mablag‘ to‘plash va mablag‘ to‘liq tushishi ustidan nazorat qilish funksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi zimmasiga yuklatildi va byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga

majburiy to'lovlar soliqlarga tenglashtirildi.

O'zbekiston Respublikasining rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar – byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilari hisoblanadi.

Quyidagilar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning to'lovchilari bo'lmaydi:

1. Notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;
2. Yagona soliq to'lovini to'lovchi yuridik shaxslar.

Agar boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, sof tushum byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarning soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasidir.

Boshqa daromadlar soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi. Boshqa daromadlarga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi, ular quyidagilardan iborat:

1. Soliq to'lovchining asosiy vositalari va boshqa mol-mulki chiqib ketishidan olinadigan daromadlar.
2. Mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar.
3. Tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek ishlar va xizmatlar.
4. Inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralar hamda boshqa mol-mulk qiymati tariqasidagi daromadlar.
5. Hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi daromadlar.
6. Majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olinadigan daromadlar.
7. Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan olinadigan daromadlar.
8. Undirib olingan yoki qarzdor tomonidan tan olingan jarimalar va penya.
9. Valyuta hisobvaraqlari bo'yicha kursdagi ijobiy farq, shuningdek chet el valyutasidagi operatsiyalar bo'yicha olingan daromadlar.
10. Dividendlar va foizlar.
11. Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar.

Soliq to'lovchilar turli xil soliq solish obyektlariga ega bo'lgan hollarda, ular soliq solish obyektlarining alohida-alohida hisobini yuritishi va tegishli obyektlar uchun belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lashi shart.

Kalendar yil soliq davridir. Hisobot davri quyidagilardir hisoblanadi:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun - yil choragi;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq

to'lovchilar uchun - bir oy.

Nazorat savollari

1. Kimlar yagona ijtimoiy to'lov to'lovchilari bo'lib hisoblanadi?
2. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lovchilari kimlar?
3. Yagona ijtimoiy to'lov mablag'lari qanday tartibda jamg'armalarga taqsimlanadi?
4. Yagona ijtimoiy to'lov va Pensiya jamg'armasiga sug'urta badalining obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?
5. Yagona ijtimoiy to'lov va Pensiya jamg'armasiga sug'urta badalini hisoblash tartibini ayting.
6. Kimlar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalarni to'lovchilar kimlar hisoblanadi?
7. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalarning obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?
8. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallari necha foizni tashkil etadi?
9. Pensiya jamg'armasiga to'lovlarni hisoblash tartibi va to'lov muddatini ayting.

Mavzuqa doir topshiriqlar

15.1-topshiriq. Joriy oyda ishlab chiqarish korxonasida ish haqi fondi 15,2 mlrd. so'mni tashkil qildi, shu jumladan:

- shtat hodimlariga to'langan ish haqi – 10,5 mlrd. so'm;
- ixtiro uchun – 2,0 mlrd. so'm;
- ishlatilmagan ta'til uchun - 2,7 mlrd. so'm;

Barcha to'lanishi lozim bo'lgan majburiy to'lovlarni aniqlang.

15.2-topshiriq. Korxonada quyida keltirilgan xodimlarga to'langan ish haqi turlari bo'yicha byudjetga qaysi majburiy to'lovlar amalga oshiriladi:

- haqiqiy bajarilgan ishlar bo'yicha o'rindoshlik ish haqlari;
- ixtirolarni tadbiq etganlik uchun mukofot;
- bekor turish uchun haqlar;
- tashish bo'yicha haqlar;
- ishlangan yillar uchun mukofot;
- qonunda ko'zda tutilgan me'yordan ortiqcha to'langan safar xarajatlari;
- ishlab chiqarish jarayonida jarrohlanish natijasida to'langan moddiy yordam.

15.3-topshiriq. Korxona rahbarining buyrug'iga binoan xodim A. Yusupov Sankt-Peterburg shahriga safarga yuborilgan. Safardan kelgandan so'ng,

bo‘nak hisobotida quyidagi qilgan xarajatlari to‘g‘risida ma’lumotlar bergan:

- borish-kelish haqi (xujjatlangan) – 2,0 mln. so‘m
- mehmonxonada yashash uchun - 0,9 mln. so‘m, shu jumladan – 5 sutka yashash – 700 ming so‘m, ovqatlanish – 200 ming so‘m;
- bir kunlik xarajatlari – 1, 0 mln. so‘m;
- taksi xarajatlari (hujjatlar ilova qilinmagan) – 50 ming so‘m.

Nafaqa fondiga qaysi xarajatlardan majburiy to‘lovlar qilinadi?

Testlar

1. O‘zbekiston Respublikasida yagona ijtimoiy to‘lov qachon joriy qilingan?

- a) 1998 yil 1 yanvar
- b) 1995 yil 1 yanvar
- c) 1992 yil 1 yanvar
- d) 2004 yil 1 yanvar

2. Qaysi javobda temir yo‘l transporti korxonasining maqsadli jamgarmalariga to‘lovlari berilgan?

- a) Qo‘shilgan qiymat solig‘i
- b) Yagona ijtimoiy to‘lov
- c) Davlat bojlari
- d) Yer solig‘i

3. 2016 yil yagona ijtimoiy to‘lovning qanday soliq stavkasi belgilangan:

- a) 25%, 15%
- b) 18%? 12%
- c) 24%? 10%
- d) 20%,6%

4. Tuman hokimiyatlari soliq bo‘yicha imtiyozlar berishi mumkinmi?

- a) Barcha soliq va to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar berishlari mumkin;
- b) Faqat ayrim soliq to‘lovchilarga imtiyozlar berishlari mumkin;
- c) Yo‘q bera olmaydilar;
- d) 2% ga qisqartirishi mumkin.

5. Soliq va yig‘imlar byudjetga quyidagi ketma-ketlikda hisobga olinadi:

- a) Asosiy summa, hisoblangan penya, jarima summolari
- b) Hisoblangan penya, asosiy summa, jarima summolari;
- c) Jarima summolari, hisoblangan penya, asosiy summa;
- d) Asosiy summa, jarima summolari, hisoblangan penya.

Foydalanilgan adabiyotlar

I. O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. O‘zbekiston. 2015.- 40 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Toshkent. Adolat. 2015. - 692 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to‘g‘risida" gi Qonuni. Toshkent. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. // «Халқ сўзи» газетаси, 1997 йил 29 август, 1-2 б.
4. O‘zbekiston Respublikasining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni tartibga solish to‘g‘risida"gi Qonuni. Toshkent. O‘zbekiston. 1995.
5. «Soliq maslahati»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Toshkent. O‘zbekiston. 2006.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda gi “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ -2699-son Qarori. Toshkent. 2017 yil 14 yanvar.

III. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy-me‘yoriy hujjatlari

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Qarori.
8. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida nizom. Toshkent. O‘zbekiston. 1999.

IV. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. SH.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. “O‘zbekiston”. NMIU, 2017. 29 b.
2. SH.M.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. 47 b.
3. SH.M.Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” NMIU, 2017. 485 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda gi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston

Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

5. Sh.M. Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Toshkent. O'zbekiston. 2017.

V. Darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Alimardonov M.I., To'xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. - T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, - 175 b.
2. Vaxobov A., Jurayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. T.: Sharq, 2009. 448 b.
3. Temir yo'l transporti moliyasi. /N.I. Silayev tahriri ostida. Darslik. – T.: Akademiyasi, 2006 y.
4. Jo'rayev A.S., Toshmurodova B., Toshmatov Sh.A. Soliqlar va soliqqa tortish. - T.: «NORMA», 2009. -184 b.
5. Tuxliev B., Yusupov O.A., Agzamov A.T., Tuxsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish. - T.: TDIU, 2007. -316 b.
6. Shamsutdinov F., Shamsutdinova Sh. Chet mamlakatlar soliq tizimi. Darslik. - T.: "Fan va texnologiya", 2011. -507 b.

Xorijiy adabiyotlar va internet saytlari

1. Government Financial Statistics. IMF, 2015. Washington D.C.
2. Tax Policy. Handbook, Edited by Parhasarthi Shome, IMF, 2007. Washington D.C.
3. Brian Spilker, Benjamin Ayers, John Robinson, Edmund Outslay, Ronald Worsham, John Barrick "Taxation of Individuals" McGraw-Hill Education, USA 2015.
4. Charles W. Swenson, John E. Karayan, Joseph W. Heff, "Strategic corporate tax planning", Gardners books, United Kingdom 2004.
5. Matthijs Alink, Victor van Kommer, "Handbook on tax administration", H.J.E. Wenckebachweg 210 1096 AS Amsterdam The Netherlands, Netherlands 2011.
6. Keepek, "Tax Administration", OECD, UK 2015.
7. Robert Peroni, Steven Bank "Taxation of Business Enterprises, Cases and Materials", West Academic Publishing; USA 2012.
8. Stephen Schwarz Daniel Lathrope, "Corporate and Partnership Taxation", West Academic Publishing, USA 2012.
9. Max Newnham, Tax For Small Business, "Gardners Books", United Kingdom 2013.
10. <http://www.cer.uz>.
11. <http://www.soliq.uz>
12. <http://www.mf.uz>

13. <http://www.tfi.uz>
14. <http://www.gov.uz>
15. <http://www.expert.ru>
16. <http://www.norma.uz/>
17. "Norma"(Me'yoriy-huquqiy ta'minoti) 2013 – 2016

Mundarija

Kirish.....	3
1-bob. “Soliqlar va soliqqa tortish” fanining predmeti va o‘rganish usullari.....	5
1.1. «Soliqlar va soliqqa tortish” fanining maqsadi, predmeti va vazifalari	5
1.2. Rivojlangan mamlakatlar soliq tizimi	6
1.3. Soliqlarning funksiyalari	8
2-bob. O‘zbekiston respublikasida amaldagi soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar	11
2.1. O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi va uning tarkibi	11
2.2. Soliq elementlari.....	14
2.3. Soliq mexanizmi va soliq imtiyozlari	15
2.4. Yuridik shaxslarning solikli va soliqsiz to‘lovlari tavsifi	16
2.5. Jismoniy shaxslarning solikli va soliqsiz to‘lovlariga tavsif.....	17
3-bob. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i va obodonlashtirish ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i.....	21
3.1. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘ining iqtisodiy mohiyati, ahamiyati va byudjet daromadlarida tutgan o‘rni	21
3.2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i elementlari	22
3.3. Soliqni hisoblash va to‘lash muddatlari.....	26
3.4. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i elementlari, hisoblash va byudjetga to‘lash tartibi.....	28
4-bob. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi	34
4.1. Soddalashtirilgan soliq tizimi haqida tushuncha va uning iqtisodiy ahamiyati	34
4.2. Yagona soliq to‘lovi elementlari.....	36
4.3. Yagona yer solig‘i elementlari.....	38
4.4. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq.....	40

5-bob. Qo‘shilgan qiymat solig‘i.....	45
5.1. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining iqtisodiy ahamiyati.....	45
5.2. Qo‘shilgan qiymat solig‘i elementlari	46
5.3. Soliqni hisoblash va byudjetga to‘lash	49
6-bob. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	55
6.1. O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimida mol-mulk solig‘ining iqtisodiy mohiyati.....	55
6.2. Mol-mulk solig‘i elementlari	56
7-bob. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	60
7.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining iqtisodiy mohiyati.....	60
7.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i elementlari.....	60
8-bob. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i.....	66
8.1. Yer solig‘ining iqtisodiy mohiyati.....	66
8.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i elementlari	69
9-bob. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i.....	74
9.1. Yer solig‘ini to‘lovchilar va jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i obyekti.....	74
9.2. Yer solig‘i stavkalari va yer solig‘idan jismoniy shaxslar uchun imtiyozlar	75
9.3. Jismoniy shaxslar yer solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi	77
10-bob. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.....	80
10.1. Jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq elementlari	80
10.2. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi tarkibi	82
10.3. Jismoniy shaxslarning daromadga solig‘ini hisoblash, hisobotlar, hisob-kitoblar va deklaratsiyalar taqdim etish tartibi.....	83
10.4. Chet ellik jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning xususiyatlari.....	86

11-bob. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	89
11.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning iqtisodiy mohiyati	89
11.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning elementlari	90
12-bob. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar	95
12.1. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortish zarurligi.....	95
12.2. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar elementlari.....	97
12.3. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlarni to'lash tartibi	98
13-bob. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.....	101
13.1. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqning iqtisodiy mohiyati	101
13.2. Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliqi elementlari	101
14-bob. Davlat byudjetining soliqsiz daromadlari.....	106
14.1. Davlat byudjeti soliqsiz daromadlarining zarurligi va mohiyati	106
14.2. Davlat byudjeti soliqsiz daromadlarining turkumlanishi	107
15-bob. Ijtimoiy jamgarmalariga majburiy to'lovlar	112
15.1. Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari.....	112
15.2. Yagona ijtimoiy to'lovni va sug'urta badallarini hisoblab chiqarish hamda to'lash tartibi	114
15.3. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar.....	114
Foydalanilgan adabiyotlar	118

**Sonya Maxmudovna Sultanova,
Minavar Mirzaxmatovna Yuldasheva,
Ziyod Niyozovich Qurbanov**

SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH

O'quv qo'llanma

Muharrir: Yu.Yu.Nurmetova
Texnik muharrir va sahifalovchi: M.X.Tashbaeva

Nashrga ruxsat etildi 15.12.2017 y.
Qog'oz bichimi 60×84/16. Hajmi 7,8 b.t.
Adadi 15 nusxa. Buyurtma №2-2/2017
ToshTYMI bosmaxonasida chop etildi
Toshkent sh., Odilxo'jaev ko'chasi, 1uy

Toshkent temir yo'l muhandislari instituti, 2018y.